

SHUHRAT

**YETIM BOSHIN
SILAGANLAR**

Hikoya va qissalar

**TOSHKENT
•SHARQ• NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK kompaniyasi
BOSH TAHRIRIYATI
2005-YIL**

Shuhrat

Yetim boshin silaganlar: Hikoya va qissalar.— T.: «Sharq», 2005.— 224 b.

Atoqli yozuvchi Shuhratning bolalar va o'smirlar hayotini aks ettirgan hikoya va qissalari talaygina. Adib o'z asarlarida bolalarning axloq-odobi, mehnatsevarligi, bir-birlari bilan do'stliklari, o'tgan asrning 1941—1945-yillarida sodir bo'lgan Jahon urushi yillarida yoshlarning ko'rsatgan jasratlari haqida hikoya qiladi. Ushbu kitobdan yozuvchining maktabga borishni — o'qishni juda-juda xohlagan, bilimga tashna, ammo urush tufayli niyatiga yeta olmagan bola to'g'risidagi "Chanqoqlik" qissasi ham joy olgan.

O'z.2

Q "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati, 2005-yil.

TEZOQAR SUV

— Hoy, zumrasha, oqib ketasan. Sen cho‘milmasang kimning ko‘ngli qolibdi. Haftada bir cho‘miltirib qo‘yaman-ku o‘zim, — deb Qo‘ldoshning ketidan bag‘illab qoldi buvisi. Qo‘ldosh cho‘milgani ketdi. Qo‘ldoshning buvisi bunaqangi qattiq bag‘illagani bilan o‘zi juda mehribon, nabirasini jonidan ortiq ko‘radi. Yaxshi ko‘rganidan urishadi, uni ehtiyot qiladi. Qo‘ldosh esa, juda sho‘x. Birinchi sinfga endi borgan bolalar singari har narsani bilgisi keladi, kattalarga o‘xshab yurgisi keladi. Ayniqsa u suzishga, to‘g‘risi, cho‘milishga ishqiboz. Bunga u kinoda g‘avvoslarni ko‘rgandan beri ishqiboz. Yana bir kuni televizorda bir jangchining suzishni yaxshi bilgani tufayli komandirning muhim topshirig‘ini bajarganini ko‘rdi. Axir bir kuni Qo‘ldosh ham jangchi bo‘ladi-ku. O‘shanda komandiri topshiriq berib qolsa, daryodan suzib o‘tish to‘g‘ri kelsa, unda nima qiladi?!

Demak...

Qo‘ldosh suzishni bilib qo‘yishga ahd qildi. Lekin cho‘milishga qulay yer yo‘q. Ulardan ikki yuz metrcha naridan ariq o‘tadi. Ammo bu suv o‘zi sayoz

bo'lsa ham juda tez oqadi. Qo'ldoshga o'xshagan bolalarni birpasda dumalatib ketadi. Shunday bo'lsa ham Qo'ldosh cho'miladi. U yo'lini topgan: sohilda bitta baqaloq tol bor. Uning ikkita shoxi suvga osilib tushgan. Suv uni o'zi bilan olib ketmoqchi bo'lgandek pishiq va ko'm-ko'k shoxlaridan tortqilaydi. Lekin shox-shabbalar avvaliga "mayli sen bilan ketaman" degandek sal ergashadi-yu, yana to'xtab qoladi. Bu hol ertalabdan-kechgacha takrorlanadi.

Qo'ldosh ana shu shoxlarga osilib oyoqlarini tapillatadi, ba'zan kuchini sinamoqchi bo'lgandek bir qo'lini qo'yib yuboradi. Ana shunday "kuch sinash"-lardan birida u oqib ketdi. Bir-ikki dumalagandan so'ng zo'rq'a sohilga chiqib oldi. Bu hodisa kim orqalidir buvisining qulog'iga yetibdi. Buvisining boyagi bobillashi ana shundan edi.

Qo'ldosh bu gal ham maza qilib cho'milib qaytdi. Biroq buvisi bu gal kechirmadi. Kechqurun ishdan qaytgan bog'bon buvasiga chaqdi:

— Buvasi, men bu nevarangizning kafilini ololmayman. Gapimga quloq solmaydi. Bugun ham cho'mildi.

Qo'ldoshning dadasi kasalmand aya-

sini da'volatgani olib ketgan. Qo'ldoshning butun izmi buvisi bilan buvasida. Shuning uchun ular har vaqtdagidan ko'ra qattiqqo'lroq. Shunday bo'lsa ham buvasi buvisining yoniga tushmadi. Qo'ldoshga sal xo'mrayib qaradi-yu, ketidan miyig'ida kulib qo'ydi.

— Suzishni bilasanmi, o'g'lim? — dedi u.

Qo'ldoshga jon kirdi, sayrab ketdi.

— Gap shunda-da, buva, bilmayman. Tengqurlarimning hammasi biladi.

— Erkak bolaning suzishni bilmagani, albatta, yaxshimas. Bu kerak narsa!

— Bo'lmasa-chil!

— Hoy, hoy buvasi, nima deyapsiz? Bir falokatni boshlamoqchimisiz, ota-onasi yo'g'ida-ya! — buvaning shaxtini qaytarmoqchi bo'ldi buvi, lekin buva bo'sh kelmadi:

— Avvalam bor katta ota-onasi sen bilan men. Keyin ular. Ular bo'lsa, nima qilsa qilaveradimi? Yo'q. O'g'ling aqli bola. Sen bilan mening so'zimdand chiqmaydi. Shundaymi, Qo'ldoshjon? Ammo lekin sen bilan men ham bolaning ra'yi-ni qaytaraverishimiz yaxshi emas. Ba'zan yordam berishimiz kerak.

Buvi gapning tagiga tushunmadi.

— Men bilmayman, bir falokat bo'lsa, ota-onasiga o'zingiz javob berasiz, — dedi buvi va sigirni sog'gani og'ilxonaga o'tib ketdi. Buva orqasidan gapirib qoldi:

— Sen xavotir olma, xudo xohlasa, hech narsa bo'lmaydi.

Ammo saranjom buva bu so'zining ham tadbirini ko'rdi. Bir kuni ishdan qolib, Qo'ldoshni yoniga chaqirdi:

— Labbay, buva? — yugurib keldi Qo'ldosh.

— Senga o'xshab cho'milishni yaxshi ko'radigan o'rtoqlaring ko'pmi? Nechta bor?

— Ko'p. Ancha bor. Nima edi?

— Barini yig'ib kell

— Xo'p bo'ladi.

Qo'ldosh bu gapning tagiga yetmasa ham buvasi yaxshi bir niyat qilayotganini qalbi bilan sezib, yelib ketdi. Tengdoshlarini uyma-uy yurib, yig'ib keldi. Yarim soat ichida uning o'ziga o'xshagan qora-qura o'ntacha bola buvaning qoshida qator turardi.

— Hammalaring ham cho'milishga ishqibozmisanlar?

Bolalar nima gap ekaniga tushunmay avvaliga iymanishib turishdi. Keyin chug'urlashib javob berishdi.

— Unday bo'lsa, menga yordam beringlar! Qani, azamatlar, ketdik.

Buva bolalarning qurshovida yo'lga tushdi. O'sha bir tegirmon suv oqadigan katta ariqning yoyiqroq yeriga kelib buva to'xtadi. Bolalar ham.

— Gap shu, — dedi buva, — ariqning mana shu yeridan men sizlarga bo'g'ib beraman. Dami qaytadi, keyin sizlarni oqizolmaydi. Bemalol cho'milaverasizlar. Bo'ptimi?

— Bo'ptil! — bolalar ma'qullashdi.

— Bo'lgan bo'lsa, hu anavi toshlarning yirik-yiriklarini mana bu yerga to'planglar. Lekin ehtiyot bo'linglar, oyoqlaringga tushib ketmasin.

Bolalarga qanot bitdi. Chumoliday o'rmalashib, bir oz vaqt ichida anchagina tosh tashib qo'yishdi. Uch-to'rtta kattasini buvaning o'zi bir-ikki dam olib ko'tarib keldi. Birpas damini olgach, haligi katta toshlardan birini mo'ljal bilan suvga dumalatdi. Uning yoniga yana birini tushirdi. "Mening yo'limni to'sma" degandek, shiddat bilan oqib kelayotgan suv avvaliga bir zarb bilan toshni oqizib ketmoqchi bo'ldi. Yo'q, kuchi yetmadi shekilli, uning ustidan, yonidan jahl bilan o'tib keta boshladi. Toshlar tashlanib borgan sari suv

ko'tarilib, uning shiddati ham qayta boshladi. Borib-borib yo'liga to'g'anoq bo'lgan katta-kichik toshlarning orasidan otilib, ustidan toshib o'tib, yo'liga keta boshladi. Tosh to'g'onning bu tomoni ancha ko'tarilib, suv sekinlashdi, u tomoni esa hamon avvalgidek tez va shiddat bilan oqardi.

To bu tosh to'g'onni epaqaga keltirguncha buva qora terga tushdi. Kiyimboshlari shalabbo bo'ldi. Tog' suvi muzday bo'lmaydimi, buva suvda uzoq turolmasdi. Sohilga chiqib isinib olardi.

Xullas, kun tikkaga kelganda ish tamom bo'ldi. Bolalarning sevinchi ichiga sig'masdi.

Buva bolalarning rahmatiga ko'milib, qo'rg'oniga qaytarkan, yana bir ta'kidlashni unutmadi:

— To'g'onning ustiga chiqmanglar, u hali yaxshi o'rnashgani yo'q, bosib qoladi. Uyog'iga ag'anasanglar oqizib ketadi. Xo'pmi?

— Xo'p, buva! Ming rahmat!

— Xo'p, buva!

Bolalar baravar chug'urlashardi. Buva ko'zdan g'oyib bo'lar-bo'lmas yechinib, suvga tushishdi. Buni qarangi, suvning tez oqishi bo'g'ilgani ustiga ancha chuqur tortibdi. Endi Qo'ldosh-

ning ko'krigidan keladi. Bu juda yaxshi. Endi quloch otib suzsa ham bo'ladi. Bu betidan sho'ng'ib, narigi betidan chiqsa ham bo'ladi.

— Qo'ldosh! Zab buvang bor-da! — deb faxrlanishdi bolalar. Lekin Qo'ldosh kekkaymadi:

Sening buvang yomonmi? Seniki ham yaxshi. Hammamizni yig'ib gupayvand qilishni o'rgatganlari esingdami?

— Bo'lmasam-chil

Bolalar kuni bo'yi maza qilib cho'milishdi. Kuni bo'yi tillaridan buvalari tushmadi.

1970

QODIR OTA

Qodir ota bizdan uch xonadon narida turadigan qo'shnimiz. O'zi tinib-tinchi-maydigan duradgor. Kishilarning ishini pudratga olib ishlardi. Kecha-kunduz ishlardi-yu, lekin nima uchundir yaxshi yashashmas edi. Bolalari doim eskituskiga o'ralib yurar, o'zi ham berigi do'kondor qo'shnimiz Fayziahmadxon boyvachcha singari mashinachiga tik-tirilgan kamzullar kiymas, oyog'ida amirkon etigi ham yo'q edi. Qishin-

yozi yupun yurardi. Hech kim bilan ishi ham yo'q, o'zi kamgap edi. Lekin qo'ni-qo'shnilarning yirtiq-yamoqlarini tuzatib berishda juda mehribon edi. Bizning oshxonamizning singan ikkita yog'ochini shu kishi ertalabdan-kech-gacha ishlab almashtirgan. Dadam pul berganlarida qo'llarini qaytargan. Dadam hayron bo'lib:

— Bu qanday bo'ldi, Qodirvoy? — deganlarida u o'sib ketgan soqollarini silab:

— Shu ishga ham haqmi? Biz kam-bag'allar bir-birimizga qayishmasak, kim qayishadi. Bir kuni berarsiz, — deb chiqib ketgan. Dadam bachki etikchalar tikadigan kosib edi. Biz ham yaxshi turmasdik. Qodir ota buni yaxshi bilardi. Bari bir otam undan qarzdor bo'lib qolmadi. Kuzda Qodir otaning bittayu bitta ko'zining oqu qorasi yolg'iz o'g'li Nodirga etikcha tikib berdi. Nodir bilan men tengdosh edim. Birga o'ynardik. Nodir ham dadasiga o'xshagan og'ir va yuvosh edi. Hech bolalar bilan urishmas, o'tirib o'ynaydigan o'yinlarni yaxshi ko'rardi. Biz ikkalamiz o'ynayotganimizni ko'rgan Qodir ota ba'zan "balli, mana shunaqa ahil bo'lib o'ynanglar" deb boshimizni silab o'tar,

ba'zan yuzimizdan o'pib qo'yardi. Ana shunda men undan ter va qipiq hidi kelayotganini darrov payqardim. Mening dadamdan esa, teri rezgisi bilan mum hidi kelardi.

Ana shu o'z ishini jimgina qilib yuradigan Qodir ota mahallada bizga maktab ochib bergan kishi bo'ladi.

Bir kuni ana shu Fayziahmadxon boyvachchanning hovlisiga ancha kishilar kelishdi. Ichki-tashqi hovlini bir-bir aylanib chiqishdi, xonalarini sanashdi. Shiylariga solingan naqshlariga, o'ymakor eshiklariga suqlanib qarashdi. Kelganlar orasida Qodir ota ham bor edi. U keyingi vaqtlarda duradgorchilik qilmas, hukumat ishiga kirib ketgan edi. Ba'zan to'pponcha osib, kalta charm kamzulda ko'rinib qolardi. Soqolini ham ancha qisqa qilib tarashlatgan. Harakatlari bari bir avvalgidek vazmin, hali ham salmoqlab gapirardi.

Ichki-tashqi hovlini aylanib chiqishgach, Qodir ota hovli yuzida tomga tirog'lik turgan narvonning bir pochasiga o'ng oyog'ini qo'yib, sheriklariga "xo'sh, sizlar nima deysizlar?" degan ma'noda qaradi. Shu orada kishilar ketida ergashib yurgan biz bolalarni ko'rib, kulib qo'ydi. Meni chaqirib,

o'g'lini so'radi, boshimni siladi. Sheriklari o'zaro nimadir gaplashar edi. Qodir ota ularning javobini kutib turmay salmoqladi.

— Mana bular o'qisin, oq-qorani tanisin. Bu yerni maktab qilamiz. Boshqa narsaga uvol ketadi.

Sheriklari qarshilik bildirgan edi, Qodir ota ularning so'zini bo'ldi:

— Artelga joy topiladi. Avval bizga maktab zarur. — So'ngra kulib qo'ydi: — Yaxshi maktab solib olganimizdan keyin sizga bo'shatib berishimiz mumkin.

Boshqalar ham unga qo'shilishib kulishdi, bittasi luqma tashladi:

— Hali bu ham bizga yoqmay qoladi deng.

— Yoqmaydi emas, torlik qilib qoladi, axir katta-kichik hamma o'qishi, savodxon bo'lishi kerakmi? Bo'пти-da!

Chindan ham uch yildan keyin Fayziahmadxon boyvachcha hovlisida ochilgan maktab torlik qilib qoldi. Kunduzi bolalar, kechqurun kattalar o'qir edi, bir nechta savodsiz va chalasavodlar sinflari bor edi. Ana shu yili Qodir ota maktabga mudir bo'lib keldi. Endi u ancha qarib qolgan, soch-soqoli oqargan, xat o'qisa ko'zoynak tutardi.

Biz to'rtinchi sinfda o'qiyotganda bu tinib-tinchimas odam, yana bir katta ish boshlab qoldi. Bizning mahalladan chiqaverishda past-baland, tashlandiq maydon bor edi. Ana shu yerni tekislatdi, allaqayoqdan birtalay g'isht, yog'ochlar olib keldi. Keyin bilsak, Qodir otaning tashabbusi bilan yetti yillik maktab solinayotgan ekan. Maktab sal vaqt ichida qad ko'tarib qoldi. Yozda Qodir otaning o'zi poyteshasini qo'lga olib, ishga tushib ketdi. Biz bolalarni ham tosh tashish, payraxa yig'ishga chaqirib turdi. Ba'zan choyxonada o'tiradigan bekorchilarni hasharga aytib qolardi:

— O'z o'g'il-qizlarimizga-ku, qani, baraka topkurlar, bir-ikki kun qarashib yuboringlar!

Uning gapini mahallada hech kim ikki qilmas edi. Keyin bilsak, maktab uchun uskunalarni hukumat berganu qurayotganlarning hammasi hasharchilar, shu atrofdagi mahalla kishilari, bo'lajak o'quvchilarning otalari, akalari ekan.

Kuzda maktab bitdi. Shunday chiroyli chiqdiki, asti qo'yavering. Sinflari qator, oldi ayvon, katta zali ham bor, osti erto'la. Ayvoni oldidagi qator ustunlarining bir chetidan qarasangiz,

ko'zingiz tinib ketadi, tepasi tunuka. Sinflar pechkali.

Biz beshinchi sinfni shu yerda eng chetdagi sinfda boshladik. Bolalar ko'p bo'lsa ham sinflar bemalol yetishardi, hatto tajriba o'tkazish uchun xonalar ham bor edi.

— O'g'il-qizlarim, — dedi bir kuni talabalar umum majlisida Qodir ota, — mana sizlarga yaxshi maktab solib berdik. Endi yaxshi o'qish, intizomli bo'lish sizlardan. Bu o'z maktabinglar, uni o'z ota-onanglar solib berdi. Qadriga yetinglar, toza tutinglar.

Qishi bilan issiq sinflarda maza qilib o'qidik. Bu anavi maktabimizdan ming chandon yaxshi edi. Bahorda Qodir ota boshchiligida maktab hovlisiga tartib bilan teraklar ekdik, o'rtasini gulzor qildik. Shunday qilib, maktabimiz bir necha yil ichida ko'kalamzorga aylandi.

Hozir o'sha biz o'tqizgan teraklar quchog'ingizga sig'maydi, tagidan shildirab oqqan ariqning ikki cheti betonlashtirilgan.

Qodir ota endi qarigan. Hozir u pensiyada. O'g'li oliy ma'lumotli, bir katta zavodda konstruktor-injener. Men bo'lsam, mana shu maktabda muallimman.

Qodir ota tashabbusi bilan qurilgan maktabda endi uning nabiralari va mening o'g'il-qizlarim o'qimoqda. Bizlar kabi ular ham Qodir otani faxr bilan tilga oladilar, hurmat qiladilar.

1962

“OTANGGA RAHMAT!”

Marat bombardimondan cho'chib uyg'ondi. Tun. Qorong'i. Yulduzlar tiniq va yirik yonadi. Havo iliq. Mayin shamol achchiq dud va porox hidini olib keladi.

Kecha kun tinch o'tgan, kechqurun ham sokin edi. Bundan xotirjam bo'lgan Maratning onasi butun bisotlari — bir dona adyolni pichan ustiga yozib, o'g'lining yelkasiga qo'lini tashladi:

— Kel, bolam, ozroq orom olaylik. Kechadan beri sen ham mijja qoqmading.

— Siz-chi, siz ham uxlamadingiz.— O'z navbatida mehribonchilik qildi Marat. — Siz ham yoting.

— Yotaman, bolam, yotaman. Juvon-marg bo'lgur bu urush holi-jonimdan to'ydir.

Ona-bola yonma-yon cho'zilishganini Marat yaxshi eslaydi. Lekin qachon

uyquga ketganini bilmaydi. Yerto'la-ning qirsillab larzaga kelishidan, shu-villab tuproq to'kilishidan ko'zi ochilib ketdi. Uyqu qochdi.

— Biznikilarga o'xshaydi, oyi, xuddi biznikilar bu.

— Bo'lsa bordir. Bizning bomba o'zimizni mayib qilmaydi deysanmi, bolam. Buyoqqa o't.

Ona o'g'lini burchakka oldi.

Qasir-qusur portlash, gumburlash an-cha vaqt avj oldi. Yerto'laning ichi tuproqqa to'ldi. Ona-bolaning bo'ynila-riga tuproq tushdi. Lekin Marat o'kin-mas, bo'ynini qoqib, yana ham xursand bo'lardi.

— Biznikilar! Yashasin biznikilar! Nishonga olib tashlashyapti, oyi, qo'rq-mang, bizga tegmaydi. Nemislar rosa qirilayotgandir-a?

— Qirilsin! Battar bo'lsin!

Maratning sevinchi ichiga sig'masdi. Olamni larzaga keltirayotgan bombardi-mon uni dahshatga solmas, o'lish, nainki o'lish, hatto yarador bo'lish xayoliga kelmas edi. Axir do'stingning mushti qancha katta va zalvarli bo'lsa senga shuncha yaxshi, deb shuni aytadilar-da.

Bu bombardimon ona-bola uchun be-ziyon o'tdi. Lekin ertalab allaqayoqdan

uchib kelgan ikkita to'p o'qining bit-tasi Maratni onasidan judo qildi.

Marat podvalda edi. Onasi tashqariga chiqdi-yu, saldan keyin snaryad kelib tushdi. Marat onasining chinqirganini eshitdi. Yugurib chiqsa, ona qop-qora qonga belanib yotibdi. O'g'lini ko'rib ko'zini ochdi-yu, keyin chirt yumdi. Shu yumganicha boshqa ochmadi. Bu uning vidolashuvi edi.

Marat avvaliga juda shoshib qoldi. Qo'rqqanidan yig'lashini ham bilmasdi. Qo'shni xotin chiqib:

— Marat, chinqirgan kim?— de-gandagina onasining halok bo'lgani-ni idrok etdi. Faryod soldi. Odam yig'il-di.

Urush odamlarning diydasini qotirib yuboradi. Kunda nechtalab o'lik va qonga belangan yaradorlarni ko'rib tur-ganingdan keyin ilojing qancha!

Shuning uchun qo'shnilar Maratning onasi qoshida odatdagidek ko'zyoshi to'kib, rasm-rusm qilib o'tirishmadi. Qo'shni garang chol tushgacha tobut yasadi, allaqayerdan qobirg'alari sanalib qolgan oriq ot qo'shilgan eski arava topib keldi. Onani tobutga solib, arava-ga qo'yishdi. Yoniga Marat bilan bir qo'shni kampir o'tirdi, xolos. Qabris-

tonga ham olib borisholmadi. Yo'llarini gitlerchi ofitser to'sib chiqdi:

— Buyoqqa o'tish mumkin emas!

Noiloj qolgan chol otning boshini o'ng tomonga burdi. Saldan keyin qiya-likka borib to'xtadi. Qabr qazishga munkillab qolgan cholning kuchi yetmadi: ikki marta dam olib ham chuqur-roq bir qabr qaziy olmadi.

— Darmon yo'q, Maratjon, — dedi u o'zini oqlamoqchi bo'lgandek.

— Men ham yordamlashaymi? — dedi Marat.

— Mayli, bolam, savob bo'ladi, — chol belkurakni uzatdi.

Kuchsizlikdanmi yoki qorni ochligidanmi Maratni darrov ter bosdi, ishi unmad. Belkurakni yana chol oldi. Xullas... bechora ona bir amallab yerga qo'yildi.

Marat onasining ustiga tuproq tortilib bo'lganidan keyingina uzil-kesil ishonch hosil qilgandek faryod urib, ustiga o'zini tashladi.

— Foydasi yo'q, bolam, — dedi yonidagi shaftoli qoqidakkina etsiz kampir. — Onasi o'lgan bitta senmi? Mana men, men-chi? Ikki azamat qizimdan ajralib shox-shabbasiz qarag'aydek sho'ppayib o'tiribman. Xudo ko'rsatmasin, boshim

yostiqla tegsa, bir qultum suv beruvchim yo'q. Xazon bo'lgur Gitler o'lma-di-yu, biz qutulmadik.

Marat bu mitti kampirning ikkala qizini ham gitlerchilar bir kechada olib chiqib ketganini, ertalab o'liklari jar yoqasida topilganini esladi.

Ular uchovlon orqalariga qaytdilar. Qishloq chetidagi yarim vayrona kulbalariga yetganda mitti kampir un-sizgina kelayotgan Maratning yelkasi-ga asta qo'lini tashladi, o'zinikiga burdi. Marat ham indamayin unga itoat etdi. U shu kundan boshlab mitti kam-pir yonida qoldi.

Lekin bu ona-bolalik ikki kunga cho'zildi.

Dunyo ko'ziga xunuk ko'rinib, yuragi alamdan siqilib yurgan Marat ertalab soy yoqalab onasi qabriga ketayotsa, butalar orasida bir nemis o'lib yotibdi. Biznikilar qishloqni tashlab chiqib ketishgandan beri turli-tuman fojialarni ko'raverib, eshitaverib eti o'lib qolgan Marat tap tortmasdan murdaning qo-shiga bordi: nemis ofitseri. Yonida sumkasi.

Marat ko'ziga dastlab uning yiltiroq etigi yaxshi ko'rinib ketdi. Keyin bir-dan sumkasida zarur qog'ozlar bo'lishi

esiga tushib, uni asta qo'liga oldi. Bir chetga o'tib, ichini ochdi. Talaygina qog'ozlar bor ekan. Ayniqsa kartaga o'xshagan bir yapalog'i uning diqqatini jalb qilib qoldi. Unda qandaydir belgilar ham bor edi. "Nemis mudofaasining plani bo'lsa-ya?" degan o'y Marat miyasidan chaqmoq chaqib o'tdi. Sumkani qo'yniga tiqib, mitti kampir oldiga chopdi. Unga yuragini ochdi.

— Men bunaqa narsalarga tushunmayman, bolam, — dedi mitti kampir. — Chol bilmasa agar...

Marat garang cholga ko'rsatdi. U ham uzil-kesil bir narsa deyolmadi-ku, "lekin har holda bekorchi qog'ozga o'xshamaydi", dedi.

Shu gap Maratga kifoya edi!

Bu kerakli qog'ozni endi nima qildi? O'zimiznikilar kelgunicha asrab qo'ysa, unda qimmatli qolmasligi mumkin. Nemis qo'mondonligiga-ku o'lsa ham eltib bermaydi. Dushmanga-ya! Yurtini bosib olib, maktabini otxona qilgan, onasining boshini yeganlarga ko'mak beradimi? Hech-da!!

Demak, bitta yo'l bor. Bu "bekorchi bo'lmagan qog'ozlarni" o'zimiznikilarga yetkazish kerak. Ehtimol juda zarur, ular razvedkalar uyushtirib, qo'lga ki-

ritolmay ovora bo'layotgan qog'ozdir. Maratning ichida bir nido nuqul: "O'sha zarur qog'oz shu! Kechiktirma" der edi.

U niyatini yana o'sha mitti kampirga aytgan edi, qayirib soldi:

— Uddalolmaysan!

— Uddalasang-chi?

— Bu kattalarning ishi. Bu avvalgi vaqtmidi, avtobusga o'tirasang-u, lip etib yetib borasan. Yo'l to'la nemis. Bilib qolsa bormi, naq teringga somon tiqadi.

— Ko'rib bo'pti!

Maratga yo'lda dushmanning borligi emas, kampirning "sening qo'lingdan kelmaydi", degani juda alam qildi. Nahotki Marat shunaqa yosh bola bo'lsa! O'zi shunaqa past bo'y, kamgo'sht — kichikka o'xshab ko'rinadi. Bo'lmasa...

Maratning niyati qat'iy edi. Mitti kampirning "hay-hay"iga quloq solmasdan yo'lga chiqdi. U yaxshi biladiki, biznikilar juda ham uzoqda emas. Agar uzoqda bo'lsa, ikki tomonning otishmalari bunchalik eshitilib turmas edi.

Marat o'sha otishmalar tomonni mo'ljalga olib, ertalab tong qorong'isida yo'lga tushdi. Sumkadagi qog'ozlarni juda ehtiyotlab pidjagining yelka-

sidagi yostiqlik orasiga joylashtirgan edi.

U qishloqqa tushdan keyin, katta yo'lni chetlay-chetlay yetib bordi. Soylikda bir oz yotib damini oldi. Mitti kampir bergan ikkita pishgan kartoshkani bir burda non bilan maza qilib yedi. Bunaqa shirin taomni bu yaqin orada totmagandek rohatlanib ketdi.

Qishloq to'la nemislar edi. Ularning harakatidan biznikilar qaysi tomonda va necha kilometrcha yiroqdaligini taxminladi. Bir eski boloxonaga chiqib atrofni kuzatdi, jo'nash yo'lini rejaladi. Ayniqsa qorong'i tushgach, otishmalarining yoritishidan front qayerdan o'tishini bilib oldi. Shu boloxonada tunadi. Yana tong qorong'isida "omadimni ber!" deganicha yo'lga tushdi. Yuz-ko'ziga chang tuproq sochib, shi-mining bir pochasini ataylab chokidan yirtib, o'zini niqoblagan bo'ldi. Serqatnov yo'lni chetlab, soy bo'yidagi botqoqlikdan ketaverdi. Buyoqda deyarli nemislar yo'q edi. Bitta uchragani ham ortiqcha qiynamadi: allanimalar dedi, lekin Marat tushunmadi, o'zinikini aytdi:

— Ho' anovi yerda turamiz, buvim bilan!

Qora terga botgan, holdan toygan Marat shom qorong'isida bir buzuq ko'prikning qoldiqlariga tarmashib, kattagina anhordan o'tdi-yu, ko'ngli tinchidi. Shu anhorning ikki tomonida urush borardi.

Uni birinchi bo'lib tepalik bag'rida pisib yotgan kuzatuvchi to'xtatdi:

— Kimsan?

— Marat.

— Marat bo'lsang bordir. Buyoqda nima qilib yuribsan?

— Menga katta komandiringiz kerak. Juda zarur ishim bor.

— Kichikrog'i bo'lmaydimi? — kuldi jangchi.

— Kichikrog'i o'qiy olmasligi mumkin. Men zarur qog'oz olib keldim.

— Partizanmisan? Partizanlar yubordimi?

— Yo'q. O'zim keldim.

— Zo'rsan-ku. Qani qog'ozingni ko'rsat-chi, men o'qiy olarmikanman.

— Yo'q, sizga bermayman.

— Beraqol.

— Yo'q, bermayman. Bekorga vaqt o'tkazmang.

— Shundaymi? Mayli. Zo'rlik yo'q. Qani, yur!

Soldat Maratni boshlab ketdi. U qo'l-

ma-qo'l o'tib, xuddi kutganidek katta komandir qoshida paydo bo'ldi. Bu komandirga ham o'smoqchilab, bir-ikki savol berdi.

— Yigitcha, juda chiyratmasan-ku! Otang kim? — dedi kulib komandir.

— Agronom. Frontda. Ehtimol sizning qisimingizdadir?

Komandir uning savolini eshitmadi. Chunki bola bergan hujjatlar uni mahliyo qilib qo'ygan edi. Ayni muddaol

Komandir bu hujjatlarning qo'lga tushish tarixini yana bir qayta so'rab surishtirgach, bolani bag'riga bosdi, kir-chir yuz-ko'zlaridan o'pdi.

— Otangga rahmat, azamat! Zo'r ish qilibsana-ku! Bu bari juda kerak hujjat.

Komandir o'ta mamnun edi. Maratning-ku sevinchi ichiga sig'masdi.

1970

BOLA BOG'

Saksonboy ota yetmishdan oshgandan keyin dala ishidan qoldi. Zerikishini bildi shekilli, qo'rg'on oldiga baland supa qurdirib oldi. Bu supa Saksonboy otaning yoz kunlari dam olib o'tiradigan, chor atrofni tomosha qiladigan

joyi. Supaning bir tomoni tekis dala, chap yog'i suv chiqmas sayhon tepalik. Saksonboy ota shu yoshga kelib, shu tepalikka birov biror marta ketmon urganini ko'rmagan. Bu yer Saksonboy ota bolaligida qanday qoq yer bo'lsa, hozir ham shunday bo'm-bo'sh yotibdi. U bilan birovning ishi yo'q. Suv chiqmaydigan yer kimga ham kerak!

Bir bahor Saksonboy ota osmonda charx urib yurgan qaldirg'ochlarga qarab yotib, yonida o'tirgan kenja nevarasiga dedi:

— Bahor yaxshi-da, bolam! Bahring ochiladi. Hammayoq ko'm-ko'k. Hatto ariqlarning suvi ham sharqirab kuylab oqadi. Lekin mana bu tepalikda bahor ham, kuz ham ko'rinmaydi.

— Nega?— hayron bo'ldi nevara Shokir.

— Nega bo'lardi, bolam. Bahor kelganini ko'z-ko'z qiladigan bir tup daraxti ham yo'q.

— Nega unga kishilar hech narsa ekishmaydi, buva? Yeri yomonmi?

— Yeri-ku, yomonmas-a, suv chiqmaydi, bolam, suv. Suv chiqmas yerga dehqonning mehri ham tushmaydi.

Ana shu gapdan keyin Shokir tepalikni aylanib ketdi. Haqiqatan ham

pastdagi ariqdan bu sayhonlikka suv chiqmas edi.

— Buva, — dedi Shokir, qaytib ke-
lib,— men o'sha yerga daraxt o'tqaz-
sam nima qiladi, bari bir bekor yotib-
di-ku.

Bobo miyig'ida kuldi.

— O'tqazishga o'tqazasan-u, lekin
bechoralarga suvni qayerdan olib bera-
san?

— Tashib solaman.

— Oh-ho! Bu qiyin ish, o'g'lim. Qaq-
rab yotgan yerga chelakdagi suv nima?
Angishvona bilan tuya sug'organday
gap.

Tepalikdagi ko'chatlarga suv tashib
yetkazishga uncha ishonmasa ham,
“o'rtoqlarim yordam berar, bir o'zim
qolmasman”, deb o'yladi Shokir. O'sha
kuni kechqurun kichkina ketmonni olib,
tepalikda bir necha chuqur qazidi.
Ularga soydan chelakda suv tashib
soldi. Suv yerga singguncha molxo-
nadagi eski go'ngdan ikki marta olib
keldi. Tuproqni ezib unga aralashtirdi.
Avvaliga meva ko'chati o'tqazmoqchi
bo'ldi, lekin meva ko'chatini unga kim
beradi! “Yaxshisi, — dedi u o'ziga-
o'zi,— har xil daraxt ekaveraman.
Ko'karsa bo'ldi”. Xuddi shunday qildi.

Soyda tartibsiz o'sib yotgan mayda daraxtlardan bir nechasini avaylab ildizi bilan ko'chirib chiqdi, ehtiyot qilib o'tqazdi. Bundoq qarasa, tepalikka husn kirganday ko'rindi. Xuddi shu payt qayoqdandir quvlashib kelgan besh-olti chumchuq ularning shoxiga qo'nib egdi. Shokirning nazarida hali o'zini tutib olmagan ko'chatlari qulab ketayotganday tuyulib, chumchuqlarni haydadi. Ko'chatlarning yashil barglari dirkillab turar, yengil shamoldan silkinardi. Shokir quvonib ketdi. Lekin bu quvonch uzoq cho'zilmadi. Shokir ertasiga qarasa kecha dirkillab turgan barglar so'linqirab qolibdi. Shokir suv tashishga kirishdi. O'rtoqlari unga yordamga kelishdi. Bolalarning g'imirlab yurganini ko'rgan Saksonboy ota ham joyida o'tirolmadi. Bolalarning oldiga kelib maslahat berib turdi.

Yo'q, ko'chatlar yana tirilib qoldi. Bir oycha o'tgandan keyin ma'lum bo'ldiki, ko'chatlardan uchitasi tutmabdi. Bolalar qolganlarini parvarish qila borishdi. Shundan keyin bittasi ham qurib qolmadi.

Bolalarning bu ishi xammaga juda ma'qul tushdi. Qishloqdagilar rahmat aytishdi.

Kelasi bahor yana bir necha tup daraxt o'tqazishdi. Maktab bolalari bu bog'ni otaliqqa oldi. Kattalar bolalarning bu ajoyib ishini qo'llab-quvvatlab, suv chiqaradigan nasos olib berdi. Oradan ikki-uch yil o'tgach, bu sayhon tepalik tuppa-tuzuk ko'kalamzorga aylandi. Yoshlarning sayilgohi bo'lib qoldi. Qaysi kuni Saksonboy ota bolalarni maqtab:

— Nevaralarimiz bizdan ko'ra chaqqonroq chiqib qolishdi, — degan emish.

Saksonboy otaning taklifi bilan bu ko'kalamzorga "Bola bog'" deb nom qo'yildi.

"Bola bog'" keyinchalik kengaytirilib, qishloq sayilgohiga aylanib ketgan bo'lsa ham, hamon o'sha nom bilan mashhur.

1960

YANOSHNING KAPTARI

(Voqeyiy hikoya)

Dunay daryosi oqimiga qarab suzsangiz, Budapeshtga yaqin qolganda qirg'oq manzarasi birdan o'zgaradi. Ungacha ulkan va sokin daryoning ikkala qirg'og'i tekis ko'kalamzor bo'lib, meva

daraxtlarining shovil hosillari bemaolol ko'rinib turadi. Ba'zan o't-o'lanli sohilda kishilarning baliq tutib o'tirganini yoki yoshlarning maysaga yonboshlab kitob o'qib yotganini uchratish mumkin. Ulardan sal narida esa bejirim uylar ko'zga tashlanadi.

Bu ikkinchi jahon urushining ayni qonli yilida bo'lgan edi. Budapeshtda fashistlar vaqtincha hokim bo'lib, butun Dunayga o'z hukmlarini o'tkazar edilar. Erkin yashashga o'rgangan venger xalqi bu zulmga asti chidolmas, duch kelgan yerda qarshilik ko'rsatardi.

Xilvat ko'chalarning birida yashovchi yosh o'qituvchi Zoltan bundoq qarasa bu xilda yashash uyat. Vijdoni bor kishi bosqinchiga qarshi kurashuvi kerak. Lekin u kurashni nimadan boshlashni bilmadi. Partizanalarning shaharda borligini eshitadi va ularning qilgan ishlarining oqibatini ba'zan-ba'zan ko'rib qoladi-yu, lekin ular bilan qanday tanishishni bilmaydi. Uncha-muncha tanishlaridan surishtirdi — hech kim hech nima demadi. Axir bunday ishni hammadan oshkor so'rab bo'lmaydi-da! Lekin qizig'i shu bo'ldiki, u o'zidan sal narida turuvchi bir qo'shnisidan asta surishtirganda, u “bilmayman” deb

beparvolik bilan javob bergan edi. Sal o'tmay uni partizan deb gestapo ushlab ketdi. Keyin bilindiki, u chindan ham ancha ishlar qilgan partizan ekan. Ana shunda Zoltan o'ylanib qoldi: xo'sh, u nega mendan partizanlarni yashirdi? Demak, menga ishonmadi! Ishonsa aytardi.

Mana shunday xulosaga kelgan Zoltan partizanlarni qidirmay qo'ydi. O'zi yolg'iz harakat etishga qaror qildi. Bir-ikki mayda-chuyda ishlar qilib ko'rdi — yomon chiqmadi. Lekin bari bir ko'ngli to'lmadi. Bir kuni Buda tog'ining balandroq yerida Dunayga qarab o'tirgan edi, osmonda uchib yurgan ulkan qush uning boshi uzra aylanib, to'g'ri qarshidagi tog'ning unga yaqin va aniq ko'rinib turgan balandligiga borib qo'ndi. Ana shunda Zoltan ko'ngliga bir fikr keldi. Bu fikr uning qalbini to'lqinlatib yubordi. Bu fikrni ro'yobga chiqarish uning qo'lidan kelardi. Lekin juda qaltis edi. "Modomiki sen kurashmoqchi ekansan, o'lim haqida o'ylamasliging kerak. O'lim qo'rqqoqa yaqin", dedi u va ertasiga ishga tushdi. Bu tog' unga bolaligidan tanish edi. Bolaligida bu yerlarda mol boqqan, qamishdan sivizg'a qilib chalgan. Shun-

day bo'lsa ham, u bir kuni saylga chiqqan kishidek bo'lib boradigan yo'lini, kerak bo'lsa yashirinadigan yerini ko'zdan kechirib, aniqlab keldi. Ertasi tunda, el uyquga ketganda ishga kirishdi. Ko'r oydin unga yordam berdi. Ertasiga shu yerli kishilar, ayniqsa Dunayda suzib borayotganlar qarshidagi dahshatli yozuvni birinchi bo'lib ko'rdilar. Lekin tovush chiqarib o'qishga hamma ham botinolmas edi. Zoltan Dunayga qarab o'tirgan chog'da qush kelib qo'ngan yassi tog'ning ko'ksida: "Bitsin fashizm! Kurashga!" degan so'zlar ko'rinib turardi. Butun shahar o'qishi mumkin edi. Chinday ham butun shahar o'qidi. Gestapo shoshib qoldi. Uni o'chirib tashlash uchun yuborilgan gestapochilarni "kimlardir" qarshi olib, o'qqa tutdi. Ertasiga bir mashina bo'lib yo'lga chiqqan fashistlar o'sha toqqa yetay deb qolganda minaga duch kelib, portlab ketdi. Undan keyingi fashist soldatlari mashina portlagan yerdan tinch o'tgan bo'lsa ham shior yozilgan toqqa yetib, mashinadan tushib, endi o'rmalay boshlaganlarida birin-ketin yana mayda minalarda qirila boshladilar. Bu "qiziq" hangomalar ovozi butun shaharni tutdi. Kishilarning ru-

hini ko'tarib yubordi, ularning g'alaba va mustaqillikka bo'lgan ishonchini orttirdi.

Lekin Zoltan o'z ishining bunchalik katta hodisaga aylanib ketishini kutmagandi. Sevinchini kim bilan bo'lishishni bilmay qoldi. Axir u endi 21 ga kirgan yosh o'qituvchi. O'rtoqlarining ko'pi urush boshlangach, allaqayoqlarga tarqalib ketgan. Buning ustiga uni ko'plar yoqtirishmas, kamgapligidan "pismiq" deyishardi.

Kutmaganda shaharga g'ulg'ula solgan ishini kimlar himoya qilayotganini Zoltanning o'zi ham bilmas edi: kim gestapochilarni u yerda o'qqa tutdi? Kimlar u yerlarni minalashtiryapti?

Mana bu narsa Zoltanga jumboq edi. Bu jumboq u kutmagan kuni ertalab birdan yechildi.

Zoltan endi o'rnidan turib, yuvinmoqchi bo'lib turgan edi, kimdir eshigini vazmin taqillatib qoldi. U ochdi. Yoshgina bir qatiqchi qiz ostonada turardi.

— Qatiq olmaysizmi? — dedi u.

— Yo'q!

— Oling, yaxshi qatiq, atayin sizga atab ivitganman! — dedi qiz yana mehribonlik bilan va beso'roq ostonadan

hatlab ichkari kirdi. Kirdi-yu, tovushini o'zgartirdi:

— Eshikni yoping!

U partizanalardan elchi edi. U Zoltanga partizan otryadi boshlig'ining rahmati va topshiriqlarini olib kelgan edi.

— Men yozganimni qayoqdan bildinglar? — dedi qizning chindan ham partizan otryadi elchisi ekaniga qanoat hosil qilgach, Zoltan.

— Bu — hunar. Dunay ostidagi baliqlarning qanchasi qayoqqa qarab suzishini ham bilamiz. — Miyig'ida kulib qo'ydi qiz...

Urush tugab, Vengriya mustaqil respublika bo'lgach, bu voqea afsonaga aylanib ketdi. Bir kuni Zoltan oxirgi soat darsini berib, savollar uchun ozgina vaqt qoldirdi. Darsda mamlakatda partizanlar harakati haqida ham gap bo'lgan edi. Shu sabab bo'ldimi, sinfda sho'xligi bilan tanilgan Yanosh birdan so'rab qoldi:

— Tog'dagi anavi xatni rostdan siz urush paytida yozganmisiz?

Zoltanning qoni betiga tepdi. Sal shoshinqiradi. "Ha, men", deyishga botinmasdi. Uni boshqa bir bola javobdan qutqarib qoldi:

— Boplagansiz!

Keyin suhbat urush to'g'risida ketdi. Shunda Yanosh zavqlanib ketdimi, birdan gapirib yubordi:

— O'sha vaqtda men ham bo'lganimda bir ish ko'rsatardim.

Zoltan buni ilib oldi.

— Ish ko'rsatish uchun urush payti bo'lishi shart emas. Mana sen "Tinchlik uchun" deb imzo to'playapsan, ishchilar zavodda Vatan uchun ikki smenada ishlayapti. Bu qahramonlik emasmi? Qahramonlik!

— Unchamas! — dedi ko'ngli to'lmay Yanosh.

Shu choq qo'ng'iroq chalinib qoldi. Bolalar sinfdan duv chiqishdi. Zoltan yoniga Yanoshni olib, kishining hayotdagi o'rni haqida ancha suhbatlashdi. Bari bir ko'ngli to'lmagan Yanosh qandaydir kattaroq bir ish qilishni mo'ljal-lardi. Buni payqagan Zoltan dedi:

— Yaxshi rasm solasan-a?

— Yomonmas.

— Bir ishni maslahat bersam qilasanmi?

— Qo'limdan kelsa, albatta!

— Hu o'sha tarixiy tog' bor-ku, o'shanga sen ham bir ish qil.

— Ya'ni?— ko'zlari yonib so'radi Yanosh.

— Kaptarning naqshini yaxshilab o‘y, uzoqdan ko‘rinib tursin. Bu sening tinchlik uchun kurashga qo‘shgan zo‘r ulushing bo‘ladi. Shu kunning qahramonligi tinchlik uchun kurash.

— Xo‘p bo‘ladi. Albatta o‘yaman, — shoshib qoldi Yanosh.

U chopib ketayotgan edi, Zoltan to‘xtatdi:

— Hovliqma! Yoningga bir-ikkita o‘rtog‘ingni ham ol.

— Xo‘p!

Bir hafta o‘tgach, yassi tog‘ ko‘k-sida parvoz qilib turgan tinchlik kaptarining naqshi paydo bo‘ldi. Agar Dunaydan suzishga to‘g‘ri kelsa uni ko‘rish mumkin. U juda uzoqlardan ko‘rinadi.

1961

FRONT YO‘LLARIDA

I

Hujum tongotarga tayin qilingan edi. Ayni qish. Kechalari yer tosh qotadi. Tongning izg‘irini ignali. Bunday paytda bizning iqlimga o‘rganmagan dushmanning kavaklarga kirib jon saqlashini bilardik.

Razvedka qishloq bo‘sag‘asi bir necha

qator tikanli sim bilan o'ralganini xabar qildi. Modomiki hujum artilleriya otishmalarisiz to'satdan qilinmoqchi ekan, birdan bir yo'l o'sha simlarni ehtiyotlik bilan qirqib, hujumga kiradigan jangchilarga bir necha yerdan yo'l ochish edi. Sapyorlarga xuddi shunday topshiriq berildi. Sapyorlar qishki hujumlarda chiniqqan, tajribali, uddaburo yigitlar edi. Lekin ulardan yo'l ochilgani haqida hadeganda xabar kelavermadi. Shunday bo'lsa ham, biz ularning jasoratiga ishonib tashvishlanmasdan yo'lga chiqdik. Dushman o'zining uyg'oqligini bildirmoqchi bo'lgandek dam-badam raketa otib turar, uning yoqimsiz murdarang nuri sovuq tunning qo'ynida yanada mudhishroq ko'rinardi.

Men bo'linmamni tikanli simlardan beriroqda to'xtatib, sapyorlardan xabar olgani kishi yubordim. Xabarchi qaytib kelib, yo'l tayyorligini aytdi. Chindan ham tikanli simlar qirqilgan, yo'l ochiq, lekin ikkita sapyor nima uchundir yo'l bo'sag'asida xomushroq turardi. Bittasi bizni ko'rishi bilan oldinga o'tib:

— Marhamat, o'tishinglar mumkin, — dedi ohista va o'zi ko'priikka o'xshab yo'l ustiga yotib oldi. Birinchi bo'lib kelgan jangchining:

— Tur, yo‘l ustida nima qilib yotibsan?— deganini eshitib oldinga o‘tdim. To men yetib borgunimcha ko‘prik bo‘lib yotgan sapyor nimadir deb javob qildi. Jangchi esa bundan qanoatlandi shekilli, uning ustiga oyog‘ini qo‘yib sakrab nari o‘tib ketdi. Undan keyingi jangchi ham xuddi shunday qildi. Men nima gapligini so‘ragandim, sapyorning:

— O‘tavering, vaqt ketmasin!— deganini eshitdim.

Vaqt ziq bo‘lgani uchun ortiqcha surishtirib o‘tirmadim. Turli-tuman qiyinchiliklarga uchrayverib pishib ketgan jangchilar ham ortiqcha surishtirmay, u yigit orqali oldinga o‘tib ketaverdilar. Eng so‘nggi soldat tikanli sim oralig‘idan o‘tib bo‘lgach, ko‘prik bo‘lib yotgan soldatni turishga buyurdim. U inqillab arang o‘rnidan turdi, to‘g‘risi, sal qaddini rostladi-yu, yoniga ag‘darildi. U juda holdan toygan edi. Garchand ko‘prik bo‘lib turish uzoq cho‘zilmagan bo‘lsa ham, butun bir vzvodni o‘z ustidan o‘tkazish hazil gap emasdi! Sapyorlar dushmanga bildirmasdan odatiy chaqqonlik bilan simlarni qirqishibdi-ku, oralariga qo‘yilgan minalarni ko‘rib yoqa ushlab qolishibdi. O‘zlariga



tanish bo'lgan minalarni darrov zararsizlantirishibdi, lekin orasida ularga notanishi ham bor ekan. Nima qilish kerak. Kavlab olib tashlay deyishsa, vaqt juda tig'iz, buning ustiga minaning qanaqaligini bilishmaydi. Ehtimol, uning portlab ketishi uchun qo'l tegishi kifoyadir. Bu orada biz yetib kelibmiz: "Yo'l ochildi-yu, minalardan tozalolmadik", deyishga sapyorlik izzat-nafslari yo'l qo'ymabdi. Bu xavfli minaning ustiga o'zlari qopqoq bo'lib turishni ma'qul topibdilar.

Men u notanish minaning yonidan avaylab o'tar ekanman, orqada yana bo'linma ko'rindi. Sal nariroq borishim bilan boshqa bir qahramon sapyorning:

— Qani, yigitlar, o'taveringlar, vaqt ketmasin! — deb mina ustiga ko'prik bo'layotganini ko'rdim.

II

Bu voqeani bir harbiy feldsher gospi-talda so'zlab bergan edi.

Katta qishloqning yarmidan dushman surib tashlangan. U tomonda hali shiddatli jang borardi. Ba'zan zambarak o'qlari bu tomonga ham uchib kelib qoladi. O't ketgan binolar achchiq buruqsiydi. Tutun dimog'ni yorguday.

Harbiy feldsher Aziza maydondan olib chiqib, birinchi yordam ko'rsatilgan yaradorlarni vaqtincha joylashtirish uchun butunroq xona axtarib bir qo'raga kirib qoladi. Birdan xotin kishining achchiq faryodi eshitaladi:

— Yordam! Yordam bering!

Aziza nima uchundir, birorta nemis qamalib qolgan gumon qilib, to'pponchasini qo'lga olganicha tovush kelgan tomonga tashlanadi. Lekin ne ko'z bilan ko'rsinki, ivirsib yotgan uyning o'rtasida, bir xotin koptokdek dumalab qichqirardi. Keyin ma'lum bo'ldiki, uni to'lg'oq tutayotgan ekan!

Aziza shoshib qoladi. Qani endi umrida biror marta doyalik qilgan bo'lsa. Shunday bo'lsa ham o'qiganlarini eslab, doyalikka kirishadi. Juda qiynaladi. Axir hech qanday sharoit yo'q-dal Buning ustiga atrofda zambarak o'qlari gumburlab yorilib turibdi. Homilador xotinni ham, o'zini ham nobud qilish uchun tomga bir donagina zambarak o'qining kelib tushishi kifoya. Hozirgina narigi qo'raga tushgan to'p o'qining zarbidan xona larzaga kelib, uyning allaqayeridan shuvillab tuproq to'kildi. Allanima shaqir-shuqur etib ketdi, deraza zirilladi. Endigisi shu

qo'raga, shu xonaning tomiga tushmaydi, deb kim kafillik beradi?

Ona ham, Aziza ham jon hovuchlab lahzalarni o'tkazardi. Ona bechora har gumburlagan tovush kelganda:

— Siz qoching, meni qo'yavering, — deb Azizani chetlatishga undardi. Unga sari Azizaning xotinga rahmi kelardi, dardini yengillatishga jon-jahdi bilan harakat qilardi. Eshikda paydo bo'lgan sanitar yigitni yordamga chaqiradi. Buni qarangki, sanitar juda uyatchan yigit ekan. Toki Aziza:

— Insofingiz bormi o'zi, qanaqa odamsiz! — deb siltab tashlab, harbiy-chasiga, — buyuraman, buyoqqa keling, qarashing! — demaguncha ostona bosib o'tishga botinmaydi.

Shu yaqin orada yana bir to'p o'qi gumburlaydi-yu, bola ham chinqirib dunyoga keladi.

Uning beg'ubor yig'isidan olam nurga to'lgandek bo'ladi.

Aziza qizaloqni epaqaga keltirib, holdan toyib, ko'zlarini yumib yotgan onasi yoniga endigina yotqizgan ediki, yana tashqarida snaryad portlaydi. Bu gumburlash onaning esiga o'z jonining xavfsizligini emas, hozirgina dunyoga kelgan farzandining taqdirini tushira-

di: u birdan tetiklashib ko'zini ochadi, badanini zirqiratib yotgan og'riq ham esdan chiqadi, chaqqon bir harakat bilan bolasining ustini gavdasi bilan to'sib, yuz berishi mumkin bo'lgan falokatdan uni himoya qiladi. Uning harakatlarini kuzatib turgan Aziza jilmayib:

— Qo'rqmang, uzoqda yorildi, — deb dalda beradi.

Uch kun o'tgach, polk qishloqdan chiqadigan bo'ladi. Aziza umrida ilk marta o'zi doyalik qilgan qizchani ko'rish, onasi bilan xayrlashish uchun ularnikiga kirib boradi. O'sha kuni shoshilinch bilan onaning basharasiga tuzukkina qaramagan ekan, endi ko'rsa o'rta yosh, ko'rkamgina bir juvon. Karavotda so'linqirab yotibdi. Oqsoq eri uyning bir burchagida primusda nima-dir pishirmoqda. Azizani ko'rib xotin qo'zg'aladi, eri peshvoz chiqadi. Ikkalasining yuz-ko'zida minnatdorlik tabassumi bor edi.

Aziza qizaloqning chirt yumuq ko'zlariga birpas qarab turgach, onaning ahvolini so'raydi. Keltirgan jindak sovg'asi — ikki quti pechene bilan bir bo'lak kir sovunni uning oldiga qo'yadi.

— Xayr, — deydi keyin, — biz ketyapmiz.

— Qayoqqa? — deydi shoshib ona.

— Qayoqqa bo'lardi, oldinga, dushman ketidan.

Xotin yig'lab yuboradi:

— Doktor, o'zingizni ehtiyot qiling.

— Peshanamga yozilgani bo'ladi! — hazilga oladi Aziza.

— Biz sizni qizimizning tug'ilish to'yiga taklif qilmoqchi edik, — deydi eri. (Eri o'sha kuni qishloqning u boshiga doya axtarib ketib, otishmalar tufayli qaytib kelolmagan ekan).

— Urushdan keyingisiga kelaman, — yana kulgiga oladi Aziza.

Ona yig'idan o'zini tiyib, kulimsiraydi:

— Qani edi! Undan keyin, qizimizga ism qo'yib berishni sizdan iltimos qilmoqchi edik. Siz... Siz tufayli u omon qoldi... Sizni hech unutmaymiz.

— Rost, doktor, bir ism qo'yib bering, — xotinini quvvatlaydi eri.

Aziza noiloj qoladi.

— Men qo'yadigan ism o'zbekcha bo'ladi-da, maylimi?

— Mayli!

— Mayli, qanaqa bo'lsa ham mayli, — deydi ona va nimanidir andishasiga borgan kishidek iymanib turadi. — Bilasizmi, doktor, yaxshisi siz-

ning ismingizni qo'ya qolaylik. Xo'p deng.

Aziza birdan qizarib ketadi. Jon holatda uni qaytaradi.

— Yo'q, yo'q! Yulduz qo'yinglar. Ruschasiga bu ...

— Yo'q! — uni gapirtirmaydi ona. Keyin so'raydi: — Siznikining ma'nosi nima?

Aziza aytib berishga majbur bo'ladi.

— Juda yaxshi. Ma'nosi ham yaxshi, o'zi ham chiroyli: Aziza!

Aziza bildiki, onaning ahdi qattiq. Ortiqcha qarshilik bildirib o'tirmaydi:

— O'zinglar bilasizlar!

Aziza ota-ona bilan xayrlashayotib, yangi adashining qoshiga boradi, manglayidan asta o'padi:

— Katta qiz bo'! Umring asti urush ko'rmasin! — deydi va allanechuk bo'lib eshikdan chiqadi.

1970

ERKINJONNING BUVASI

Erkinjon esini tanibdiki, buvasining sochi oppoq. Lekin soqol-mo'ylovini qanaqaligini bilmaydi, chunki buvasi hech soqol-mo'ylov qo'ymagan. Buning ustiga hech soqolini o'stirmaydi, har

kuni qirtishlaydi. Undan keyin Erkinjonning buvasini ko'rgan kishi oltimishga borgan demaydi. Doim kiyimboshi dazmollangan, sochlari tekislangan. Botinkasi-ku, oynaday yiltillaydi. Kunda bo'lmasa ham haftada ikki marta yaxshilab cho'tkalab, ustidan duxoba latta bilan artib qo'yadi. Ko'rgan odamning havasi keladi. Erkinjon botinkasini yiltillatib qo'yishni, ustiboshini toza tutishni buvasidan o'rganagan. Buvasining bitta gapi uning esida. U vaqtda Erkinjon endigina maktabga borgan edi. Qayerdadir maktab formasining tugmasi, nima bo'lib tushib qolibdi. Buni birinchi bo'lib buvasi payqadi:

— Iye, o'g'lim, bu qandoq bo'ldi: tugmachang tushib qolibdi-ku.

Erkinjon parvo qilmagandek turgan edi, buvasi yana dedi:

— Hamma narsa kichkinadan boshlanadi. Bugun tugmachaga befarq qarasang, ertaga botinkang yirtilsa ham yuraverasan. Yo'q, bu yaxshimas! Qani, darrov qadab oling!

Erkinjonning ayasi ignaga ip o'tkazar ekan, buvasi yana gap boshladi:

— O'ziga bering, kelin, o'zi qadasin. Bundan keyin ipni ham o'zing o'tqiz!

— O'g'il bola narsa, qo'li kelishmaydi, — degan edi ayasi, buva yana qaytardi:

— Juda kelishadi-dal! Bilmasa o'rganadi. Erkak mashinachilar bor-kul!

Erkin o'sha kuni zo'rg'a tugma qadadi. Bir marta qo'lga igna ham kirib ketdi, lekin ozgina qon chiqdi. Buni ko'rgan ayasi:

— Menga beraqol, — dedi, ammo buvasi rozi bo'lmadi.

— Hech narsa qilmaydi, kelin. Pishiydi. Siz haftada bir marta o'ng qo'lining tirnog'ini olib qo'ysangiz bo'ldi.

Buning sababi bor. Erkinjon bunda ham buvasiga o'xshagisi keladi. Buvasi har haftada ikki qo'lining tirnog'ini yaxshilab oladi. Lekin Erkinjon chap qo'lining tirnog'ini kanda qilmasa ham, o'ng qo'lini ololmaydi, ikki-uch kun kechikib qolib ketadi. Sababi o'ng qo'lining tirnog'ini ololmaydi, shuncha qilsa ham ololmaydi. Ayasi olib qo'yadi. Buvasi shunga ishora qilayotgan edi. Buva nabirasining bu noshudligidan ham norozi.

— O'rgan, o'rgan o'g'lim, yozda lageriga borsang kim olib qo'yadi? Odam bolasi har narsaga qobil, faqat harakat va qunt kerak.

Erkinjon ko'p urindi-yu, lekin hali o'ng qo'lining tirnog'ini ololadigan bo'lgani yo'q. Buni ham yaqinda o'rganib oladi. Shu buvasi bo'ladigan bo'lsa o'rganmaganiga qo'ymaydi!

Buvasi qanchalik qattiqqo'l va talabchan bo'lmasin, bari bir Erkinjon yaxshi ko'radi. Hammaning ham shunaqa kelishtirib kiyinadigan, ozoda buvasi bo'lsin-chi! Xayvonat bog'iga, olib boradi, birga kino va sirkarga tushadi, qiziq-qiziq afsona va ertaklar aytib beradi. O'zi turgan shahar tarixini buvasidan o'rgangan. Buvasi shunaqa ko'p narsalarni biladiki, hali o'n yillab hikoya qilsa ham ado bo'lmaydi. Buvasi tugamas xazina.

1970

NODIRNING NAFRATI

Nodir "urush-urush" o'ynashni juda yaxshi ko'rardi. Dadasiga oldirgani nuqul miltig'u to'pponcha edi. Uni ko'rgan o'rtoqlari ham dadalariga xuddi shunday qilishardi. O'rtoqlari bilan ikkiga bo'linib olib, miltiqlarini yelkalariga osib, turli istehkomlar qurib gumbir-gumbir otishgani-otishgan edi. Ba'zan Nodir komandir bo'lib qolardi.

Lekin fashist bo'lishni hech kim istamas, shuning uchun navbati bilan dushman bo'lishga to'g'ri kelardi.

Nodir urush deganda osmon to'lib uchgan samolyotlarni, katta-katta suvlardan kechib, o'nqir-cho'nqirlardan o'tib ketaveradigan azamat tanklarni, doim dushmanni o'qqa tarsillatib tutadigan pulemyot va avtomatlarni, ura deb yelib-yuguradigan botir jangchilarnigina tasavvur etardi. Lekin urushning xunuk oqibatlarini uning bola aqliga kelmas, u bilan Nodirning ishi ham yo'q edi. Ana shuning uchun ham, u urush o'ynashni yaxshi ko'rardi. Lekin ana shu "urush-urush" o'ynashni Nodir bu yil butunlay tashladi, o'zigina tashlab qo'ya qolmay boshqa o'rtoqlarini ham bu yaramas o'yinni o'ynamaydigan qildi. Endi u butun qilich-qalqonlarini yondirib tashlagan.

Ehtimol siz bu qanday qilib sodir bo'ldi, deb so'rarsiz. Istasangiz batafsil aytib beraman. Bu shunday bo'ldi.

O'tgan yil Nodirning dadasi o'zining frontchi o'rtog'ini ko'rgani Ukrainaga boradigan bo'ldi. O'shanda, ayni yoz payti, Nodirlarning ta'tilga chiqqan vaqti edi. Nodir bu safar dadasining

og'zidan Ukraina so'zi chiqishi bilan bo'yniga osilib oldi:

— Jon dada, men ham boray!

Dadasi Nodirning bunchalik astoydil osilib olishini, qolaversa, xotining ham rozilik berishini sira xayoliga keltirmagan edi. Mundoq o'ylab qarasa, Nodirning birga bo'lgani yaxshi, hamroh bo'ladi.

Ichikib yo'lga chiqqan Nodir uchinchi kuni poyezdda zerikib qoldi. Shu zerikkanidan bo'lsa kerak, boradigan yerlarining qanaqaligini, necha kunda yetib borishlarini, u yerda kimlar bilan uchrashuvlarini surishtira boshladi. Ana shunda dadasi frontdosh o'rtog'ini ta'riflay ketdi:

— Xuddi Chapayevning o'zi. Mo'ylovi ham o'shanaqa. Lekin u otliq emas, tankist edi. Tankist bo'lganida ham juda ko'p dushman tankini qirib tashlagan qahramon tankchi. Uchta ordeni bor.

— Sizniki ikkita, a, dada?

— Yo'q, meniki bitta, bittasi medal.

— Siz kattami, o'rtog'ingiz kattami?

— O'rtog'im mendan sal katta, u frontda menga komandir bo'lgan, dushman tanklarini qanaqa qilib yakson qilishni o'rgatgan.

— Hozir nima ish qiladi, tank haydaydimi?

— Yo‘q, invalid.

Nodir dadasining o‘rtog‘ini qanaqa invalid ekani bilan qiziqmadi, to‘g‘risi, u invalidlik dahshati nima ekanini tasavvur qilolmas edi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, yana so‘roq berishda davom etdi. Lekin bu invalidlikning nima ekanini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgandan keyin nafasi ichiga tushib ketdi.

Dadasining o‘rtog‘i ularni kutgani chiqmadi. Ukasi bilan o‘g‘li kichikkina bir stansiyada ularni qarshi oldi. Dadasining o‘rtog‘i esa, o‘rnidan turolmaydigan mayib va ikkala ko‘zi ko‘r ekan. Ismi Mikola ekan, dadasi bilan ham yotgan yerida ko‘rishdi. Lekin juda quvnoq va tetik ekan. Dadasi bilan ko‘rishgach:

— O‘g‘ling qani? — dedi va Nodirni yotgan yerida bag‘riga bosdi.

— O‘zingga o‘xshaydimi? — deb so‘radi.

Nodir avvaliga Mikola amakining yuziga qarab cho‘chigandek bo‘ldi: uni ko‘zlari o‘prilgan o‘radek chuqur botib ketgan, ko‘zlarining ikki atrofida havorang siyoh sachragandek dog‘lari bor. Lekin uning jonli harakatlari va shirin

soʻzlari Nodirni darrov oʻziga maftun qilib oldi. U hikoyalarga shunaqa boy ekanki, asti qoʻyavering, oʻgʻli bilan ikkalasini karavoti qoshiga oʻtqizib qoʻyib, kechasi qiziq-qiziq hikoyalar aytib berdi. Nodir bunaqasini hech eshitmagan va oʻqimagan edi. Ana shunda Nodirda Mikola amakining chuqur koʻzlaridan choʻchish emas, balki unga rahm uygʻondi. Uning qachon bu ahvolga tushgani bilan qiziqdi. Dadasidan soʻradi.

— Urushda boʻlgan, — dedi dadasi.

Ana shunda birinchi marta Nodirga urushning mudhish dahshatlaridan biri ayon boʻlgandek boʻldi. Axir urush u oʻylagandek va u oʻrtoqlari bilan oʻynagandek ura-ura, paq-puq va mardlik emas ekan! Uning mana bunaqa dahshatlari ham bor ekan. Ana shu kuni birinchi marta Nodir urushda kishilarning umrbod nogiron boʻlishlari mumkinligini tasavvur etdi. Nahot urush kishilarning koʻzini koʻr qilib, belini mayib qilib, oʻrnidan turolmaydigan etib tashlasa! Axir urush boʻlmaganida Mikola amaki bu ahvolga tushmas edi! Kecha Mikola amakining oʻgʻli Oles dadasining yoshligidagi suratlarini koʻrsatdi:

— Dadam juda kelishgan bo'lgan ekanlar-a, ko'rdingmi o'rtoq! — dedi u xo'rsinib. Demak, Olesning ham yuragida armoni bor. Dadasining bu ahvolidan ko'ngli o'ksiydi.

— Dadamning ko'zlari ko'rib, yurolganlarida o'rmonga borar edik, qo'ziqorinlar terardik ertaga, — dedi bir ozdan keyin u.

Buni eshitib qolgan dadasi darrov o'g'lining ko'nglini ko'tardi:

— Ertaga, albatta borasizlar. Mehmonlarni o'zing boshlab bor. Men bolaligimda hammasini ko'rganman. Tepalikning o'ng tomonidagi baqaloq qarag'ayning ayrisiga chiqsanglar pastda yastanib yotgan tekislik ko'rinadi, soy yalt-yalt etadi, xuddi kunga solayotgan qilichga o'xshaydi. Undan tushib o'rmonning ichkarisiga kirsanglar, birpasda savatinglar qo'ziqoringa to'ladi. Quritib bersang Nodir shahriga olib ketadi. Ularda bo'lmaydi bunaqasi.

— Shunaqami, sizlarda yo'qmi? — birdan o'z o'rmoni bilan faxrlanib, so'rab qoldi Oles.

Ertasiga Oles dadasi aytgandek Nodirni boshlab o'rmonga bordi. O'rmonda hech bo'lmagan Nodirga o'rmon qiziq taassurot qoldirdi: tepaga qarasa os-

mon zo'rg'a ko'rinadi. Daraxtlar tagi ko'm-ko'k. Qushlar nag'masi olamni tutadi. Salqin. Turli-tuman chechaklarini aytmay sizmi! Nega odamlar ularni terib olishmas ekan! Ko'p-ku, qanaqa qilib odosh qilishadi!

Qaytishda Oles terishgan qo'ziqorinlarini yo'lda o'tib qolgan qo'shnisining aravasiga solib yuborib, o'zi Nodirga dedi:

— Urush bo'lgan joyni ko'rsataymi?

Urush bo'lgan yerni ko'rmagan Nodir uchun bu juda qiziq edi. U darrov rozilik berdi. Oles yo'l-yo'lakay bu yerda qanday janglar bo'lganini o'z ko'zi bilan ko'rgan kishidek gapirib ketdi.

— Hu, anavi yer-chi, — dedi Oles qo'li bilan vayron bo'lib yotgan pastbalandlikni ko'rsatib, — avval bizning qishloq bo'lgan ekan. Urushda fashistlar o't qo'yib yuborgan.

— Nega? — ajablendi Nodir.

— Ko'p partizanlar chiqqani uchun. O'sha o't qo'yilganda Pavlo degan o'rtog'imning qari buvisi xatasidan chiqolmay kuyib ketgan. Bechora “yordam beringlar!” deb baqirganda ham fashistlar hech kimni yo'latmagan, bir qo'shnisi qutqarmoqchi bo'lganda uni fashist otib tashlagan.

Oles Nodirni boshlab vayronaga bordi. Yakson bo'lgan uy-joylarning izlari hali ham shundoq bilinib turardi. Hatto nurab ketgan devorlarda yong'indan qolgan qora dog'lar bor. Nodir shunday katta qishloqning kuyib, yer bilan yakson bo'lishini hamon tasavvur qilolmas edi. Mana, urush degani qanaqa bo'lar ekan. Butun boshliq qishloqdan iz qolmas ekan! Odamlar ichida qolib kuyib ketar ekan!

Nodir urushning bu dahshatini avval hech xayoliga keltirmagan ekan. Endi o'z ko'zi bilan ko'rib, nafrati qo'zg'adi. Shu vaqtgacha o'yin qilib yurgan "urush-urush" endi unga jirkanch ko'rinsa boshladi. Urush — o'yin emas, qirg'in, vayronalik va nogironlik ekan. Ertasiga azamat bir ko'prikning qoldiqlarini ko'rganda yana battar tutoqib ketdi. Axir urush bo'lmaganida bu ko'prik buzilmas, o'rniga qancha pul sarf qilib yangisini nariroqqa solmas edilar. Oleslarning qishlog'i ham o'z yerida bo'lardi. Mikola amaki ham bunaqa ahvolga tushib ko'kka boqib yotmas, balki o'g'lini boshlab o'rmon kezgan bo'lar, shaharga olib tushib, tomoshalar qildirgan bo'lar edi! Nodir ana shu kundan boshlab urush degan

soʻzdan hazar qiladigan boʻlib qoldi. “Urush-urush” oʻyinini mutlaqo tashladi. Urush — oʻyin emas, dahshat ekan! U urush degan soʻzni eshitsa, koʻz oldiga Mikola amaki, Oleslarning vayrona qishlogʻi va unda kuyib ketgan kampir, daryo ustidan oʻtgan azamat koʻprikning majruh qoldiqlari koʻz oldiga keladi, urush deguvchilardan jon-jahdi bilan nafratlanadi, qoʻli oʻz-oʻzidan (toʻgʻrisi, gʻazabdan) mushtga tugiladi!

1965

SHARIFANING QORNI NEGA OGʻRIDI?

Sharifa oʻzi yomon qiz emas. Ozoda yuradi, oʻrtoqlari bilan urishmaydi. Ayasi aytgan ishni qiladi. Lekin bir odati yomon: har narsaga havasi kela-veradi. Oʻrtoqlarining oʻyinchoqlarini darrov yaxshi koʻrib qoladi. Boʻlmasa, oʻzining shunaqa oʻyinchoqlari borki, asti qoʻyaving! U oʻynaydigan ayvonning bir burchagi xuddi oʻyinchoq magaziniga oʻxshaydi. Bir tomonda murvatini burab-burab qoʻyib yuborsang yurib ketadigan avtomobil, bir tomonda ganchdan boʻlgan xoʻroz, bir tomonda

puflab katta qilib qo'yilgan rezina timsoh, oppoq quyon.

Ana shu Sharifa yaqinda yana bir yomon qiliq chiqardi: ayasi ukasiga kichkina deb nima olib kelsa, o'shandan yegisi kelaveradi. Bo'lmasa ayasi uni ham esidan chiqarmaydi. Har xil narsalar olib kelib beradi, Sharifani Erkinjon o'g'lidan yomon ko'rmaydi.

Bir kuni shunday voqea bo'ldi:

Ayasi shanba bo'lgani uchun ishdan erta chiqib, bozorga kirdi, bolalariga har turli narsalar oldi. Bodring endi chiqqan vaqt edi. "Tansiq narsa, bolalarim yesin", deb Sharifa bilan ukasiga bittadan ikkita bodring oldi. Buni ko'rgan Sharifa avvaliga juda quvonib ketdi, ayasining yuzlaridan o'pdi. Lekin o'zinikini yeb bo'lgach, anavi bittasini ham so'radi.

— U ukangga, qizim, — dedi ayasi uning boshidagi bantigini tuzatib.

— Yo'q, men yeyman, — dedi o'jarlik qilib Sharifa.

Ayasi yumshoq gapirib, uni qaytardi:

— Suqatoylik qilma, qizim, uyat bo'ladi! Sen o'zingnikini yeb bo'lding.

— Yo'q, yana yeyman, yaxshi ekan.

— Ukangga qolmasa maylimi?

— U hali kichkina-ku.

— Qo'y, unaqa yomon qiz bo'lma, — deb ayasi oshxonaga kirib ketdi. Ketidan Sharifa yerga yotib yig'lay boshladi. Chiroyli ko'ylaklari ezilib, boshidagi bantigi tushib ketdi. U oyog'i bilan yer tepkildirdi, baqirardi. Ayasi uni ovutmoqchi bo'ldi:

— Hay, qizim, senga nima bo'ldi. Voy uyat! Uyat! Katta qiz ham shunaqa qiladimi?

Sharifa quloq solmas edi. Ayasi qo'shnilari oldida uyalib, "ma, yesang yeyaqol", deb bodringni olib chiqib berdi. Sharifa iflos bo'lgan qo'lini nari-dan-beri qoqib bodringga yopishdi. Hademay uni ham yeb bo'ldi. Xafa bo'lgan ayasi vodoprovoddan chelakda suv olib o'tib ketayotib dedi:

— Endi ko'ngling to'ldimi? Bor ko'chaga chiq, o'yna!

Sharifa indamasdan ko'chaga chiqib ketdi. Saldan keyin dadasi Erkinjonni boqchadan olib keldi. Ukasi ayasini ko'rib, sevinib, bo'ynidan quchoqladi, yuzlaridan o'pdi. Lekin ayaning unga beradigan sovg'asi yo'q edi, Sharifa yeb qo'ygan edi. O'rniga boshqa narsa berdi. Xursand bo'lgan ukasi o'ynab ketdi. Lekin saldan keyin Sharifa qorni og'rib ko'chadan kelib qoldi.

Haligina qizidan xafa bo'lib, ko'chaga chiqarib yuborgan aya uning holini so'rab bag'riga bosdi.

— Voy qornim. Voy qornim... — dedi ko'zida yosh bilan Sharifa va bo'shashib ayasining bag'riga o'zini tashladi. Aya darrov dori-darmon qildi va Sharifaga dedi:

— Odam suqatoylik qilib birovga olib qo'ygan narsani yesa, shunaqa qorni og'riydi.

Sharifa hayron bo'lib ayasiga qarab qoldi. U onasining so'ziga ishongan va o'zining qilmishidan pushaymon edi.

Qorning og'rig'i sal bosilgandan keyin Sharifa ayasining bo'ynidan quchoqlab, dedi:

— Aya, endi hech suqatoylik qilmayman.

Aya qizining so'ziga ishonadi. Sharifa aytganini qiladi, endi birovga olib qo'yilgan narsani yeb, qornini og'ritib yurmaydi.

1961

MINNATDORLIK

Delfinni ko'rmagan bolaga bu voqea juda qiziq. Delfin haqidagi turli-tuman hikoyalarni eshitmagan bola yo'q bo'lsa

kerak. U odamga juda mehribon, uni hatto falokatdan qutqarib qolgan vaqtlari ham bor. Masalan, bir kishi o'z kuchiga ishonib, dengiz qirg'og'idan ancha nariga suzib ketib qoladi. Qaytishda esa charchaydi, holsizlanadi. Hayotdan butun umidini uzib, nima qilishini bilmay turganda atrofida ikkita delfin paydo bo'ladi. Uni goh ustiga olib, goh asta-asta itarib qirg'oqqa chiqarib qo'yadilar. Odam tirik qoladi.

Demak, delfin ba'zi kuzatuvchi olimlar aytganidek eng ziyrak va eng aqlli suv hayvoni. Lekin o'zi ba'zi hayvonlarga o'xshagan kishi diqqatini tortadigan chiroyli emas, uning xatti-harakati, qiliqlari, juda chiroyli, odamona.

Mening bu hikoyamda delfin odamga emas, odam delfinga yaxshilik qiladi.

Anapa shahri Qora dengizning shun-doq qirg'og'ida. Chiroyli va bejirim shahar. Baland tomlarining ustidan dengizning ancha uzoq yerigacha bemalol ko'rinadi, to'lqinlarning uymalashib ag'darilishlarini bemalol tomosha qilsa bo'ladi. Bu shaharni urush paytida fashistlardan ozod qilishda Mansurning doktor oyisi jonbozlik ko'rsatib, orden olgan. Bu shaharda uning o'rtog'i yashaydi. Ular bir-birlarinikiga meh-

mon bo'lib borib-kelib turishadi. To'g'ri, u vaqtda Mansur hali olamda yo'q edi. Onasi hali er qilmagan, endigina vrach bo'lib, frontga tushgan edi. Sanitar batalonida xizmat qilardi. Ana shu batalonda bir qiz bilan totuvlashib qoldi. Keyin bilsa, bu qiz shu anapalik ekan. Ular shimoliy Kavkaz frontida jang qilib, shu shaharni ozod etganlarida o'sha qizning sevinchdan yig'laganlarini ko'rsangiz: xuddi devonaga o'xshaydi. Lekin quvonchi uzoqqa cho'zil-madi. Chunki qizning uy-joyidan nom-nishon qolmagan edi. Onasi uch kundan keyin allaqayoqdan uvadalarga o'ralib kelib qoldi. U yolg'iz qizini ko'rganidan xursand bo'lsa ham, o'z ahvolidan, ko'rinishidan uyalardi. U urushni dengizning bu qirg'og'ida tugatib, uch-to'rt kun dam olishga chiqqan batalonda turdi — qizi qoshida bo'ldi. Uning boradigan yeri yo'q edi. Bundan xabar topgan batalon jangchilari Mansurning onasi tashabbusi bilan hashar boshlab, kampirga kichkinagina uy-joy qurib berdilar. Axir bizning jangchilar yaxshi sol-datgina emas, aslida tabiatan yaxshigina quruvchilar-da, ular qurgan uy juda bejirim va chiroyli chiqqan, kampirga ma'qul bo'lgan edi. Ana o'shanda irimi-

ga “uy to‘yi” ham qilishgan, haqiqiy to‘yni urush tugashiga qo‘yishgan edi. Urush ham tugadi. Kampirga uy-joy qurib bergan azamat soldatlarning ancha-munchasi halok bo‘ldi. Mansurning onasi yarador bo‘lib uyiga qaytdi. Yana frontga tushadigan bo‘lib sog‘ayguncha urush tugadi. Ana shunda o‘sha anapalik dugonasiga xat yozdi. Buni qarangki, u ham sog‘-salomat ekan, javob qaytardi. Yana do‘stlik boshlandi.

Mana shunga ham talay yillar o‘tdi, qancha suvlar oqib ketdi, ne-ne nihollar voyaga yetdi. Mansur dunyoga keldi. O‘sha anapalik jajjigina, moviy ko‘z, sadaf tish, mallasoch hamshira qizning ham hozir ikkita bolasi bor. Bittasi Mansur bilan teng, Mansur ana o‘sha xonadonga, onasi bilan bu yil mehmonga bordi. Ularni yaxshi kutib olishdi. Kunda dengizda chiqishdi, cho‘milishdi, qayiq olib suzishdi. Qumloq qirg‘oqda yotib hordiq chiqarishdi, dengiz shamollarida qorayishdi.

Mana bugun ham Mansur o‘z o‘rtog‘i Slavka bilan qirg‘oqda yotibdi. Onalari allaqayoqqa yana bir frontdosh o‘rtoqlarini ko‘rgani ketishgan.

Mansur hozirgina dengizdan chiqdi. Maza qilib suzdi. Chunki uning oyog‘i-

da Slavkaning qurbaqaning panjalari-
ga o'xshagan rezina kiygichi bor edi.
Unda kishi juda yengil va tez suzar
ekan, hatto charchamas ekan.

— Shu mahalgacha bilmaganimni
qarang. Qaytgach albatta bittasini ola-
man. Idimizda yaxshi ko'l bor,— dedi
Mansur quvonib.

— Shuni olib ketaver, men boshqasini
topaman. Bizda ko'p! — dedi Slavka va
yonidagi "Qurbaqa panja"ni Mansurga
in'om qildi.

— Rahmat, o'rtoq. 'zingga buyur-
sin!

— Nega unaqa deysan, sen sovg'a
qilgan do'ppini men indamasdan oldim-
ku. Sentyabrda o'sha do'ppi bilan mak-
tabga boraman.

— Senga o'zi juda yaxshi yarashdi.
Shundan qisilib yurgan ekansan,— dedi
hazilga olib Mansur va o'rtog'ining
sovg'asini yoniga surib qo'ydi.

Xuddi shu payt qirg'oqda g'uluv ko'-
tarildi: hammaning ko'zi dengizdan
suzib kelayotgan narsada edi. Mansur
ham, Slavka ham termulib qoldi.

— elfin-ku! — dedi Slavka.

— dandan qochmaydimi, kelishini
qara! — ajablandi Mansur.

— U odamning do'sti. Lekin bari bir

odamdan hayiqadi. Buning bemalol kelishi qiziq.

Bu orada qirg'oqni odam bosdi. Ola-g'ovur. Har kim o'zicha bu kutilmagan holni muhokama qilar, bir-biriga uqtirar edi. Bu gap-so'z va olomon bilan delfinning ishi yo'q, sohilga ohista suzib kelardi. Lekin qirg'oq qumlog'iga kelgach, suv sayozlashib, sohilga yetolmay qoldi. Buni payqagan ikki dengizchi yigit unga yordam berdi. Qirg'oqqa olib chiqdi. Shunda ham delfin g'ing demas, go'yo butun hayotini o'z xaloskorlari ixtiyoriga topshirgan edi.

Kun issiq. Cho'milayotganlarning hammasi qirg'oqda, qalin halqa bo'lib delfinni o'rab olishgan. Ola-g'ovur yana avjiga chiqdi. Birov uning quruqlikda o'lib qolishini aytsa, birov zooparkka topshirishni maslahat beradi. Yana biri unga so'z qotib ko'radi, yana biri mayda tosh otadi. Xullas, bir fikrga kelish og'ir bo'lib qoldi. Ana shunda uni qirg'oqqa chiqishiga yordam bergan haligi dengizchi yigitlar delfinni qo'llariga ko'tarib olishdi. Dengiz chetida turgan qayiqqa qo'yishdi. Shunda ham delfin biror qarshilik ko'rsatmasdi, gajlik qilmasdi. Qayiqni dengiz tomon olib ketishdi. Ancha yerga borgach, delfin-

ni suvga tushirishdi. Delfin ko'zdan g'oyib bo'ldi, qayiqni o'z joyiga keltirib bog'lashdi. Qirg'oq tinchlangandek bo'ldi. Lekin ba'zi birovlar hamon o'sha delfin tushirilgan yerdan ko'zini olmas edi. Shu jumladan bizning Mansur ham tikilib qolgandi.

— Yaxshi qilishdi, — dedi dengizchi yigitlarning bu ishidan mamnun bo'lib u.

— Albatta! — deb uni tasdiqladi Slavka, — dengiz uning uyi, o'z uyida yashagani yaxshi. Zooparkda qanchalik yaxshi boqishmasin, bari bir dengizdagidek bo'lmaydi.

Bu ikki o'rtoqning suhbatı tugagani yo'q edi, yana qirg'oqda qiy-chuv ko'tarildi.

— Ana, yana kelyapti, — dedi hammadan oldin payqagan Mansur. Unda ajoyib taassurot qoldirgan edi.

— Yo'g'-el — ajablanib oldinga o'tdi Slavka.

Chindan ham delfin yana avvalgidek bemalol suzib kelardi. Yana odam to'plandi. Yana qiy-chuv. Muhokama. Kimdir uni qo'rqitmoqchi bo'lib hushtak chaldi, kimdir tosh otib ko'rdi, qo'lini ko'tardi.

Delfin hamon suzib kelardi. Uni yana

sohilga olishdi. Delfin indamas, nima qilishsa shunga yuvoshgina ko'rib turardi.

Shu payt bolalarni ovqatga chaqirgani kelgan Slavkaning onasi ham bu voqeaning guvohi bo'lib qoldi. Oldinga o'tdi. Delfinni kuzatdi, ko'ziga boqdi. Boshini siladi. Ana shunda delfinning qo'ltig'i ostidan qon sizib chiqayotganini ko'rib qoldi. Birdan, xuddi frontdagidek hayajon bilan "yaralangan-ku", deb yubordi. Qon sizib chiqayotgan yerga qo'lini yuborib, paypaslagan edi, delfin ingragannamo tovush berdi, ko'zlari ma'yus qisildi. Ona boyagi ikki dengizchi ko'magida delfinni yonboshiga yotqizdi, yarasi atrofidagi qonni sidirdi, artdi. Endi dori qo'yish kerak edi. Nima dori qo'ysa bo'ladi? Shunda biroz o'ylanib qoldi. Bolalarning yara-chaqa bo'lib yurishi esiga tushdi shekilli:

— Zelyonka kerak! — dedi.

— Medpunktda bor, — dedi kimdir.

— Men olib kelaman! — deganicha uch-to'rt bola medpunktga yugurdi. Yugurganlar orasida Mansur bilan Slavka ham bor edi. Mansur yugurishga usta edi. Axir u yugurish musobaqalarida bekorga qatnashmaydi-da! U bir-

pasda hamma bolalardan o'zib ketdi. Dorini olib eshikka chiqqanidagina boshqalar yetib borishdi. Hammasi yana orqasiga duv qaytdi. Yana Mansur o'zib ketdi.

— Yasha, rahmat! — deb uning qo'li-dan dori bilan dokani Slavkaning onasi oldi.

Hamshiralarga xos mehribonlik va chaqqonlik bilan u delfinning yarasini artib, tozalab dori qo'ydi. Qoni tiyilguncha kuzatib turdi. Uning qarshisida tilsiz hayvon delfin emas, go'yo jang maydonida jarohatlangan mardona jangchi yotardi. Xuddi shunday jonkuyarlik bilan unga ko'mak berdi. Onaning mehribonligidan delfin juda mamnun edi shekilli, o'zini uning ixtiyoriga butunlay berib qo'ygan edi.

Bir ozdan keyin ona dedi:

— Endi dengizga qo'yib yuborsanglar bo'ladi.

Xuddi shunday qilishdi. Haligi ikki dengizchi yigit boyagi ishlarini yana takrorlashdi. Lekin bu gal delfin qaytib kelmadi, o'sha suvga tushganicha ketdi.

Lekin bir qancha vaqt o'tgandan keyin dengizda yana bir hodisa ro'y berdi: dengizga yaqin joyda bir talay

delfinlar paydo bo'ldi. Ular qirg'oq bo'ylab yoyilishdi, yoqimli harakatlar qilishdi, go'yo bu bilan jarohatlangan do'stlariga ko'rsatilgan mehribonlik uchun odamlarga minnatdorlik izhor etishardi.

1971

"HECH KIM YO'Q, PAN OFITSER!"

Bu voqea urushning boshlarida bo'lgan edi.

Shaharchani gitlerchilar ikki kunlik jangdan keyin bosib olgan bo'lsalar ham, ayrim qo'ralarda yashirinib qolganlar bilan jang borardi. Undaylarning ba'zilarini dushman shafqatsizlik bilan o'tga tutsa, boshqalarini "bari bir taslim bo'ladi, qayoqqa borardi", deb pisand qilmas edi.

Ana shunday pisand qilinmaganlardan biri katta ko'cha maydonining etagidagi qo'ra edi. Bu maydon uchun yaxshigina jang bo'ldi. Kuchi teng kelmagan bizning jangchilardan bir nech-tasi ana shu qo'raga chekingan edi. U yerdan hamon o'q chaqnab qoldi. Lekin gitlerchilar ularga parvo qilma-yotganga o'xshardi.

Bu kattagina qo'ra qarshisida ikki

qavatlik bino bo'lib, unda nemis ofitseri bir necha soldatlari bilan joylashgan edi.

Mana, o'sha ofitser xonadonning malla sochli o'g'ilchasi bilan o'ynashib o'tiribdi. U bolaga qarab:

— Seniki soldat kaput,— dedi.

Bolaga bu gap malol keldimi, tasdiqlamagan kishidek boshini silkidi. Uning bu gojligini yana hazilga oldi ofitser:

— To'g'ri aytasan, Ivan, huv anavi qo'rada uch-to'rttasi bor. Ular ham kaput bo'ladi.

Bu gal bola indamadi. Ofitser hovliga chiqib ketdi. Saldan keyin o'q ovozi keldi. Bu o'q o'sha qo'radan uchgan edi. Bunga "g'olib" ofitserning g'ashi keldimi, derazadan Ivanni chaqirdi. Vanya chiqib borganda, ofitser hovli o'rtasida turar, soldati esa uning etigini hafsala bilan tozalayotgan edi. Ofitser yiltillayotgan etigidan ko'zini uzmasdan, Vanyaga dedi:

— Qo'radagilarga borib ayt, jinnilik qilmay taslim bo'lishsin. Aks holda bekorga qirib tashlayman.

Vanya avvaliga nima qilishini bilmay qoldi. Bir oz cho'chidi ham. Shunday bo'lsa ham buyruqni bajarmay iloji

yo'q edi. U asta yo'lga tushdi. Bundan xabar topgan onasi chirqillab uydan chiqdi:

— Pan ofitser, bolani yubormang, qo'rqadi. Soldatingizni yubora qoling.

— Yo'q. Bolaga ular o'q uzmaydi. Bor, Ivan, qo'rqma. Sen botir. To'g'rimi?

Ofitserning vahshiyona bit ko'zlaridan qo'rqqach ona hech narsa deyolmay qoldi. Yig'lamoqdan beri bo'lib, bolasini kuzatib turdi.

Vanya bemalol ketib borardi. Qo'raga o'n-o'n besh metr qolganda orqasiga o'girilib, go'yo onasiga "menga hech narsa qilmaydi, qo'rqmang oyi", degandek bo'ldi. U chindan ham dadil borardi. Buni payqagan ofitser xavfdan titrab turgan onaga dedi:

— O'g'il molodets. Qo'rqmaydi.

Ona bemajolgina qarab qo'ydi. Lekin u jon hovuchlab turar, o'g'lining har bir qadami uning yuragida aks sado berardi.

Ivan qo'raga yaqinlashdi. Nima uchundir bir qo'lini yuqori ko'tarib, qo'raga nimadir ishora qildi. Qo'ra tomon jimjit edi. Saldan keyin Vanya qo'raga oshib o'tdi. Har daqiqasi bir soat bo'lib, ona yuragiga g'ulg'ula

solayotgan besh daqiqa ham o'tdi. Hamon u ko'rinmasdi. Ana shunda ona cho'g' bosib olgan kishidek tipirchilab qoldi: go'yo o'g'lini birov dom-daraksiz qilib yuborgan edi.

— Pan ofitser, men o'zim bora qolay... — ona shu hayajonli so'zini tugatguncha yo'q edi, qo'raning bir tomoni ag'anab tushgan darvozasi oldida Vanya ko'rindi. U xotirjam chiqib kelardi, pinagini buzmasdi.

— U yerda hech kim yo'q, pan ofitser. Ikki kishi o'lib yotibdi xolos. Hamma uylarni aylanib chiqdim. Bo'm-bo'sh.

— Demak, chiqib qochgan, — dedi ofitser va kitelining yengini kiydi. Furajkasini fason qilib chekkasiga qo'ndirdi. Yoniga uchta soldatni olib, qo'ra tomonga ketdi.

Soldatlar bir so'z demasdan unga itoat etishdi, ular bemalol borishardi.

Quyosh botgan, ammo alvon ufqda tovlanish bor edi. U xuddi shamol yel-piyotgan qizil bayroqqa o'xshardi.

Ofitser bilan soldatlar maydon o'rtasida birpas to'xtab, nimadir chug'ur-lashishgach, o'sha qo'raga burilishdi. Qo'raga yetishlariga o'n besh metrcha masofa qoluvdi hamki, bir uyning oynalari chil-chil bo'lib ketgan ikki de-

razasidan ketma-ket avtomat tarillab qoldi. Ofitser ham, soldatlar ham til tortmay yer tishladi.

Bu qonli yakunni sabrsizlik bilan kutib turgan bola quvonib ketdi:

— Ajab bo‘ldi, xo‘p bo‘ldi. Bosqinchilarga bu ham kam.

— Biznikilar bormidi? — hayajonlanib so‘radi ona.

— Ha,— dedi Vanya.

Ona o‘g‘lini bag‘riga bosdi.

1970

QUMRINING NOTO‘G‘RI ISHI

Qumrining bitta tog‘asi, ikkita xolasi bor. Ular Qumrini juda maqtashadi. Buning sababi shuki, Qumri ularnikiga bordi deguncha bolalarining kichkinasiga opa, kattalariga singil bo‘lib ketadi. Ayniqsa kichkinalarning joni. Darrov ularni kiyintiradi, kir bo‘lmasa ham yuz-qo‘llarini yuvadi, sochlarini taraydi, kattarog‘ini yetaklab, kichkinasini qo‘liga olib o‘ynatgani ko‘chaga olib chiqib ketadi. Tolzorda ancha vaqt-gacha ovutib o‘tiradi: uning bilmagan o‘yini yo‘q! Ba‘zan qiziq-qiziq qo‘g‘irchoqlar tikib beradi. Bolalar jurnalidan suratlar ko‘rsatib, ularga “tushuntiradi”.

— Mana bu-chi, fil, — deydi, — Afrika juda ko'p bo'ladi. Ko'chalarda yuradi. Xartumi bilan yog'ochlar tashiydi. Ko'rdingmi, mana ko'tarib ket-yapti. Bizda bo'lmaydi, sen qo'rqma-gin, xo'pmi?

Bola filni tomosha qilib turib, birdan yuk ko'taradigan kranni ko'rib qoladi.

— Mana, yana fil! — deb sevinib ketadi.

— Yo'q, bu filmas, — deb tushuntira-di shunda Qumri, — bu yuk ko'taradi-gan polvon. Og'ir yuklarni xuddi filga o'xshab xartumiga olgandek ilmog'iga ilib, yuqoriga ko'tarib beradi. Huv, anovi to'rt-besh qavatli uylarni ko'ryap-sanmi! O'shalarni qurishda toza ish bergan-da!

Keyin Qumri tol xivichlaridan savat-cha to'qib beradi. Tolzorning chetidan o'tadigan kattagina ariqning chetlari-dan turli-tuman chechaklar terib, uni to'ldiradi. Ularning har bittasini bir maqtab, bolaning burniga tutadi:

— Yaxshi, al.. — deydi. Yana birini hidlab uni ham maqtab qoladi:

— Bunisi undan ham yaxshi. Lekin rangi sal sarg'imgir.

Qumri bolalarni o'ynatib yurganda hech ovqatlanish tartibini buzmaydi.

Ayni vaqtda olib keladi, yana boshqatdan bolalarning qo'llarini yuvadi, o'zlarining sochiqlariga yaxshilab artadi. Joy-joylariga o'tqizib ta'kidlaydi:

— To'kmay-sochmay yenglar, bo'lmasa hech o'ynatmayman, uyimga ketib qolaman.

Uni yaxshi ko'rgan bolalar biri olib, biri qo'yib ketmasligini iltimos qiladi. Va'da qilishganiday to'kmay-sochmay ovqatlarini yeyishadi. Qumri esa, bolalar gapiga kirganidan xursand bo'lib, yana o'ynatib ketadi. U kelganda kelinoyisi-ning joni kiradi. Uyini supurib-sidirib, kirlarini yuvib oladi, hatto ko'p vaqt oladigan ba'zi ishlarini Qumri kelishiga olib qo'yadi. Axir, hech kim Qumriga o'xshab bolalarini uzoq va yaxshi o'ynatolmaydi-da! Kelinoyisi emas, bolalarning o'zi ham Qumrini yaxshi ko'rishadi. Qumri uyiga qaytish uchun hozirlik ko'rar ekan, ota-onalariga yopishib, uning ketmasligini iltimos qilishadi.

— Qumri opangning ertaga o'qishi bor. Maktabga bormasa bo'lmaydi, — deb ularni ovutishadi.

Maktabning nimaligiga yaxshi aqlari yetmasa ham bolalar rozi bo'lishadi. Keyin yanagi dam olish kuni tag'in kelishini qayta-qayta so'rashadi. Lekin

Qumri kichkina bolalarga ham yolg'on gapirishni yomon ko'radi. Shuning uchun bunday paytda ochiq aytib qo'ya qoladi:

— Kelasi dam olishda katta xolamlarnikiga boraman. Ancha bo'ldi borganim yo'q.

Katta xolasinikida ham shu ahvol. Katta xolasining ham bir-biridan sal katta to'rtta bolasi bor. Ular ham Qumrini jonu dillaridan yaxshi ko'rishadi, holi-joniga qo'ymay osilishadi. Qumri keldi deguncha, xolasi ham xotirjam bo'lib bozor-o'charini qilib oladi, birorta lozimandasi bo'lsa, borib keladi.

Tog'asi bilan xolalarinikida ana shunday bolalarning jonini kiritadigan, mehribon Qumri uyida unaqa emas. Uka-singillari bilan unchalik ishi yo'q, ra'yi kelganda o'ynatadi. Suratlar ko'rsatib, kitoblar o'qib berishi ham kam. Ukalari ko'chadan changga botib kelsa ham onasi aytmaguncha o'z xohishi bilan yuvib-artib qo'ya qolmaydi. Ovqat yeyishga o'tirganlarida ular bilan ishi ham yo'q. Deyarli hammasini onasi qiladi. Shuning uchun onasi uni:

— Seni ko'chadagilar uchun tuqqanmanmi! — deb koyiydi, ba'zida hatto urishib ham beradi.

Bir kuni dadasi Qumrini oldiga olib gapga soldi:

— Nega bunaqa qilasan, qizim, ukalaringga ham qarasang bo'lmaydimi!

— Oyim bor-kul

— Tog'angning bolalarini ham oyisi bor.

— Tog'amning bolalari meni sog'inishib o'tirishadi, undan keyin meni yaxshi ko'rishadi, nima desam shuni qilishadi.

— Ukalaring seni yomon ko'rishadimi?— dedi dadasi Qumrining peshanasiga tushgan sochlarini orqasiga qaytarib, silar ekan. Qumrining "ha, yomon ko'rishadi!" deyishga tili bormadi. Chunki ukalari uni yomon ko'rishmas, tog'alarining bolalari singari aytganlarini qilishar edi, faqat Qumrining o'zi ularga mehr qo'yib qaramas, "o'zimning ukalarim-ku, ularni o'ynatmasam ham bo'laveradi", deb o'ylar edi. Go'yo ularni o'ynatish shart emas deb tushunar edi.

Tog'asi bilan xolalarining bolalarini esa o'ynatmasa ayb bo'ladiganga o'xshab ko'rinardi.

Bu fikr uning boshiga qayoqdan kelgan o'zi ham bilmaydi. Balki tog'asi, kelinoyisi va xolalarining bu ishi uchun qayta-qayta minnatdor bo'lish-



lari, shirin gapirib, rahmat aytishlaridir? Lekin nima bo'lsa bo'lsin, Qumri haligacha o'z ukalariga tog'avachcha va holavachchalaridek mehribon emas. Haligacha o'z ukalarining yuz-qo'llarini vaqti-vaqtida yuvib, kiyimlarini ki-yintirib, uzoq o'ynatib yurmaydi. O'ynatgani ko'chaga olib chiqsa ham saldan keyin ularning o'zlarini uyga kiritib yuborib, yo o'zi o'rtoqlari bilan quv-lashib ketadi, yoki ukalarini o'z holiga tashlab biror o'rtog'inikiga kirib ketib qoladi.

Men Qumrining bunday ishlarini yaxshimas deyman, siz-chi, bolalar?

1962

JANGCHI VA QUSH

Jang o'rmon bo'sag'asida borardi.

Ayni bahor.

Kechagina olamni ovozga to'ldirib turgan qushlardan bugun nom-nishon qolmagan. Ular kecha kechgacha ham unda-bunda ko'rinib, ba'zan tovushlari kelib qolardi. Bugun ertalab boshlangan shiddatli otishmadan keyin jimib qolishdi. Qushparast jangchi Bo'tako'zning ularga rahmi keldi:

— Bu la'nati urush dastidan kishilar

emas, qushlarga ham tinchlik yo‘q, bechoralar uyalarini tashlab qayoqlargadir to‘zib ketishdi. Tovushlari ham kelmay qoldi.

U atrofga alangladi, kaftini qulog‘i orqasiga qo‘yib tingladi. Qushlarning na shitirlashi, na biror ovozini eshitolmaganidan yuragi achidimi, okopdosh sherigiga qushlar haqida allanimalar hikoya qila ketdi.

— Qushlar ham kishiga o‘xshab xushmuomala gadosi. Agar sen unga biror mehribonlik qilsang asti unutmaydi. Buvimning ikkita musichasi bo‘lar edi. Qishin-yozin qo‘llaridan don yerdi. Hatto bola ochganda bolasini ham ergashtirib buvimning oldiga kelgan. Go‘yo bolalarini buvimga tanishtirgani olib kelgan edi. Buvim ham buni payqadi shekilli, ularga so‘z qotdi:

— Bolalaringga ehtiyot bo‘l, bu atrofda mushuk o‘lgur ko‘p.

Bo‘tako‘zning ertaknamo so‘zlaridan yuziga mamnuniyat kulgisi sochilib quloq solayotgan hamrohi tegishdi:

— Demak, sizdagi qushparastlik ham buvingizdan meros ekan-da!

— Ehtimol. Lekin buvim hech qushni qafasga solib boqqan emas. Afsus bu nuqson menda bo‘lib o‘tgan. Bola ekan-

man, bilmabman, buvim bechora nuqul “Erkini bo‘g‘ma, oltin qafasda bulbul ham sayramaydi”, deb koyir edilar. Men bolaligimda sa‘va, bedanani, qumrini bir oz vaqt to‘rqovoqlarda boqqanman. Keyinchalik qo‘yib yuborganman. Ana o‘shanda qush bechoralarning yayrab uchib ketishini ko‘rsangiz! Shu-shu qush zotini qafasga solgan odamni ko‘rsam nafratim qo‘zg‘aydi. Erkinlikda, o‘z xohishi bilan sayrashi qanday yaxshi! Tovushlarini eshitsam ketayotgan yerimda to‘xtab tinglayman. Inidan tushib ketgan bolasini ko‘rsam-u, albatta joyiga olib qo‘yaman. Joyini topolmasam uchib ketadigan bo‘lguncha boqaman.

— Sizning tomonda qushlar ko‘p-mi? — qiziqdi hamsuhbati.

— Ming xili bordir. Ertalab turib bog‘larga quloq solsang, bahring ochiladi. Do‘stim, okopda ana shularning ham xumori tutadi-da. Frontga tushibmanki, yayrab biror marta qush sayrog‘ini eshitganim yo‘q.

— Shuning uchun okopni ham shundoq o‘rmon og‘zida qazigan ekansiz-da.

— Topdingiz. Qadrdon do‘stsiz-da, ichimdagini bilasiz! Bir tomondan qushlarning o‘zini sog‘ingan bo‘lsam, ikkinchidan ularni ham bu berahm yovuz

dushmandan himoya qilishim kerak. Qush bechoralarning qo'lida o'q-dorisi yo'q!

Bo'tako'zning okopdosh hamrohi uzoq Sibirdan edi. Bo'tako'zning qushlar haqidagi so'zlari, mevalar haqidagi kechagi hikoyasiga o'xshab unga juda qiziq tuyuldi. Dushmanga Bo'tako'zdek qiron keltirayotgan, Bo'tako'zdek dov-yurak, azamat, har bir barmog'i olti oylik bolaning boldiridek keladigan yo'g'on va baquvvat yigitning mitti qushlar haqida, ularga mehribonlik haqida nozik his, nafis harakatlar bilan so'zlashi unga juda g'alati ko'rinardi. "Bu ulkan kaftida sa'va emas, kaptar ham ko'rinmay ketsa kerak. Bu qo'llar sherning tomog'idan olsa, nafasini chiqarmay qo'yadi", deb ko'nglidan o'tkazdi. Sibirlik bu yigitning zuvalasi esa kichkina, ixcham edi. Lekin Bo'tako'z hamon qushlarning ishqiboz bo'lmagan odam ilg'ab ololmaydigan hislatlari, fazilatlarini, qachon va qanday sayrashlari, nechtadan bola ochishlari, bolalariga muomalalari haqida zavq-shavq bilan so'zlardi. Hatto hamrohi umrida ko'rmagan ba'zi qushlarning qanaqaligini qiziq-qiziq harakatlar bilan tushuntirib, sayrashlarini qilib beradi.

Unga sari hamsuhbatining hayajoni oshib, kulgidan o'zini tiyib ololmasdi.

Ikki soatcha davom etgan otishma orasidagi tinchlik qushlar suhbatini bilan tugadi. Yana o'qlar chaqnashi, yana zambaraklar gumburlashi, allaqayerda samolyotlarning bo'g'iq xirillashi... Bir mahal pulemyotchi ikki o'rtoqning okopi tepasidagi oq qayinning katta bir shoxi to'p o'qidan shartta uzilib tushdi. Sal o'tmay nimadir chiyilladi. Buni hammadan oldin Bo'tako'z payqadi. U darrov sherigiga:

— Qush bolasi-ku! Sen hushyor tur, men hozir... — dedi-yu, okopdan emaklab chiqdi. U dastlab do'ppidek to'ntarilib yotgan qush uyasini ko'rdi. Ichida xashakka yopishib qolgan yarimta tuxum po'chog'i. “Demak, chiyillagan qush bolasi”, degan fikr Bo'tako'zning xayolidan uchgan o'q tezligida o'tdi. Ko'zi bilan ana shu qush bolasini qidiradi. Uning bu mushkulini qushchani o'z chiyillashi oson qildi. Undan sal narida, butalar ostida bir qush bolasi dir-dir titrab, ko'zlarini mo'ltillatib turardi. U o'z himoyachisini kutib turgandek Bo'tako'zdan qochmadi. Bo'tako'z ham qushlarning xislatlarini biladigan, rahmdil kishilardagina bo'ladigan ehti-

yotlik bilan g'arib qushchani ulkan kaftiga oldi, uyoq-buyog'ini ko'zdan kechirdi: xayriyat hammayog'i butun!

Qush endi temirqanot bo'lib kelayotgan edi.

Bo'tako'z qushchanning uyasini ham olib, okop ichida, bir chekkaga joy tayyorladi. Uyasi ustiga qushchani qo'yib uning ustiga ertalabki otishmada halok bo'lgan jangchining kaskasini to'ntardi. Bu orada qushga gap otib qo'ydi.

— Sen shu bexavotir yerda damingni olib tur. Biz sening uyingni buzgan anavi gazandalarning adabini berib olaylik.

Bo'tako'z o'z jangovar ishiga kirishdi. Dushman ustiga bir-ikki o'q yog'dirdi. Ayniqsa, so'nggi marta qoyil qildi: dushmanni ancha yaqingacha qo'yib berib, keyin rosa o'qqa tutdi. Tutday to'kdi. Xursandligidan kaska ostidagi qushga tegishdi:

— Sening o'chingni ham olib qo'ydim, do'stim!

Qushcha Bo'tako'zning okopida uch kun yashadi. To'rtinchi kun baxtsiz hodisa ro'y berdi. Tongda boshlangan otishmada bir zambarak o'qi shundoqqina pulemyotchilar okopi yoniga kelib tushdi. Bo'tako'z og'ir yaralandi. Tush-



dan keyin o'ziga keldi. Uning so'ragan narsasi ana shu qushcha bo'ldi. Rostini aytishga majbur bo'lishdi: qush o'lgan edi.

Bo'tako'zga bu xabar o'z holidan ham og'irroq tuyulgandek bo'ldi. Rahmdillik bilan dedi:

— Attang, bechora nobud bo'pti-dal

Saldan keyin uning o'zi ham olamdan o'tdi.

1970

BIR XALTA TOSH

Sharif o'tgan yili yozda Qora dengiz bo'yidagi "Artek" lagerida dam oldi. Bu albatta katta gap. Kimki, bu ajoyib lagerda dam olsa, bir yilga yetadigan esdalik bilan qaytadi. Qrimning hech qaerda takrorlanmas manzaralari, olamga mashhur Qora dengizning tinim bilmas go'zal to'lqinlari, qirg'og'ining yumshoq qum-shag'allari, mayda toshlarning rang-barangligini qo'ya bering, buni gapirgan bilan ado bo'lmaydi. U yerda turli o'lka va respublikalardan kelgan bolalar-chi? Har bittasi o'z yurti haqida butun-butun dostonlar aytib berishi mumkin.

Bularning hammasini Sharif albatta

maza qilib ko'rgan, xayoliga kelmagan o'lkalar, shaharlar, qishloqlar haqida hikoyalar eshitgan. Bularni vaqti-soati bilan o'rtoqlariga, sinfdoshlariga aytib beradi.

Lekin u kelgan kuniyoq dadasi bilan oyisini hayratda qoldirdi. Boshlab kiyimboshlari yaxshilab taxlangan chamadonchasidan bir xalta mayda tosh olib o'rtaga tashladi. Onasi xaltadagi narsaning toshligiga ishongisi kelmadi. Nahotki mayda tosh o'z shahrida topilmasa! So'rashga majbur bo'ldi:

— Bu, nima, Sharifjon?

— Tosh! Bunaqasi yer yuzida bo'lmaydi, mana, hozir ko'rasiz!

Lekin Sharif xaltaning bog'ichini yechmadi, yana chamadonining ostini kavlab, bir grelka oldi. U suv bilan to'laga o'xshardi. Bu gal dadasi so'radi:

— Buning nima, o'g'lim?

— Suv, dadajon, Qora dengizning suvi!

Sharifjon shunday dedi-yu, hammani hayron qoldirib, vannaga kirib ketdi. Fotosurat chiqaradigan yoyiq va chuqur idishni ko'tarib chiqdi. Unga grelkadagi suvni avaylab quydi. Keyin xaltaning og'zini ochib, unga toshlarni to'kdi. Toshlarning yuzi xaltada xira tortib

qolgandek, ularni qo'llari bilan ishqalab tozaladi. Sharifning yuzidan o'z ishidan mamnun odamning kulgisi arimas edi.

Toshlarni ko'nglidagiday qilib aralashtirib, tozalab bo'ldi shekilli, Sharif idishni o'rtaga surdi:

— Mana endi ko'ringlar. Bunaqa chiroyli, rang-barang toshlarni umringlarda ko'rmagansizlar. O'zim ham borgan kunimdan boshlab yig'dim-da!

U o'zi bir kaftini olib, oyisiga tutdi. Yana maqtab ketdi. Go'yo ko'rgan-kechirganlari ichida eng qizig'i shu toshlar edi! Dadasi toshlardan bir nechtasini tomosha qilgach, miyig'ida kuldi:

— Ehtimol bunaqa toshlar bu atrofda yo'qdir, lekin suvni ko'tarib kelganing qiziq bo'libdi, o'g'lim!

— Nega qiziq bo'ladi? Bolalar shishalarga solib olishdi. O'zining suvida toshlar yaxshi ko'rinadi. Innaykeyin, Orif bilan bahs o'ynaganman. U Qora dengizning suvini qora bo'ladi, degan—men yo'q, qoramas deganman. Unga ko'rsataman. Bari bir men yutdim.

Sharif o'z ishidan juda xursand edi. U o'rtoqlari yig'ilgach, juda ochilib ketdi. Labi labiga tegmay ko'rganlarini hikoya qilardi.

Yotish oldidan yana dadasi bilan oyisini ajablantirdi:

— Men-chi, endi, nuqul “1”ga o‘qiyman.

— Voy, nega?— Boshlab oyisi hayron qoldi.

— Nemis bolalari bilan qo‘l olishdim. Gap shul

Dadasi buning tagida ham bir ma‘nosi bo‘lsa kerak, deb unchalik shubhalanmasa ham, lekin tushunmasdi: har holda o‘qishda “1” baho yaxshimas. U ishlagan zavodda ham tokarlarning razryadi qancha yuqori bo‘lsa shuncha yaxshi. Uning o‘zi ham sakkizinchi razryadli tokar. O‘tgan yil oltinchi edi.

Sharif bu “kashfiyot”ga ortiqcha izoh berib o‘tirmasdan lagerda ko‘rgan turli xalq bolalarining hislatlarini, odatlarini so‘zlab ketdi.

— Oyi-chi, oyi! Bolgarlar qiziq bo‘lar ekan. Bizning bosh qimirlatib “ha” deganimiz ularcha “yo‘q” degani ekan. Fransuzlar qoshiqni o‘ng qo‘lida ushlasa ham, vilkani chap qo‘lida tutarkan.

— O‘ng qo‘lida pichoq bo‘ladi-da! — uni to‘ldirdi dadasi.

— To‘g‘ri. Topdingiz. Xullas, juda

qiziq narsalar ko'rdim, eshitdim. O'qish boshlanganda hammasini o'rtoqlarimga aytib beraman.

Sharif ko'rganlarini xayolidan yana bir-bir o'tkazayotgandek, bir nuqtaga tikilib qoldi.

— Endi kelishdik, a, oyi? Men nuqul “1” ga o'qiyman? — yana shirin tabasum bilan dedi Sharif.

Oyisi bu hazilnamo gapni ortiqcha surishtirmasa ham, yakunini chiqardi:

— Demak, bundan keyin, endi “Artek”ka bormas ekansan-da!

— Oh, oyijon, ana o'shanda boramiz-da! — Sharif yashnab ketdi.

Sharifning hazil gapining “siri” o'qish boshlanib, birinchi chorak tugaganda ochildi. Unga Bolgariya, Polsha, Chexoslovakiyadan — lagerdosh o'rtoqlaridan xat kelardi. U hammasiga javob qaytarar, ulardan yana kelardi. Bir kuni bir xatni ocha solib:

— Yasha, Gans, qoyil qilibsan! — deb yubordi. Keyin oyisiga ko'rsatdi: — mana, lagerda orttirgan nemis o'rtog'im nuqul “1” olibdi. Ularda “1” bizda “5” o'rnida!

Ona “ha” deb tushunganini bildirdi-yu, bir so'z aytmadi.

Sharif o'zida yo'q xursand edi: turli o'lkada o'rtoqlaring bo'lsa, ular a'lo o'qisa, qanday yaxshi!

1969

UCH OYOQLI IT

Albatta it uch oyoqli bo'lib tug'il-maydi. Uning oyog'ini bolalar urib sindirgan yoki uning o'zi it bilan urish-ganda mayib qilgan bo'ladi. Lekin men sizlarga hikoya qilmoqchi bo'lgan it-ning oyog'i baxtsiz biror hodisaning guvohi emas, balki sharaflı bir ishning, shonli bir tarixning oqibati. Buning ustiga, uning oyog'i ba'zi itlarniki sin-gari shalvirab, osilib yotmagan, aksin-cha, katta bir xirurgning tajribali qo'-li bilan operatsiya qilinib, kesilgan, to o'rni bitib ketguncha dori qo'yib, oppoq bintlar bilan bog'lab turilgan.

Bu qiziq tarix, albatta! Bunday meh-ribonlikni har qanday it ham boshiga qora kun tushganda ko'ravermaydi.

Bu tarixni men o'n besh yil o'tgach eshitdim. Keling, shuni sizlarga ham hikoya qilib beray.

Men o'tgan yili Dunay daryosi bo'ylab sayohat qildim. Dunay ajoyib daryo: ba'zi daryolar singari uning to'lqinlari bir-biriga mingashib chopmaydi, nor

tuyaday ko'piklar otib hayqirmaydi. U juda sokin, yomg'irdan so'ng quyosh tushib turgan ulkan asfalt ko'chadek yiltillab, baliq sirtiday tanga-tanga jimirlab, erigan qo'rg'oshindek chayqalib oqadi. Shamol paytida ham o'shqirib keta qolmaydi, balki salmoqlab-salmoqlab og'ir-og'ir to'lqinlanadi. Bu uning chuqurligidan va kengligidan dalolat. Chindan ham u juda chuqur. Ulkan paroxod va teploxodlar tonna-tonna yuklarni azamat yelkalariga olib, behadik va bexavotir suzib yuradilar. U qirg'oq'idan bu qirg'oq'iga uchib o'tgan qush entikadi, deyishadi. Chindan ham juda keng. Bir qirg'og'idan turib, ikkinchi qirg'oq'idagi kishini unchamuncha ko'z tanib ololmaydi. Ayniqsa, u Bolgariya bilan Ruminiyani ajratib turadigan joyda ancha yoyiq. Bu ikki qirg'oq ham ko'm-ko'k. Qirg'oqqacha yopirilib kelgan ko'kalamzor va daraxtzor uzoqdan qarovchi kishiga tutash o'rmon bo'lib ko'rinadi.

Biz ana shu ajoyib manzarani tomosha qilib, "Dunay" teploxodining oldingi ayvonida kelardik. Muzdek yoqimli shamol xush yoqadi. Suvning mayin to'lqini ko'zni elitadi.

Uzoq-uzoqlarning dam o'tmay o'zga-

rib turgan manzaralari xayolingni olib qochadi, qalbingga quvonch solib, qandaydir ichki bir kuch entiktiradi.

Men ham shunday zavqda atrofni kuzatib kelar ekanman, yonimdagi bir kishi:

— Anovi itni qarang, qirg'oqdan bizga suzib kelyapti, — deb qoldi.

Hammamiz qo'shnimiz ko'rsatgan tomonga qaradik. Chindan ham bir it teploxodimizni mo'ljalga olib suzib kelardi. Lekin uning suzishi qiziq edi, bolalikdan bilamizki, it yaxshi suzadi, suzganda ham qulog'ini ding qilib, suvni qilichdek kesib boradi. Lekin bu it dam o'tmay chap tomoniga munkigandek og'ib suzardi.

— Bu suzishda cho'kib ketadi-ku, — dedi mening oldimda o'tirgan yoshgina yigit.

— Cho'kmaydi, yigitcha, birinchi marta daryoga tushishi emas. O'z oti bilan uni "Shayton" deganlar. Bechoraning chap oyog'i yo'q, shuning uchun ham bir tomoniga og'ib ketyapti. Operatsiya qilib kesib tashlangan.

— Operatsiya qilingan? — qiziqdim men.

Boshqalar ham hikoyachiga ajablanib qarashdi. Ba'zilarning ko'zida "hazil-

lashayapsizmi?” degan tabassum bor edi. Lekin hikoyachining turishi va qarashi hech qanday hazilga moyil emas edi. Biz u odam bilan anchadan beri tanishmiz. U bizning teploxodda ishlaydi. Bir necha yildan beri Dunayda suzishini — kecha gap orasida aytib qolgan edi. Shuning uchun uning hozirgi gapi ostida qandaydir bir tarix borligiga ishonib, soʻz qotdim:

— Xizmat koʻrsatgan it ekan-da, unday boʻlsa.

— Toʻgʻri aytdingiz. Chindan ham bir qancha odamning hayotini saqlab qolgan. Agar itni mukofotlash mumkin boʻlsa, men orden bergan boʻlardim.

Hikoyachi uzoq oʻtmishni eslagandek koʻzlarini qisib, papiros tutatdi, soʻrib tortdi.

— Shunday, birodar, it odamning yaqin doʻsti deb bekorga aytmaydilar. Urushning oxirgi yili edi. Biz hu anavi qirgʻoqda partizanlik qilardik. Fashistlar kun oʻtgan sari battar johillashib, gʻazabga toʻlib, alamiga chidolmay chekinib kelardi: yoʻlda qarshilik koʻrsatgan aholi va partizanlarni be-rahm qirardi. Unga sari biz partizanlar ham ustalik bilan, shiddat bilan jang qilardik. Gʻalaba kunining yaqinlashib

qolganiga ko'zimiz yetgani sari ruhimiz ko'tarilib, ishimiz o'ngidan kelardi. Fashistlar ko'chaga yolg'iz chiqolmas, pulemyotli qoravul qo'ymay, qishloqda uxlolmas edi. Bir kuni kichik bir shahardagi ayg'oqchimiz xabar topib kelib qoldi. Fashistlar o'ng qirg'oqdagi partizanlarga qarshi motorli qism bilan hujum qilmoqchi emish. Qanday ish boshlamoqchi, hatto marshrutlarigacha aniq edi. Bizning taxminimizcha, bu rejadan u yerdagi partizanlar bexabar edi. Buning ustiga ularning kuchi qo'qqisdan bo'ladigan hujumga bardosh beradigan darajada emas, fashistlarning rejasi esa, ular og'ir paytda chekinadigan yo'lni ham to'sib qo'yadigan qilib tuzilgan edi. Tezdan xabar berish kerak edi. Bu atrofda ko'prik yo'q, nariroqdagi ko'prik bir haftaki berk. Kishining Dunaydan u qirg'oqqa qayiqda o'tishi qiyin, fashistlar posti bor. Partizanlarning ko'pchiligi qishloq kishilari bo'lganidan, uylari ham shu atrof daligidan Dunayga ishlari tushib turardi. Komandirimiz bundan bir qancha vaqt avval ishdan chiqqan ratsiyamizni haligacha tuzatolmagan mexanikdan o'pkalar ekan, uning asrab olgan o'g'li, to'g'risi, fashistlar ota-onasini o'ldir-

gandan keyin otryadga itini ergashtirib kelib qolgan bola, gapga quloq solib turib, birdan luqma tashladi.

— Yo‘li bor, otaxon. Bu ishni “Shayton” bajaradi.

— Xo‘sh, xo‘sh? — qiziqib qoldi komandir.

— Siz bir xat yozib bering. Temir qutichaga solib, bo‘yniga osamiz. “Shayton” suzib olib o‘tadi.

Komandir oldiniga ishonqiramay turdi: narigi qirg‘oqqa it suzib o‘ta olarmikin? Lekin boshqa iloj yo‘q, vaqt ziq edi. Xuddi shunday qiladilar. Bola itni gapga “tushunadigan” qilib, o‘rgatib yurgan ekan, rosa qornini to‘ydirib, qirg‘oqqa yashirincha olib boradi, boshini silab turib, maqsadni “tushuntiradi” va bo‘ynidan arqonini yechib yuboradi. It suvga tushib, suzib ketadi. Uni mushak otib ogohlantirib qo‘yilgan kishi qirg‘oqda kutib oladi. Lekin mushakdan shubhaga tushgan fashist postlari ham xushyor tortib kuzatayotgan ekan, qirg‘oqda sharpa sezishi bilan o‘t ochadi. It birdan angillab qoladi. U shunday angillaydiki, bu qirg‘oqdagi bola ham eshitib “oh, itim o‘ldi!” deb yig‘lab yuboradi.

Keyin ma‘lum bo‘lishicha, o‘q itning

chap oyog'ini mayib qilgan ekan. Lekin uni kutib turgan partizan it yiqilishi bilan dast ko'tarib, bag'riga bosganicha olib qochadi...

Itning bo'yniga osilgan xat partizanlarni qo'qqisdan bo'ladigan fashist hujumidan ogohlantiradi. Fashistlar tayinlangan vaqtda hujum boshlab, u yerdan hech kimni topolmaydilar, aksincha, partizanlarning pistirmasiga yo'liqib, katta talafot ko'radilar.

Shunchalik nafi tekkan itning oyog'ini shuncha tuzatmoqchi bo'lib, toza dori-darmon qiladilar, bo'lmaydi, oxiri lazeretda operatsiya qilib, kesib tashlaydilar. Lekin itning umri uzun ekan, mana hozir ham yashab yuribdi.

Hikoyachi o'z hikoyasini tugatganda it allaqachon teploxod yoniga yetib kelib, ko'pni ko'rgan tetik ko'zlari bilan bizga javdirab termilardi. Biz esa, unga mehr-muhabbat bilan imo-ishoralar qilardik, gap qotardik.

It teploxoddagilarga minnatdorlik bildirgandek yanada yaqinroq keldi-da, erkalangandek vovilladi, keyin oqimga qarab qarshi qirg'oqqa suzib ketdi.

— Nima qilib endi uyoqqa suzib ketyapti? — so'radik bu cho'loq itga achingandek.

— U qirg‘oqda sobiq partizan — komandir turadi. Itning egasi — boladan unga salom xati olib ketyapti. It orqali yozishib turishadi.

It ulkan daryoni kesib suzib borar edi. Biz hammamiz qirg‘oqqa chiqib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha uni kuzatib turdik.

1962

URUSH SO‘QMOG‘IDA

Akram armiyaga chaqirilganda chegarachi bo‘laman, deb hech o‘ylamagan edi. Artilleriyachi bo‘lishni o‘ylab yurar edi. Yo‘q, chegaraga tushdi. Chegara bo‘lganda ham o‘rmonli chegara. Qishin-yozin ko‘m-ko‘k turadigan o‘rmon. Qalin o‘rmon. Naq ikki quloch keladigan emanlari, uchiga ko‘zing yetmaydigan oqqayinlari bor. Qishda osti oppoq qor, yozda ko‘m-ko‘k o‘tzor bo‘ladi. Chunki bir yoqqan qalin qor bahorgacha qilt etmasdan turadi, bahorda barq urgan maysa-giyoh butun yoz bo‘yi ko‘m-ko‘k bo‘lib turadi. Demak yozining ham, qishining ham ajoyib gashti bor. Qo‘ziqorinu maymunjonlarni aytmaysizmi? Bu o‘rmonning shirin-shakar mevalarini ayiqlar

va turli-tuman qushlar maiza qilib yeyishadi.

Ha, aytganday, Akram o'rmonda o'tgan chegara hayotiga ko'nikib, navbatdagi topshiriqqa chiqqan edi. Ustida o'ziga yarashgan chegarachi kiyimboshi, yelkasida avtomat. Yonida sherigi, sherigining yonida qadrdon hamrohi, chiroyli it — Uran. Ayni yoz. Qushlar na'masi olamni tutgan. Giyohlar bahor nafasini ufuradi.

Ular chegara so'qmog'idan har galdek bemalol ketib borardilar. Ana, tanish kashtanning shoxida olmaxon baroq dumini o'roq qilib, ko'zini o'ynatib turibdi, go'yo bu ikki chegarachiga "navbatchiliginglar bexatar o'tsin", deyayotganga o'xshaydi. Undan narigi bir shoxda uzun dumli bir qush dumini likillatadi. Qushlar ham go'yo bu chegarachilarga ko'nikib qolganu parvoyifalak!

O'rmonning ko'm-ko'k o'tlar bosgan yumshoq va salqin havosi kishi dimog'ini erkalatadi. Shundanmi, Akram o'z yurtini eslab ketdi:

— Bizda ayni saraton! Charos qorayib, husayni o'rta barmoqdek bo'lgan payt, — dedi mayin bir entikib. U yurtini juda sog'ingan edi.

— Yurtingni juda issiq deyishadi, —

dedi sherigi issiqdan qo'rqadigan kishilarga xos bir hadiksirash bilan.

— Issig'i ham o'ziga yarashadi. Nur ko'p. Mevalarini totli qilgan shu issig'ida!

Shu payt birdan Uranning quloqlari ding bo'lib, bir tomonga tashlanib qoldi va sudrab ketdi. Ikki chegarachi unga ergashdi. It hamon tortib, daraxtlar orasida ilon iz tashlab borardi, ko'm-ko'k giyohlar egilib-bukilib yangi so'qmoq paydo bo'lardi. It hamon o'tlar orasida uymalanib yotgan bir narsani ko'rib yana qattiqroq tashlandi, g'azab bilan tez-tez vovilladi. It ko'rgan narsa maysalar orasidan oyoqqa turib qo'rquv aralash bir nazar tashladi-yu, tezda o'zini o'nglab, lapanglaganicha qocha boshladi. Bu ayiq bolasi edi. U sal nari borib, mashqini olgan chaqqon boladek epchillik bilan bir daraxatga chiqib ketdi. Pastedagilarning endi xavfli emasligiga ko'zi yetdi shekilli, yuqorilashdan to'xtab, baroq kipriklari orasidagi bezovta ko'zi bilan chegarachilarga qarab qo'ydi. Shu qaraganicha ulardan ko'zini uzmadi. Uran uni bosib ololmaganidan alam qilgandek hamon o'pkasi to'lib, daraxtga tashlanib vovillardi. Egasi esa uni qo'yib yubormas edi. Chegarachi uni yupatdi:

— Bo‘ldi! Bo‘ldi! O‘pkangni bos!
O‘zimizning o‘rmon ayiqchasi-ku. Ko‘r-
dingmi, chiroyli bolasi ekan!

Chegarachi itini ovutguncha yo‘q
edi, shu yaqinda shoxlar qasir-qusur
qilib ketdi. Ikki chegarachi qaysi ko‘zi
bilan ko‘rsinki, ulardan o‘n metrcha
narida g‘azabdan ko‘zlari chaqnagan
ho‘kizday ona ayiq uchib kelardi.
Akram yelkasidan avtomatini chaqin
tezligida qo‘lga olganda ayiq undan
faqatgina ikki metr narida edi. Akram
mashqlarda olgan tadbirkorlik bilan uni
o‘qqa tutdi...

Chegarachilar yetim qolgan ayiq
bolasini bir amallab daraxtdan tushirib
oldilar. U zastavadagi jangchilarga er-
mak bo‘ldi. Ayiqcha tez kunda kishi-
larga o‘rganib ketdi. Katta bo‘lganidan
keyin ham hech qayoqqa ketmadi.

Hammadan qizig‘i shuki, uni birinchi
bo‘lib payqagan va unga dahshat solib
vovillagan Uran bilan juda qalinlashib
oldi. Ikkisi bir-birini yalab yulqigani-
yulqigan. Bundan chegarachilar ham
xursand.

Bu bo‘lgan voqeani Akram armiyadan
qaytgach, kichik ukalariga hikoya qi-
lib berdi. Ular ham eshitib xursand
bo‘lishdi.

1971

QUDUQ

Tabiatning qiziq sirlari bor.

Buni qarangki, Jamshidning buvasi qazigan quduqning suvi bu qishloqda hammanikidan shirin. Nega? Hech kim bilmaydi. Bo'lmasa bu qishloqda deyarli har xonadonda quduq bor. Hammasidan yaxshi suv chiqadi. Lekin Jamshidning buvasi tog' etagidan yer ajratib, toshlardan tozalab, yer ochib, ekin ekdi, quduq qazidi-yu, qo'ni-qo'shni unikiga qatnab qoldi. Avvaliga devor-darmiyon qo'shnilar, keyin nariroqdagilar ham kela boshladi. Mollariga o'z quduqlaridan bersalar ham, ovqat va choy uchun, albatta, Jamshidlarnikidan chelaklab olib ketardilar.

Jamshidning buvasi g'alatiroq odam. Ko'p irim-sirimlarga rioya qiladi. Shuni boshqalardan ham talab etib yuradi. Qazigan quduq'ining suvi shirin chiqqanidan, kishilarning manfaatdor bo'lganidan ortiqcha ajablanmasa ham, qo'ni-qo'shning bo'sh chelak bilan kirib, to'ldirib chiqib ketaverishi buvaga yoqmay qoldi. Buvaning nazdida bu yaxshi belgi emas: xonadondan baraka ko'tariladi!

Buva avvallari o'zicha ping'illab

yurdi, keyin bitta-yarimtaga dardini oshkor aytdi. Shunda ham kishilar quduqqa qatnashini qo'ymadi. Hatto bir usta qo'shni ikki kishi bilan kelib quduqning atrofini yaxshi taxtalar bilan o'radi, qo'lda tortadigan suvni chig'iriq bilan aylantirib oladigan qildi. Ustasi tushkur qiziqchiroq ekan, buvaga tegishib qo'ydi:

— Bu bosh qudug'imiz, ya'ni osh qudug'imiz. Tartibli bo'lgani yaxshi.

Buva indamadi. Ustaga bu hol malol keldi shekilli:

— Ha, qo'shni, ishimiz sizga ma'qul tushmadimi? — dedi.

— Nega, yaxshi... — Loqayd javob qildi buva.

Aslida bu ish buvaga yoqmagan edi. Uning nazarida qo'shnilar u qazigan qudug'ini uzil-kesil o'zlariniki qilib olishayotgan edi. Bunga esa uning asti roziligi yo'q. Ichida "bu qo'rami, karvon saroymi?" deb qo'ydi. Lekin qo'rasining eshigini kishilar kirmaydigan qilib orqasidan bekitib olishga botinmadi. Ko'zday qo'shnilarning betiga qanaqa qilib eshik yopadi! Ichida g'ijinib yurdi. Eshikdan chelak bilan kirgan har kishini ko'rganda bir iti qo'zg'ab, chig'riq chiyillaganda g'ashi keldi. Ammo biror-

tasiga botinib bir narsa demadi: ko'pga kesak otib bo'lmaydi, naq toshbo'ronda qolib ketasan!

Buva shu zaylda qishni ham o'tkazdi. Bahorga chiqib quduqning atrofiga turli-tuman ekin ekdi, quduqqa boradigan yo'lni juda tor qoldirdi. Boshlab bu bilinmadi. Ekinlar o'sgan sari yo'l torayib boraverdi. Keyinchalik shunday holga keldiki, o'tkinchining bariga ilashadigan bo'ldi, yurishini og'irlashtirdi. Chelakdagi suvga barglari tushdi. Bu holni ko'rgan qo'shnilardan biri:

— Ekinlar juda g'ovlab ketibdi-ku, buval — deb til tegizdi. Buva ham sir boy bermadi:

— Yangi yer-da, baquvvat!

Ekin avj olib, quduqqa boradigan so'qmoq bekilgani sari ba'zi qo'ni-qo'shni oyog'ini tiydi: buvaning niyatini anglay boshladi. Buva bundan ichida mamnun edi: bo'zchining mokisidek qatnaydiganlardan qutuldim. Axir insof kerak-da, bir yil-o'n ikki oy birovnikidan suv tashib ichishadimil O'zlariniki sal bemazaroq bo'lsa, teshib chiqmaydi. Yaxshi qildim, deb yurdi.

Lekin buning chuvi chiqa boshladi.


Quduqdan oyog'ini tiygan hamqishloqlar buvadan qo'lini yuvib qo'ltiqqa urmagan bo'lsa ham, munosabatlariga sovuqlik tushdi. Ba'zi bir ma'rakalarga uni aytishmadi, ko'rganda ham ortiqcha mulozamat ko'rsatishmadi.

Buni buva sezsa ham ahamiyat bermadi: garmseldek o'tib ketadi, vaqtinchalik. Garmsel uzoqqa cho'zildi. Buva ichidan zil ketdi.

Shu orada sevimli erka nabirasi Jamshid bir kuni maktabdan yig'lamsirab qaytdi. Buvasiga sezilar-sezilmas salom berib, ichkariga o'tib ketdi. Uyga kira solib portfelini xonaning bir chetiga uloqtirdi, o'zi ho'ngrab yig'lab yubordi. U hech qachon bunaqa xo'rliigi kelib, o'pkasi to'lib yig'lamagan edi. Buva hayron bo'ldi. Kirib ahvolni so'raguncha Jamshidning ayasiga aytayotgan so'zini eshitib qoldi. "Maktabda hamma bolalar "ziqnalar, xasislar" deydi. "Xudoning suvini ayagan och ko'zlar" deydi. Endi maktabga bormayman. Uyalaman!"

— Qanaqa suv? — so'radi ayasi.

— Qanaqa suv bo'lardi, quduqniki-dal Buvam o'tib bo'lmaydigan qilib hammayog'iga atayin ekin ekib tashladilar-ku! Kishilar buning sababini bilmaydi-



mi, yer ostida ilon qimirlasa biladi, hammasini biladi.

Buva nevarasining oldiga kirishga jur'at etmadi. Og'ziga bir kaft nos tashlab ko'chaga chiqib ketdi...

Ertalab tursa quduqqa olib boradigan so'qmoqning ikki yonidagi jo'xori hali pishmasdan o'rib tashlangan, yo'l keng qilib ochilgan edi.

Buni yo kelini, yo nevarasi Jamshid qilganini buva bildi-yu, indamadi. Yana tilining ostiga bir kaft nos tashlab, ko'chaga chiqib ketdi.

1971

KOMANDIRNING HIKOYASI

— Bu urush bolalarni ham juda hushyor qilib yubordi, — dedi yuqorida yotgan yarador. U go'yo shu bilan bolalar haqida borayotgan suhbatga yakun yasagan edi. Uni palatamizning eng “keksa” yaradori — besh oydan beri yotgan mayor tuzatdi:

— Bolalarimiz urushgacha ham jangovar kinolarni va kitoblarni o'qiyverib pishib qolgan ekan. Masalan, men sezga urushning boshida bo'lib o'tgan bir voqeani aytib berishim mumkin. Bu o'z boshimdan kechgan.

Mayor biz tomonga o'girilib, qo'ltig'i ostiga yostig'ini tortdi. Bir narsani eslagandek ko'zlari suzildi.

— Urushning dastlabki oylari edi. Qattiq jang ketyapti. Dushmanning qo'li baland. Lekin biznikilar ham o'ng'aylik bilan chekinmas, har qulay joyda dushmanga esdan chiqmaydigan qilib zarba berardi. Men u mahalda endi leytenant unvonini olgan yoshgina yigit edim. Polk komandirimiz yonimga bir kishini qo'shib, oldindagi shaharga topshiriq bilan yubordi. Yo'l notanish. Bir katta qishloqqa kirib, chiqib ketishni eplolmay qoldik. Urush bu qishloqqa yaqinlashib qolganidan kishilar to'zib ketgan, buning ustiga dushman bizning harbiy formada desant tashlab, kishilarni xavotirga solib qo'ygan. Shuning uchun kishilardan bir narsani so'rab bilish qiyin. Bir xili o'zini go'llikka solsa, boshqa bir xili duduqlanadi, tuzukkina javob bermaydi. Bir mahal jikkakkina bir bola yonimizda aylanishib qoldi. Bizni hayrat bilan kuzatib, gap-so'zlarimizni qiziqish bilan tinglar edi. Bizning ahvolimizdan xabardor ekan shekilli, bir vaqt tilga kirdi:

— Men ko'rsataymi? — dedi.

Biz xursandchiligimizni bildirdik.

— Yo'lni yaxshi bilasanmi? — dedim bolaning bo'y-bastiga qarab. Bola nari borsa o'n yoshlarda edi. Keyin bilsak, men ikki yoshga adashgan ekanman. Bola mening savolimga dadil javob qildi:

— Bo'lmasam-chi! Dadam bilan mashinada necha marta borganman.

— Dadang shofyormi?

— Ha, birinchi klass shofyor. Mashinalarni boshdan-oxirigacha buzib tuzata oladi.

Bola pishiq edi. Gapdari biyron, lekin bizga shubha bilan qarayotgani shundoq sezilib turardi. Buning sababini keyinchalik bildik.

Bola yo'l boshlab ketdi. Qishloqdan chiqdik. Keng dala boshlandi. Bola mashinadan sakrab tushib, yana takrorladi:

— To'g'ri ketaveringlar, hech qayoqqa burilmanglar.

Biz bola bilan quyuc xayrlashdik. Biron esdalik sovg'a bermoqchi ham bo'ldim-ku, lekin yonimda hech nima yo'q edi.

Biz hech narsadan xavotirlanmasdan boryapmiz. Havo ochiq. Yo'l tekis. Ikki tomon keta ketguncha dala. Qorong'i endi tushib kelyapti. Bir mahal yo'l

torayib borib, birdan tamom bo'ldi. Shofyor mashinani to'xtatishga majbur bo'ldi. Biz mashinadan chiqdik. Atrof ochiq dala. Oldinda toshlar qazib olinadigan chuqurlik, hayron bo'ldik. Shofyor ham hayron:

— Hech qayoqqa burilganim yo'q-ku, — deb u o'zini oqlardi.

Keyin tushunsak, bola bizni atayin aldagan, boshqa yo'lga solib yuborgan ekan. U ham bizni desantda tashlanganlar yoki o'z jangchilarining formasini kiygan nemis razvedkachilari, deb o'ylagan va shu fikrda ish ko'rgan ekan.

Bolaning bu vatanparvarligi va jasorati bir tomondan bizni xursand qilsa, ikkinchi tomondan qorong'i tushib kelayotgan, buyruqni bajarishga kechikayotganimiz tashvishlantirar edi. Hatto sheriklarimga:

— Orqaga yuringlar, o'sha bolani topib, quchoqlab, bag'rimizga bosamiz, — dedim.

Lekin vaqt ziq bo'lganidan bu niyatimizni ro'yobga chiqara olmadik. Undan keyin bolaning o'zini ham qanday topamiz. Bizni adashtirishga aqli yetgan bola, ismini to'g'ri aytganmi-kin?

Garchand aldangan va yo'ldan adash-

gan bo'lsak ham bolaning tadbirkorligidan xursand edik.

Ketimizga qaytib, yo'lni topib oldik. Bolaning bu Vatanparvarligi esa, bizga esdalik bo'lib qoldi.

1970

“CHINNIGUL”NING YUTUG'I

Gulparchaning dadasi sirkni yaxshi ko'radi. Lekin u o'zi yolg'iz tushmaydi. Doim yonida Gulparcha bo'ladi.

Mana bugun ham ular sirkka birga ketishyapti. Bugun yakshanba. Sirkda kattalardan bolalar ko'p. Gulparcha birinchi bo'limning qanaqa qilib tugaganini bilmay qoldi. Chunki sirk juda qiziq nomerlar ko'rsatgan edi-da! Bir mahal dadasi qo'lidan ushlab tashqariga yetakladi. Bufetga borishdi. Dadasi Gulparchaga har galgidek kaftday shokolad olayotgan edi, bufetchi xotin lotereya bileti taklif edi. Dadasi sanab besh dona oldi. Buning sababini Gulparcha biladi: har bir oila a'zosiga bitadan, ya'ni ikkitasi ayasi bilan dadasiga, ikkitasi o'zi bilan ukasiga, bittasi esa buvisiga. Lekin bufetchi xotin Gulparchaning dadasi qo'lida ortib qolgan bitta biletni qaytib olgisi kelmay:

— Boshqa yo‘q, shu oxirgisini ham olib qo‘ya qoling! — deb iltimos qildi. Dadasi ikkilanib turgan edi, Gulparcha ham yalindi:

— Ola qoling, dada, bunisi qo‘g‘irchog‘im “Chinnigul”ga bo‘ladi.

Dadasi qizining ra‘yini qaytarmadi. Miyig‘ida kulib u biletni ham oldi. Ular sirk tugab, uyga qaytib kelishgach, Gulparcha lotereya biletlarining har biri ustiga egasining ismini qora qalam bilan yozib qo‘ydi. “Chinnigul” qo‘g‘irchog‘ining ham nomini unutmadi. In-naykeyin qo‘g‘irchog‘i ham juda qiziq-da! Yotqizsang ko‘zini yumib oladi.

Kunlar o‘tdi. Bir kuni dadasi ishdan qaytib, Gulparchaga:

— Qani, lotereya biletlaringni olib kel, tekshiramiz, — deb qoldi. Gulparcha chopqillab olib keldi va dadasining qo‘liga berib, o‘yin chiqqan gazetadan ko‘zini uzmay turdi. Buni qarangki, o‘yin borib-borib... “Chinnigul”ga chiqibdi! Hamma hayron, lekin Gulparchaning sevinchi ichiga sig‘masdi. Yutuq ham hazilakam emas: oltin soat! Ana endi uning qo‘g‘irchog‘i oltin soat taqadi!

Uch kundan keyin dadasi soatni olib keldi:

— Mana, qizim, yutug‘ingni ol, — deb unga berdi. Lekin yutuq qo‘g‘irchoqni-ki ekanini dadasi yaxshi bilardi. Shuning uchun uni Gulparchaga berdi. Gulparcha esa soatni “Chinnigul”ning qo‘liga avaylab taqib qo‘ydi. Unga o‘zining ham havasi kelayotgandek tez-tez qarab qo‘yardi.

Chindan ham havasi kelsa arziydigan yutuq!

1970

OQQUSHNING KENJA BOLASI

Bu qiziq hikoyani menga yo‘lda bir gozoq kishi aytib bergan edi.

...Chorsanboyning dadasi ovchi. Ovchi bo‘lganda ham tinib-tinchimagan ovchi. U qush otadi, qush tamom bo‘lgandan keyin, sovuq tushgach, baliq tutadi. Buning sababi bor, albatta. Ularning uyi shundoq katta ko‘lning yoqasida. Eshigidan chiqib qarasang kun tig‘ida jimirlab yotgan ko‘lning ko‘m-ko‘k suvini ko‘rasan. Sohllari qumloq va qamishzor. Bu yerda shunaqa qamish qalin o‘sadiki, orasiga kirolmaysan, odamlar o‘rib ketsa ham, hech tamom bo‘lmaydi. Bu qamishlar qushlar uyasi. Chorsanboyning dadasi

shu qamishzorlarda qo'nji tizzadan oshadigan uzun etigini kiyib ov qiladi, ba'zan ikki-uch kunlab qolib ketadi. Qanchalab tustovuqlarni yelkasiga xurjun qilib tashlab qaytadi, hatto enlik kamariga ham qator qistirib oladi.

Bahor chiqishi bilan ko'l go'yo qaytadan yasharadi, kuzda sarg'aygan sohildagi qamishlar orasidan nov-nihollari qad ko'tarib ko'm-ko'k tusga kiradi, ostlarida allaqanday o'tlar nish uradi, hatto butun yoz bo'yi qumloq bo'lib yotadigan yerlarda ham turli-tuman ko'm-ko'k giyohlar paydo bo'ladi. Qushlar galasi ko'l ustidan chug'urlashib o'tadi. Olamni zavq-shavqqa ko'mib yuboradi.

Bugun yakshanba. Chorsanboy qayig'ini tuzatayotgan dadasiga ko'maklashardi. Qayiq dadasining hamrohi. Yoz bo'yi unda suzadi. Kuzga borib qirg'oqqa to'ntarib qo'yadi. Mana endi bahor chiqishi bilan uni ko'zdan kechirib, kerak yeriga mix qoqib, ba'zi yerining taxtasini almashtiryapti.

— Sen olovga qara, — dedi dadasi Chorsanboyga. Ulardan nariroqda bir eski chelakda mum qaynardi. Bu mum bilan qayiqning sirtini moylashadi, darzlari bekilib, suv o'tmaydigan bo'ladi.

Dadasining ogohlantirganicha bor: chelak ostidagi olov susayib qolgan ekan. Chorsanboy o't qaladi, gurillatib yubordi. Sal o'tmay mum yana biqillab qaynay ketdi. Bu ishidan Chorsanboyning o'zi ham xursand bo'ldi. U "qalay, shunday yongani yaxshimi, dada!" degandek unga nazar tashlagan edi, birdan bir gala qushlarning jo'rovozi uning xayolini olib qochdi. Bu oqqushlar edi. Chorsanboy ularni xursand bo'lib kuzatib turdi. Ular ancha-muncha edi. Ular ko'l ustida chug'ur-lashib bir aylanishdi-da, etak tomonga o'tib, ko'zdan g'oyib bo'lishdi. Lekin bir-ikki jufti shu zahoti yana ortiga qaytib, suvga tushdi. Oppoq, ulkan qanotlarini yelkandek yozib, suv betida belanchak bo'lib turishdi.

— Bular qoldi shu yerda,— dedi Chorsanboyning dadasi.

— Qayoqdan bildingiz?

Bizning ko'l ularga yoqib qoldi. Hali bola ochadi.

— Yo'g'-e! — quvonib ketdi Chorsanboy, — bolasini ushlab berasizmi? Boqsa bo'ladimi?

— Ushlatmaydi. Otsang mayib bo'ladi.

— Yo'q, otmang,— dedi halitdan

Chorsanboyning oqqush bolalariga rahmi kelib.

Dadasi aytgandek o'sha oqqushlardan bir jufti ertasiga ham shu ko'lda ko'rindi, indiniga ham. Chorsanboy jo'rttaga kunda, kun ora ulardan xabar olib qo'yardi. Garchand ularga dahli bo'lmasa ham, ularni boqmasa ham, ular yaqiniga yo'latmasa ham "mening oqqushim", deb gapirardi, faxrlanardi.

Bir kuni bundoq qarasa, oqqushlar yo'q. Ertasiga ham ko'rinmadi. Bir hafta o'tdi — hamon darak yo'q.

— Ketib qoldi! — dedi u o'kinib dadasiga.

— Hech qayoqqa ketmaydi. Shu yerda! — dedi dadasi bamaylixotir.

— Qani bo'lmasa? Suzmaydimi? O'ynamaydimi?

— Bola ochyapti.

— Bola ochyapti? Voy, maza! Bolasidan olaman. Qaerda ochyapti, dada?

— Qamishzorda, topolmaysan.

Chorsanboy bir hafta kutdi. Ikki hafta kutdi. Bolalari uyoqda tursin, ularning o'zidan darak yo'q edi. Ko'lga qaray berib, ko'zlari tinib ketadigan bo'ldi. Oxiri umidini uzdi.

— Ketib qoldi! — dedi.

— Yo'q, shu yerda! — dedi dadasi

yana qat'iy qilib. — Bu yil yozni shu ko'lda o'tkazadi.

Chorsanboy dadasining so'zini yolg'onga chiqarishga botinolmadi. Uning dadasi qanaqaki, bu atrofdagi qush va hayvonlarning hamma qilig'ini, hunarini, turqini, qachon kelib, qachon ketishini, qanaqa yerda nechtdan bola ochishini, bolalarini qanaqa qilib katta qilishini, hamma, hamma-sini yaxshi biladi, yaxshi bir kitobday yodakam biladi. "Dadang uchgan qushning qo'nadigan yerini oldindan biladi", deb unga tegishadi qo'shnilari.

Shunday bo'lsa ham Chorsanboyda dadasining so'ziga shubha uyg'ondi. Ko'lga chiqmay qo'ydi. Asta-sekin oqqushlar yodidan ko'tarila boshladi. Sigiri tug'ib, buzoq bilan ovora bo'lib ketdi.

— Oqqushlaringni ko'rdingmi, bolalarini ergashtirib yuribdi, — dedi dadasi bir kuni ovdan kelib.

— Rostdanmi?

Chorsanboyning yuragida oqqushlar mehri qayta uyg'ondi. Hoziroq yugurib sohilga chiqardi-yu, bari bir qorong'i, tun. Oqqushlar ko'rinmaydi. Bolalarini qanoti ostiga olib, kim biladi, qaysi qamishzor, qumloqda mudrayapti?

Chorsanboy tunni zo'rg'a o'tkazdi. Buni qarangki, tuni bilan bezovtalanib, necha bor uyg'ongan Chorsanboy tongga yaqin tosh qotib uxlab qolibdi. Mundoq ko'zini ochsa, kuzning iliq shamoli kun tushib turgan derazaning yumshoq pardasini hilpillatardi. Uyda hech kim yo'q. Yuz-qo'lini naridan-beri yuvdi-yu, onasining "choyingni ichib ket!" deyishiga qaramay ko'l bo'yiga chopdi. Oqqushlar ham "sog'ingan bo'lsang, mana bolalarim, yaxshilab ko'rib ol!" degandek qirg'oqdan salgina narida suzib yurardi. Lekin bolalari o'ziga o'xshamas, xuddi tuproqqa dumalab olgandek "iflos" edi. Nahotki, shunday oppoq va chiroyli qushlarning bolalari shunaqa xunuk bo'lsa! Uning ixlosi qaytdi.

U ko'nglidagini yashirolmasdan:

— Dada, — dedi u, — nega bolalari bunaqa g'alati? Oppoq emas?

— Keyin oqarib ketadi, — dedi baliq tutib o'tirgan dadasi.

Bir oy ham o'tdi — oqqushlar oqarmadi. Lekin ular shunaqa tez o'sardiki, sal vaqtdan keyin ota-onalaridan farq qilmay qoldi, faqat ranglarigina ajralib turardi. Uchisholmas edi. Bu orada kuz tushib, sovuq boshlandi. Oqqushlarning

uchib ketadigan vaqti bo'lgan edi. Buni ona oqqush sezdi shekilli, bolalarini uchishga mashq qildirib boshladi. Sokin qirg'oqni tanlab oldi. Bolalarini qator tizib qo'yib, o'zi oldinga o'tdi. Uchib ko'rsatdi, ketidan bolalarini bir-bir yo'lladi. Ular onalariga o'xshab ko'l betida ulkan qanotlarini keng yozib, suvni shapillatib urib, yaxmalak otgandek suzib ketdilar. Lekin onalariga o'xshab suv betidan ko'tarila olmaydilar. Mashq yana takrorlandi. Bu gal boyagidan ko'ra tez va chaqqon yelib ketdilar, biroq suvdan hamon azod ko'tarilib ketolmay, sal-sal yuqorilab qo'yishardi. Ona qush ularni shunchalik sabr-toqat bilan mashq qildirardiki, birortasini "koyimas", "turtmas" edi, mashqni tinimsiz takrorlardi, o'zi namuna ko'rsatardi. Ertasiga bu mashq yana davom etardi.

Chorsanboy dadasi oldida qarmoqni suvga solib qo'yib, maza qilib tomosha qildi. Ikki ko'zi qushlarda edi. Bir mahal:

— Ana ko'tarildi, uchib ketdi! — deb qichqirib yubordi.

— Uchadi-da, bekorga onasi qunt bilan mashq qildiriyaptimi! — dedi dadasi, shunday bo'lishini necha marta ko'rgan kishidek behayajon.

Bu mahal oqqushlar to‘dasi ko‘l ustida doira yasamoqda edi.

— Voy, anavi bittasi qopti-ku! — dedi Chorsanboy suv betida, to‘lqinda qalqib turgan oqqushchani ko‘rib.

— Uchadi. Shoshma. Axir o‘quvchilarning hammasi “besh”ga o‘qimaydiku. “Uch” oladigani ham bor, shundaymi?

— Albatta, — tasdiqladi Chorsanboy.

— Bu ham o‘shanaqa zo‘rg‘a “uch” oladiganga o‘xshaydi.

Sovuq tez tushdi. Buni payqagan katta oqqushlar bolalarini uchishga jadallik bilan o‘rgatishardi. Ko‘pchiligi ko‘l ustida ikki-uch doira yasaydigan bo‘lgan bo‘lsa ham, anavi kenjasi hamon uzoq ucholmas, tezda suvga qo‘nib olardi, hurpayib turardi. Aftidan nimjonga o‘xshardi.

Bir kuni quyosh botishga yaqin barcha qushlar baravar ko‘tarilishdi. Kenja ham ko‘tarildi. Lekin ko‘l ustida bir doira yasab, yana o‘z joyiga kelib qo‘ndi. Shu kechasi juda qattiq sovuq bo‘ldi. Chorsanboy ertalab chiqib hayron qoldi: hammayoq oppoq, xuddi qor yoqqandek. Aslida bu qirov-buldiriq edi. Atrof ertaksimon tusga kirgan. Bu ajoyib ko‘rinishdan zavqlanib turgan

Chorsanboyning esiga oqqushlar tushdi: ularning holi nima kechdi? U ko'lga chopdi. Qay ko'z bilan ko'rsinki, ko'l muz qotgan. Kenja oqqushchani qanotlarini muz "ushlab" qolibdi. Kattakichik oqqushlar uning atrofida uymalashib yotibdi. Lekin uni muzdan ajratib olisholmas edi.

Chorsanboyning yuragi achidi. Nima qilishini bilmasdan uyga chopdi:

— Dada! Dada! Kichkina oqqush muzga yopishib qopti. Endi nima qiladi? O'lib qoladimi?

Dadasi nima gapligiga darrov tushundi. Saroydan bolta, uzun taxta olib yo'lga tushdi. Oqqushlar hamon tashvishlanib, uymalanib yotardi. Ulardan cho'chimadi ham.

Dada qirg'oq muzini tepib ko'rdi, bolta bilan urdi. Qattiqligiga qanoat hosil qilgach, muzga yopishib qolgan oqqushcha oldiga asta-asta yurib bordi. Oyog'i ostiga taxtani uzun tashlab, bolta bilan sekin-sekin atrofni chopib, oqqushchani muz panjasidan qutqarib oldi va yonida turgan o'g'liga uzatdi:

— Ma, uyga elt! Isit!

Chorsanboy quvonishini ham, xafa bo'lishini ham bilmasdi. Sheriklarining bu fojiali holatdan qutulganini ko'rgan

boshqa oqqushlar ko'lni bir aylanib, Chorsanboyning tepasiga kelganda pastlab o'tishdi. Go'yo sheriklarining mehribon qo'lda ekaniga ishonidilar va yana bir doira yasab, ko'l ortida ko'zdan g'oyib bo'ldilar.

Kenja oqqush esa qishi bilan Chorsanboylarnikida qoldi. Oldiniga yotsirab hech kimning qo'lidan hech nima yemadi, suv ham ichmadi. Chorsanboy-ni yana vahima bosdi:

— O'lib qoladi!

Yana dadasi dalda berdi:

— O'lmaydi, sabr qil, o'g'lim. O'rganib ketadi.

Bu gal ham dadasining so'zi to'g'ri chiqdi. Oqqushcha avvaliga uyga, odamlarga ko'nikdi. Keyin ivitilgan non ushoqlarini cho'qidi, keyin suv ichdi. Keyinchalik esa, o'zi ovqat tilab keladigan bo'ldi, kishilar dasturxonga o'tirsa, yonlariga kelib, chiroyli ko'zlari-ni miltillatib turadi. Bora-bora uning o'ziga idish ayirishdi. Kishilardan emas, hatto hovlida doim mudrab yura-digan qari itdan ham endi hayiqmaydi. Mushuk bilan esa o'ynashadi, dumini cho'qib qaqillaydi.

Bahor chiqib, ariqda suvlar sharqirab oqadigan bo'lganda u ko'lga bir-ikki

marta o'zicha borib-kelib yurdi. Begona bolalardan ham cho'chimadi. Ilk oq-qushlar tovushi ko'l tomondan kelgan kuni bir ketganicha qaytib kelmadi. Chorsanboy o'kingandek bo'lgan edi, dadasi yupatdi.

— Yaxshi bo'ldi, elatini topdi.

1971

AZIZ RASM

Men bu rasmga ortiqcha ahamiyat bermasdan yurardim.

Esimni tanibmanki, xonamizning devorida osig'liq turadi. O'zi oddiygina: ayiq bolasi daraxtga tirmashib chiqib ketyapti. Qalamda ishlangan. Uncha chiroyli emas. Ochig'ini aytsam, bunaqangi rasmni o'zim ham chiza olaman. Nimasi qiyin? Bizning sinfda shunaqa bolalar borki, solgan rasmini ko'rsangiz og'zingiz ochilib qoladi!

Bu rasmga yoshlikdan o'rganib qolganim uchun bo'lsa kerak, tarixini hech surishtirgan emasman. O'quvchilik vaqtida ayammi, dadammi havas qilib solgan bo'lsa kerak, deb ba'zan ko'nglimdan o'tkazib qo'yardim. Lekin nima uchundir, so'rash hech esimga kelmadi.

Yaqinda shu rasmning tarixi ochilib qoldi.

Bizga yangi kvartira berdilar. Uch xonali, yorug', yo'talsang derazalari zirqillaydi, polida aksing ko'rinadi. Beshinchi qavatda. Butun shahar ko'rinadi. Uzoq-uzoq tog'lardagi qor ham bemalol ko'rinadi. Shahrimizning kattaligini ana shunda bildim. Quyosh tikka kelganda anhor qilich damiga o'xshab yarqirashini ko'rsangiz. Maza!

Ko'chish uchun kunbo'yi ovora bo'ldik. Ayam bilan dadam besh kun ishlab, ikki kun dam olishmaydimi, foydasi shunga juda tegdi. Shanba kuni ertalabdan yig'ishtirishdi: bog'laydiganini bog'lab, tugadiganini tugishdi. Maktabdan kelgach, men ham qarashdim. Ana shunda ayam o'sha rasmni devordan asta olib, avaylab qog'ozga o'radi-da, menga berdi:

— Buni papkangga solib qo'y, ehtiyot qil! Ko'chib borgach, menga berasan.

Ayamning rasmga nisbatan qilgan harakatidan va muomala zaylidan bildimki, rasm juda ardoqli, uni yaxshilab asrashim shart. Uni portfelimga solar ekanman, yana ayam ta'kidladi:

— Ezilmasin!

— Ezilmaydi-ku, kitoblarim orasida

siqilib qoladigan bo'ldi, — dedim kulgi-
ga olib, — ayiqcha o'lib qolsa-ya!

— O'lmaydi, shuncha yil devorda
osig'liq turib o'lmagan, endi o'larmidi!
O'ldirmaysan-da, ayam xafa bo'lmasin
desang, o'ldirmaysan.

— Shunaqa aziz rasmni, aya!

— Aziz bo'lganda qanday!

— O'zingiz solganmisiz?

— Yo'q.

— Dadamlarmi?

— Yo'q.

— Ie, kim solgan bo'lmasa?

— Birov. Begona odam.

— Shunaqami, — ayamni ishdan
qoldirib, shu paytda rasmning tarixini
surishtirishni o'zimga ep ko'rmadim.
Lekin ko'nglimga tugib qo'ydim: payti
keladi!

Paytini ortiqcha poylab yurmasdan,
ko'chib borgan kunimizning ertasiga-
yoq ro'yobga chiqarib qo'ya qoldim.
Gapni ayamning o'zi ochdi. U uy jihoz-
larini joy-joyiga o'rnashtirib bo'lgach,
rasmni so'radi.

— Sening karavoting tepasiga osib
qo'yamiz, maylimi?

Menga yoqinqiramadi: birinchidan
uni ayam menga beradi deb o'ylamagan
edim, ikkinchidan o'zi ham unaqa chi-

royli chiqqan emas. Axir odamlar bolalarining karavoti tepasiga rangli bo'yoqlarda solingan, ko'rsang havas-ing keladigan rasmlar osib qo'yishadi-da! Buning nimasi yaxshi? Tag'in qalamda solingan. Oddiygina!

Mening kayfiyatimni bilgan ziyrak ayam:

— Mayli, senga yoqmasa o'zingga qola qolsin, — dedi. Men paytdan foydalanib so'radim:

— Avval, ayting-chi, o'zini kim solgan? Nima uchun buncha ardoqlaysiz?

— Unda mendan olib qo'yasan-da, — kuldi ayam.

— Yo'q, olmayman, o'zingizga buyursin.

— Yo'q, olib qo'yasan; ko'zingdan ko'rib turibman.

— Shunaqa aziz rasmmi?

— Bo'lmasam-chil

Oddiygina bu rasm mening nazarimda o'zga bir chiroy kashf etdi. Xayollarim har tomonga to'zg'ib ketdi. O'zimcha tarix to'qidim. Lekin hech biri to'g'ri bo'lib chiqmadi.

— Urush yili edi, — deb o'z hikoyasini boshladi ayam. — Katta-kichik hamma frontda. Frontga ketmaganlar front

uchun ishlardi. Mening dadam ham frontga ketgan, ayam fabrikada kiyimbosh tikardi. Tong qorong'isida ketib, shom qorong'isida qaytardi. Biz bolalar bilan shug'ullanishga vaqtlari ham yo'q edi. Biz ham kattalardek o'z ishimizni bilib qilardik, o'zimiz ham kattalarga o'xshab qolgandik. Bir kuni, maktabimiz gospital bo'larmish, frontdan yaradorlar kelayotganmish, degan mish-mish tarqaldi. Mish-mish chinga aylandi. Bizni yana eski binomizga qaytarib ko'chirishdi. Ha, aytganday, bu to'rt qavatli yangi binoga urushdan sal oldin ko'chib o'tgan edik. Yana biz uchinchi smenada o'qiydigan bo'lib qoldik. Sinf yetishmasdi. Yangi binomiz sal vaqt ichida soldat va ofitserlar bilan liq to'ldi. Doktorlari ham harbiylar. Yaradorlar oftobga chiqib o'tirishadi, yaqinrog'idan o'tsak qo'l silkishib gap qotishadi, tabassum qilishadi. Ayam bechora: "Dadang shular ichida yo'qmikin? Birortasi ko'rmanmikim?" deb haftada bir-ikki marta xabar oladilar. Qiziq, dadam frontdan shu yergacha keladi-yu, ayam chiqib, surishtirib topib olguncha qarab turarkanmi! Endi bilsam, ayam bechora dadamni juda sog'ingan ekanlar. Xavotir ham olganlar.

— Siz dadangizni sog'inmasmidingiz?— hayron bo'lib so'radim.

— Ayamchalik sog'inish nimaligini bilmasam kerak-da, bo'lmasa kunda chiqib xabar olmasmidim.

— Kichkina bo'lgansiz-da! — ayamga tasalli berdim.

— Ehtimol! Buning ustiga deyarli hammaning dadasi frontda edi. Shunaqa bo'lishi kerak deb o'ylaganmidim? Lekin xat tashuvchini ko'chaning boshidan kutib olardik. Chug'urlashib hammamiz o'z adresimiz va familiyamizni aytardik. Uch-to'rttamiz xat olib quvonsak, ba'zi birimiz uyimizga yig'lab qaytardik.

— Nega? — tushunmadim.

— Chunki "Qora xat" kelgan bo'lar-di.

— "Qora xat" deganingiz nima, a? Xatning qorasi ham bo'ladimi?

— Bo'ladi, qizim, bo'ladi, — xo'rsindi ayam, — frontda halok bo'lgan kishidan keladigan xat.

— "Hm", — deb tilimni tishlab qoldim. Buvam esimga tushdi. — Demak buvamdan ham o'shanaqa xat kelgan ekan-da!

— Kelgan, qizim, kelgan. — Ayam juda bo'shashib, xo'rsindi. — O'shanda

yig'laganlarimizni ko'rsang! Ayam bechora bu g'amdan yotib qolganlar. O'sha-o'sha kasalmand bo'lib, o'nglanmay ketdilar.

Ayam uzun xo'rsinib, o'z onasi haqida uzoq so'zlab ketdi. Uning har bir so'zidan onasini qanday yaxshi ko'rgani sezilib turardi. Men u kishini ko'rmaganman. Suratlarini bilaman, xolos. Ana, ayam uni katta qildirib, yaxshi ramkaga solib, buvam bilan yonma-yon osib qo'yibdi. Buvimning surati keyinroq oldirilgan bo'lsa kerak, buvamga qaraganda qariroq ko'rinadilar. Buvamning ustida chopon, boshida chor qirra tagdo'zi do'ppi. Ko'zlari yirik. Xuddi ayamnikiga o'xshaydi. Yonib turibdi. Yuzlari unchalik etli bo'lmasa ham, lekin juda sog'lom va baquvvat bo'lganlari yaqqol ko'rinib turibdi. Buvamning harbiy rasmini ko'rgim kelib ketdi.

— Buvamning soldatlikda tushgan suratlari bormi?

— Yo'q. Urush vaqtida suratga tushish kimning esiga kelibdi.

— Attang! — achindim. — Buvamga harbiy forma juda yarashgandir.

— Yarashgan bo'lsa kerak. Chiroyli, keng yag'rin odam edilar.

Bir ozdan keyin ayam o‘z hikoyasiga qaytdi:

— Bir kuni muallimamiz gospitalga borishimizni aytib qoldi. Kichkina konsert berdik. Konsertdan keyin palatalarga kirib, yaradorlar bilan tanishdik, gaplashdik. Ba’zi birlarining yengil-elpi yumushlarini qilib berdik. Shunda bir yarador mendan boyagi konsertda aytgan ashulamni yana bir takrorlab berishimni iltimos qilib qoldi.

— Qanaqa ashula edi? — men ayamning hozir ham yaxshi ashulalar aytishini bilganim uchun bolaligida ham ashulalar aytganidan ajablanmadim, ashulasining nomini so‘rash bilangina cheklandim.

— Yanglishmasam, frontdagi dadasini sog‘ingan qizcha haqida edi. Hozir nomi esimda yo‘q.

— Yana aytib berdingizmi?

— Bo‘lmasam-chi! Frontchining ra’yini qaytarib bo‘ladimi! Lekin yarador ashulamning yarmigacha ham eshitilmadi. Yig‘lab yubordi. Xuddi kichkina bolaga o‘xshab ho‘ngrab yig‘ladi, o‘pkasi to‘lib yig‘ladi. Qani endi ovitib bo‘lsa! Keyin bilsak uning ham bitta-yu bitta qizi bor ekan. Gitlerchilar bosib olgan shaharda qolgan ekan. Qizining

taqdiridan bexabar, alamdanda o'rtanib yonib yurgan ekan, mening ashulam yarasini yangilabdi. Shu-shu u meni xush ko'rib qoldi. Gospitalni maktabimiz otaliqqa olgan. Tez-tez borib xabar olib turardik. U vaqtda ro'zg'or uchun hovliga piyoz, kashnich, ukrop sochardik. Pomidor, bodring ekardik. Hammasidan unga olib borardim. Ayam rahmatlik: "G'arib ekan, dadang ham unga o'xshab qayerlarda yuribdi! Mana bu gilosdan ham olib borib ber, qizim, bechoraga", — deb hovlidagi qizil gilosdan ikki-uch hovuch berganlari hali-hali esimda.

— Boshqalarning ko'zini o'ynatib, bitta o'ziga berdingizmi?

— Frontchilar juda ahil bo'ladi. Yolg'iz yemaydi.

— Ha, shunday demaysizmi!

— Undan keyin gospitalga bitta men qatnamayman-da, hamma bolalar borishadi. Har bittasining go'yo "o'z kishisi" bor edi... "Mening yaradorim"ning qo'lidan uncha-muncha rasm solish kelar ekan. Bir kuni ana shu rasmni tug'ilgan kunimga sovg'a qildi: "Boshqa hech narsam yo'q esdalikka berguday", deb kuldi. Men jon deb olib ketdim. Chunki o'zim rasm solishga

ishqivoz bo'lsam ham hech qo'limdan kelmas edi.

— O'sha kishi tuzalib ketdimi?

— Ha. Frontga jo'nash oldidan biznikiga keldi. Xat yozib turdi. Keyin jim bo'lib ketdi. Surishtirsak Germaniyaga kirganida halok bo'libdi. U bir xatida: "Men birinchi burchimni o'tadim — Vatanimiz dushmandan to'lato'kis musaffo bo'ldi. Endi ikkinchi burchim qoldi: Yevropani fashizmdan ozod qilish", — deb yozgan edi.

— Ajoyib odam ekan! — uning so'zi menga juda yoqqan edi. — O'lmaganda qanday yaxshi bo'lardi.

— Ha, qizim, ne-ne kishilar halok bo'ldi! Bu rasm o'sha kishidan menga yodgorlik!

Bu oddiygina rasm endi ko'zimga juda ham boshqacha ko'rinib ketdi. Uni oddiy soldat emas, buyuk rassom chizganga o'xshardi. Butun vujudim hayajonga to'lib, ko'nglim ko'tarildi. O'zim ko'rmagan o'sha kishiga g'oyibona hurmatim oshdi. O'shanday soldatni ko'rgan, gaplashgan, qo'lidan esdalik rasm olgan ayamga havasim keldi. Bu rassom — soldat siymosi devordan mag'rur boqib turgan buvam haqidagi tasavvurim bilan qo'shilib ketdi.

Rassom buvamga o'xshardi. Unga qaradim. U ham mendan ko'zini uzmasdan termilib turardi.

Rasmni ayamning qo'lidan asta oldim. Ayam indamay berdi. Karavotim tepasiga ehtiyotlik bilan osib qo'ydim.

SAYYOH KAKTUS

Zamiraga kaktus ma'qul bo'lib qoldi. Nimasi ma'qulligini o'zi biladi. Bo'lmasa kaktus tuvakda o'sadigan ba'zi gullarga o'xshab, chiroyli yaproq yozmaydi, chaman bo'lib gullab havasingizni keltirmaydi. O'zi kishi kaftiga o'xshaydi: qalin, go'shtdor. Lekin bu ko'm-ko'k kaft tikanlarga to'la. Uni qo'lga olib salmoqlab bo'lmaydi. Yaxshi gul chiqaradi deyishadi. Juda kam uchraganidanmi Zamira hech ko'rgan emas. Shuni o'z ko'zi bilan ko'rishga u qasd qildi. Bir rangli jurnalga ko'zi tushdi: juda chiroyli gullar ekan. Agar chindan ham o'sha suratdagiday bo'lsa ko'plarning havasini keltiradi.

Zamira gulsevar qo'shnisidan kaktusni qaerdan olishni so'ragan edi:

— Ovora bo'lib yurasanmi, ma, mana buni olaqol! — deb derazasi ostida tur-

gan tuvakdagi kaktusning shapaloqdek bir butog'ini asta qayirib uzdi-da, unga berdi. — Ehtiyot bo'l, tikani kirmasin.

Qo'shni qanaqa qilib o'stirishni ham tushuntirdi. Juda oson ekan: tuvakka go'ng aralashtirgan tuproq solib, unga suqib qo'yilsa bas ekan.

— Lekin tez-tez sug'orib tur. Kunga qo'y, — dedi qo'shni. Zamira xuddi shunday qildi. Chindan ham u "xiralik" qilmasdan tutdi. Sal o'tmay eti qalin tortib, tikani quyuqlashdi, bo'yi ham o'sdi.

Bir gal kelganda Zamiraning katta buvisi, sakson yoshli kampir:

— Bu tikan nima qilib uyning to'riga chiqib qoldi, — deb hayron bo'lgan edi, Zamira mamnun izohladi:

— Gul-ku, buvi. Amerikada o'sadi. Juda chiroyli gullaydi.

— Tikanni gul deb yursalaring, — deb ajablangan buvi qo'li bilan asta paypaslagan edi, tikani qo'liga botdi. — Muncha jahli o'tkir, ehtiyot qilinglar bolalarni.

Zamira katta buvisi aytganidek, kichik ukasidan ehtiyot qilib parvarishladi. Mehribon qo'l boshingni silab

tursa, bo'y tez o'sadi degandek, Zamiraning g'amxo'rligini sezgan kaktus tez orada katta bo'ldi. Hatto yonidan ikki-uchta bolacha ham chiqardi, ular ham yayrab o'sa boshladi.

Bir kuni Zamiraning muallimasi:

— Bolalar, uyinglarda turli gul o'stiringerlar, Navro'z bayramida maktabimizni bezatamiz, — dedi.

Zamiraning ko'nglidan kaktus o'tdi. Yana yaxshilab parvarish qildi, aytilgan muddatda olib chiqdi. Ba'zilar "vaa, shu ham gul bo'libdimi!" deb kuldi. Bittasi qo'l urib qochdi. Boshqa bittasi qopol tegishgan edi, kaktus g'azabi chiqqan kishidek uning barmog'ini qonatdi.

— To'la endi, qo'limni guling qonadi, — dedi o'sha qopol bola.

— O'zingdan ko'r. Nega gulga ozor berasan.

Zamira bundoq qarasa, sinfda hech kim kaktus olib chiqmabdi. Ochig'ini aytganda, maktabda hali kaktusni umri bino bo'lib ko'rmagan bolalar bor ekan. Atrofidan ketishmadi. Bolalardan bittasi: "Menga tegma", degan gul ekan deb uning tikanini paypaslasa, boshqa biri "Betartib bolalarning jazosiman", degan gul bo'lmasin deb uning g'ashiga tegardi.

Zamira ta'til boshlanishi bilan kaktusni uyiga olib keldi. Maktabda kim xabar olib turadi!

Lekin uyida ham tashvish boshlanib qoldi. Har yildagidek uning dadasi mashinasida Issiqko'lga oilasini olib bormoqchi. Endi Zamira nima qildi? Albatta kaktus uchun u o'zi yolg'iz uyda qololmaydi. Birovga qoldirishga ko'ngli yo'q. Avvalambor u kaktusning gul chiqarishini o'z ko'zi bilan ko'rmoqchi, ikkinchidan, birovga qoldirsa, u odam o'zidek parvarish qila oladimi, yo'qmi. Ayni yetilgan vaqtida qurib qolsa-ya! Buning ustiga sentyabrda bir necha o'rtog'iga bolachasidan bermoqchi bo'lgan. Zamira o'ylab-o'ylab dadasiga dardini aytdi:

— Kaktusni nima qilamiz, dada?

— Hm, — o'ylab qoldi dadasi. — Olib ketmoqchimisan? — Zamira yashnab ketdi.

— Ko'nglimdagini aytdingiz, dadajon. Qanday yaxshisiz! Maylimi?

— Mayli. Lekin yo'lda o'zing ehtiyot qilasan-da.

— Bo'pti! Buyog'idan xavotir olmang.

U kaktusni Issiqko'lga olib ketdi. Ular bilan birga bir xonada turdi, u ko'lda cho'milganida sohilda tomosha

qildi. Kishilarga ermak bo'ldi. Zamira "kaktusli qiz" degan laqab oldi. Bir kun qirg'oqqa olib chiqmasa "guling qani?" deydi bo'lib qolishdi. Qaytish paytida o'sha yerda orttirgan o'rtog'i — qalmoq qiziga bir bolachasini tuvakchaga solib, esdalikka berdi:

— Rahmat! Albatta parvarish qilaman! — dedi o'rtog'i quchoqlashib xayrlashar ekan.

— Ishonaman, — dedi Zamira, — ko'rdingmi, guli qanday chiroyli.

Bu paytda Zamiraning ona kaktusi gunafsharang, oqish tusda ochilgan, bunday chiroyli gul, uning nazdida, olamda yo'q edi.

Chunki o'z mehring va mehnating samarasi doim shunday beqiyos go'zal bo'ladi.

1971

ETIM BOSHIN SILAGANLAR

Bu yil mehnat otpuskamni Qrimda o'tkazadigan, o'g'ilcham Quadratni ham birga olib ketadigan bo'ldim.

O'g'lim har kuni ketishimizga necha kun qolganini sanay berib adashib ketardi.

Oxiri kutilgan kun keldi. Yo'lga

chiqdik. Kishi yo'lga chiqish oldidan biror og'ir ish qilmasa ham odatda charchaydi. Bu charchoqlik poezdga o'tirib bir necha soat o'tgandan keyin bilinadi. Men ham xuddi shunday bo'ldim. Qorong'i tushishi bilan esnoq bosib, uyquga ketdim. Qudrat yonimda, bo'ynimdan quchoqlab yotardi. Ertalab ko'zimni ochsam, yonimda Qudrat yo'q. U allaqachon kiyikday sakrab turib ketgan. Pastda kim bilandir gaplashib o'tiribdi. Ularning suhbatini qulog'imga kirdi.

— Ha, ha, dadamni juda yaxshi ko'raman degin. Oyingni-chi?

— Oyimni ham. Dadamning ikkita ordeni, beshta medallari bor.

— Demak, dadam qahramon, degin.

— Ha! — dedi Qudrat mag'rurlanib. Uning astoydil faxrlanayotgani tovu-shidan sezilib turardi. Men bola bilan bunday samimiy suhbatlashayotgan kishining kimligiga qiziqib, qaradim. Yigirma ikki-yigirma uch yoshlardagi bir rus yigiti. Oddiygina kiyingan, ko'kragida Mehnat Qizil Bayroq ordeni yarqirab turibdi. U uyg'onganimni ko'rib, men bilan salomlashdi.

— Mana, biz yigitcha bilan otam-lashib o'tiribmiz, — deb kuldi. Lekin bu

kulgi darrov o'ychanlik bilan almashib mening yuzimga tikilib qoldi. Tashqari chiqib yuvinib kupega kirar ekanman, xuddi shunday tikilish bilan qarshi oldi. Nonushtaga o'tirdik. Men u yigitni ham taklif etdim. U tortinmay yonimizga kelib o'tirdi. Lekin xayolida allaqanday o'ylar bordek ko'rinar, o'qtin-o'qtin yuzimga qarab qo'yardi. Nonushta oxir bo'lgach, birdan:

— Biz tanish bo'lishimiz kerak, qo'shni, — dedi ishonch bilan.

— Ehtimol, — dedim.

— Ehtimol emas, bu aniq.

— Qaerda ishlaysiz? — dedim men.

— Ishdan emas. U mahalda men hali mana shu yigitchadek (u Quadratni ko'rsatdi) shirin yoshda edim. Siz esa mening hozirgi yoshimda edingiz.

Mening xayolimga urush yillari keldi. Darrov esladim.

— Sizning nomingiz Sasha emasmi? — dedim uni sinchiklab kuzatib.

— Xuddi shunday, o'rtoq kapitan, — dedi va Quadratni asta bir chetga surib menga tashlandi, qo'l siqib ko'rishdi. Hayajoni bir olam edi.

— Tasodifni qarang-a, — der edi Sasha hayajon to'liqida qalqib, — kelib-kelib, poezdga uchrashibmiz-a.

— Axir, o‘shanda albatta ko‘rishamiz demovdimmi, esingizda bormi?

— Bor, bor. Men sizni ko‘p eslardim.

Ikkimiz urush yillarini eslashib ketdik. Qudrat hech narsa tushunmay ag‘rayib turardi. Tafsilotini so‘rashga botinolmasdi. Uning baxtiga poezd katta stansiyaga kelib to‘xtadi. Sasha shamollagani chiqib ketdi. Paytdan foydalangan Qudrat so‘rab qoldi.

— Dada, bu kishi kim? Qaerdan taniysiz?

— Tarixi uzun, o‘g‘lim. Bunga o‘n besh yil bo‘ldi. U vaqtda Sasha yosh bola edi.

— Frontda uchrashganmisizlar? Yosh bolalar ham urushda bo‘lganmi, dada?

— Bo‘lgan, o‘g‘lim, bo‘lgan. Urush ularning sho‘ri edi, o‘g‘lim, endi sira ko‘rsatmasin!

— Sasha aka sizda soldat bo‘lganmi?

— Yo‘q, lekin bir yaxshi soldatchilik ish ko‘rsatgan.

— Qanday qilib? — dedi Qudrat juda qiziqib va og‘zimga tikilib o‘tirib oldi. Qarasam, bo‘lmaydigan, keyin qisqagina qilib aytib berdim.

— Men u vaqtda hali serjant edim. Bir kuni polkimizda majlis bo‘lib qoldi. Majlis oxirida razvedkachilar kursiga

odam tanlay boshladilar. Men xam yozildim. Kursni yaxshi tugatib, polkda razvedkachi bo'lib qoldim. Bir kuni katta bir qishloqni razvedka qilgani ketdik. Qishloq qarshisidagi tepalikda niqoblanib atrofni rosa kuzatardik. Biror narsani sezish mumkin bo'lmadi. Oxiri tavakkal qilib qishloqqa yura boshladik. Qishloq jimjit. Eng chetdagi uyga yetishimizga yuz metrcha qoluvdi hamki, cherdakdan bir narsaning hil-pillaganini ko'rib qoldim. Yaqinroq borib qarasak, yetti-sakkiz yoshlardagi bir bola, hadeb ro'mol silkiyotgan ekan. U "qishloqqa kirmanglar", deb ishora qilardi. Biz darrov tushundik: qishloq bekorga jimjit emas ekan. Lekin qishloqni razvedka qilmasdan qaytishimiz mumkin emas edi. Turli rejalar tuza boshladik. Shu orada qishloq ko'chasida sigir ma'radi. Mundoq qarasak, haligi cherdakda turgan bola haydab kelyapti. Biz o'zimizni chetga oldik. U bo'lsa, hech narsaga parvo qilmay uzun xipchin bilan sigirning sag'riga asta-sekin urib qishloqdan chiqib kelardi. Bizning biqinib yotganimizni ko'rib-ko'rmaslikka solib o'tib ketdi. Soyga qarab burildi. Ko'zdan yo'qoldi. Shunda biz uning ketidan bordik.

— Qishloq to'la gitlerchilar,— dedi u

katta odamlardek salmoqlanib, — asti kira ko'rmang.

— Unday bo'lsa, qishloqqa kirishimiz juda shart ekan, — dedi sherigim, — bilishimiz kerak. Qaerda nima bor?

— Hammasi mana bu qog'ozda yozilgan, — dedi bola va botinkasini yechib, charmi orasidan qog'oz chiqarib, berdi. Chindan ham bu bir varaq qog'ozda dushman tayyorgarligi to'la aks etgan, o't ochish nuqtalari mukammal ko'rsatilgan edi.

— Buni senga kim berdi? — dedim.

— O'zim chizdim, — dedi kulib bola, keyin aytib berdi. Ularning uyida yarador bir ofitser yashirinib yotarkan. Bola bilan tanishib, yana topshiriq berib qaytdik. Ertasiga yana kelishilgan joyda uchrashdik. Lekin qishloqni ozod etganimizda bolani uchratmadik. Surishtirsak, kulga aylangan uy-joyini ko'rsatishdi.

— Gitlerchilar bilib qolgan bo'lsa, qochishgan.

— Topding, o'g'lim. Qochishgan ekan. Mana endi buyog'ini o'zidan so'raymiz.

Shu vaqt poezdning jo'nashi uchun zang urildi, Sasha qo'lida pishgan tovuq bilan kupega kirib keldi. Sashadan so'radik.

— O‘shanda sizlar bilan aloqa bog‘laganimizni gitlerchilar fahmlab qolgan ekanlar, nima qilishni bilmay shoshib qoldik. Lekin yaxshi odamlar bizni yashirishdi, keyinchalik oyim qo‘lga tushdi. Uni osishdi — Sasha chuqur nafas oldi. Mendan bir narsani yashirganday yerga qaradi. So‘ng yana so‘zida davom etdi: — Keyin meni uyimizda yashirinib yotgan ofitser olib ketdi. Hozir ham birgamiz. U bo‘z yerdagi sovxozda direktor o‘rinbosari. Men ham 10-sinfni tugatgach, o‘z istagim bilan bo‘z yerga kelganman. Qo‘riq yerlarni obod qilib yotibmiz.

Sasha Quadratga juda yoqib qolgan edi. To u manziliga yetib, yo‘lda tushib qolmaguncha undan ajralmadi.

1964

YAXSHI NIYATLI KISHI

I

“Aziz dadajonim! Tez-tez xat yozib turganingizdan juda xursandmiz. Hatto qo‘shnilarimiz, “qanday mehribon dadang bor-a!” deb havaslari keladi. Men ham sizni juda sog‘indim. Urush qachon tamom bo‘ladi? Qachon kelasiz? Valyaning dadasi keldi. Bir oyog‘i yo‘q. Lekin yog‘och oyoqda yurgani bilinmaydi. Maktabimizga kelib, urushda ko‘rganlarini gapirib berdi. “Endi biznikilar oldinga ketgani-ketgan. Dushmani o‘z uyasida yakson qilmaguncha qo‘ymaymiz”, deydi. Demak urushning tamom bo‘lishiga ozgina qolibdi-da?

Xatingizda maktabing, o‘qishing qalay debsiz. Dadachi, dada! Maktabimiz ham, qishlog‘imiz ham o‘sha o‘zingiz ko‘rgandek. Faqat maktabimiz eskiga o‘xshab ketdi. Urush boshlanib, siz ketgandan beri hech remont qilingani yo‘q. Qishda ham yaxshi issiq bo‘lmadi. Paltoda o‘tirib o‘qidik. Odam paltoda o‘tirib yozsa, xati chiroyli chiqmas ekan!

Ayam yaxshilar. Ertalab qorong‘ida

ishga ketib, kech g'ira-shirada keladilar. Juda charchab keladilar. Ba'zan "bu qurib ketkur urush qachon adoyi tamom bo'ladi", deb Gitlerni qarg'aydilar. Ayamni ko'rsangiz endi tanimaysiz. Siz olib bergan paltolari ado bo'lib, endi pufaykada yuribdilar. Hozir hamma pufaykada yuradi. Yakshanba kunlari ham ishlashadi. O'zlari aytmasalar ham yuz-ko'zlaridan bilaman: ayam juda charchaydilar. Ishdan keladilaru nari-dan-beri jiz-biz qilib, darrov yotadilar, ko'p gapirmaydilar. Tunov kuni besh kunlik non kartochkamizni yo'qotib qo'yganimizda juda kuyib ketdilar. Yo'q, ishxonada o'rtoqlari yordam berishdi. Ha, aytgandek, katta tog'andan qora xat keldi. Buvim kasal bo'lib yotib qoldilar. Ayam ham ko'p yig'ladi. Qaysi birlariga dalda berishni bilmayman. Ayam "buvingga yomon bo'ldi, o'lib qolmasa go'rga edi", — deydi.

Dadajon! Urush tag'in necha oyda tugaydi? Urush tugashi bilan uyga qayting. Yana boshqa ishingiz chiqib qolmasin. Biz sizni juda-juda sog'inganmiz. Kelayotganingizda albatta telegramma bering, hammamiz chiqib kutib olamiz. Xatda yozgan orden-medallaringizni hammasini taqib keling.

Valyaning dadasi taqib yuribdi, juda yarashadi. Sizga ham juda yarashsa kerak. "Qizingga sovg'a-salom olaman" deb yo'lda tutilib yurmang. Menga hech narsa kerak emas. O'zingiz sog'-salomat kelsangiz bo'ldi. To'g'ri kelavering.

Dadajon! Ayamdan, buvimdan, hammadan ko'pdan-ko'p salom. Bizdan xavotir olmang.

Salom bilan sizni quchoqlab, o'pib qizingiz".

Qizining xati Rakitinning xayolini qishloqqa, u ishlagan sovxozga olib ketdi. Xatiga qaraganda yolg'iz qizi katta bo'lib qolganga o'xshaydi. Axir o'zini ham urush boshlangandan buyon ko'rgani yo'q. Ishqilib omon bo'lsin. Ayasiga ko'makchi bo'lib qoldi. Urush tugasa, omon borsa qizini agronomlikka o'qitadi. Yerda gap ko'p. Yer tilini, ekin-tikin tilini bilish katta gap, sharaflilik kasb. Qizining o'zi ham pishiq, biyrongina. Zehni ham yaxshi. Qulog'iga kirganni ilib qoladi.

Rakitin qizining xatini qo'lida tutganicha o'ylab qoldi. Mana, urush boshidan frontda. Chekinishning og'ir zahmatlarini ham totdi. Mana endi qish bo'yi hujumda bo'lib, bahorga chiqdi.

Dushman hamon chekinib bormoqda. Ozod bo'lgan qishloqlardagi odamning turqi-atvorini ko'rib rahming keladi: xuddi berahm qo'l bilan g'ijimlanib tashlangan yaxshi qog'ozga o'xshaydi. Na kiyim-boshida, na rang-ro'yida bir nur bor. Nainki bularga, umuman xalqqa qiyin bo'ldi. Mana, mitti qizi ham katta odamlardek turmush mashaqqatlari haqida mulohaza yurityapti. Demak bolalar ham vaqtidan avval esini tanib, ulg'ayyapti. Ha, turmush o'zi zo'r maktab. Mana shu sodda Turdiev bilan Misha Gorkunov frontga tushganida qanaqa edi? Odam qalbini bilmagan ba'zi "bilag'on" komandir "shular bilan jangga kirib bo'ladimi?" deb faryod urardi. Endi ko'rsin, naq sichqonni inidan dushmani topib, ta'zirini beradi.

Rakitin bu jang orasidagi sukunatdan foydalanib, qiziga bir yaxshi xat yozmoqchi bo'ldi. Endi planshetiga qog'oz qo'yib, boshlagan edi, shtabga chaqirib, Turdiev kelib qoldi.

— Nima gap, tinchlikmi?

— Frontda tinchlik nima qiladi, o'rtoq komissar. Tinchlik dushman qirilib bitganda bo'ladi.

— To'g'ri, Turdiev, hali dushman tuprog'imizda ekan siz u bizga tinchlik

yo‘q. Nainki o‘zimiz, dushmanga ham tinchlik bermaymiz.

Turdiev yelkasidagi avtomatini to‘g‘rilab qo‘ydi.

— O‘zi ham tinch yotadigan xilidan emas. Qitmir.

Rakitin qiziga javobxati yozishni yig‘ishtirib, Turdiev bilan yo‘lga tushdi.

Shtabda hujum maslahati borardi.

* * *

Bahor o‘z oti bilan bahor. Toshda giyoh undiradi. Kuban bahori ayniqsa ko‘rkam. Kun o‘tmay osmonni tutundek qora bulut qoplab keladi. Osmon yorilgudek gumburlaydi, u ufqdan, bu ufqqa chaqmoq suv ilondek jilpanglaydi. Jala quyib qoladi. Turdievning “bu tomonning osmoni suv tutmas g‘alvirmi, muncha yog‘adi”, deganicha bor. Mard bo‘lsang o‘n minut bardosh berasan, cho‘mltirib yuboradi. Pilotkangni olib siqsang yarim litr suv chiqadi. Hammayoqni halqob bosib ketadi. Kuban limanlari avjlanadi, kengayadi. Qumlar bilq-bilq. Etiklar botmon. Bir haftalab kiyim-bosh qurimaydi. Shunday paytlarda plash-palatkalarning sadag‘asi ketasan kishi! Bir tomchi o‘tqizmaydi! Daraxtlarning qalin va yashil chodiri-

dan dokadek sizib ketadi, go'yo ularni cho'miltiradi. Ertasiga ko'ribsizki, tiniq moviy osmon. Quyosh yonadi. Xarsang toshda giyoh unibdi. Tunlari surmaday yumshoq, quloch daraxtlarning oralari-da, boshlarida yulduzlar chamani yaraqlaydi, viz-viz uchadi, yumshoq yel maysalar qulog'iga sehri ashulalarini kuylaydi. Termilib qarab to'ymaysan, kishi. Uygularing qochadi.

Qism ikki oy ivib limanlarda jang qildi. Dengizga uloqtirib tashlanishidan qo'rqqan dushman ko'ylakdan yoqa, ishtondan lipa qolguncha qarshilik qildi. Necha aholi yashaydigan punktlardan faqat nom-u, bir kaft tuproq qoldi. Nemis o'lgudek alamzada edi. Hujum qilayotgan qismni boshpanasiz qoldirish niyatida tovuq katagigacha buzib, yondirib ketardi. Ishga yaroqli aholini oldiga solib haydar, mudofaa qurishda foydalanar, ko'nmaganlarini yo'l-yo'lakay qirib ketardi. Bu hol jangchilari-mizni battarroq g'azablantirar, ko'zlarini ochar, yanada qasoskorroq qilar edi.

"G" dengizga chiqishda so'nggi stantsiya. Uning baland daraxtidan qarasang, dengiz ko'rinadi. Tong yorishi bilan yo'lga chiqqan kishi, nonushtaga baliq keltiradi. Aholi shamollagan kishi-

ni “dengiz shamoli uribdi” deydi. Bo‘y-dor qamishlar shunda o‘sadi. Har xonada qayiq topiladi. O‘n yashar bolasi yaxshi eshkakchi. Ular shamol tiliga yaxshi tushunishlari va yelkanlar jilovini mahkam tutishlari bilan faxrlanadilar.

Nemis mana shu qishloqqa kelganda mixlanib oldi. Atrofini obdan minalash-tirdi. Mudofaa san‘atini ishga soldi. Tarqatgan mish-mishlariga qaraganda, daraxtga qush qo‘nsa halok bo‘lar-mish-u, qishloqni o‘ragan har qamish ostida bir mina bormish.

Qism tuni bilan o‘z pozitsiyalarini egalladi. Batalon komandiri Nodirov bir-ikki razvedka uyushtirgach, nemis tarqatgan mish-mishning zaminida ozgina bo‘lsa ham haqiqat borligiga iqror bo‘ldi.

Dushman stansiyaga rosa mixlanib olgan edi. Kechasi taq-tuq bilan nima balolar qilib chiqdi. Nodirov binokldan qarab,stanitsada biror kishini ko‘rmadi. Bu jang maydonining mash‘um ko‘rinishi edi.

Qism ikki-uch aviatsiya chaqirdi. Razvedka aniqlagan o‘q nuqtalarini artilleriya dodini berdi. Ammo qismning tushda qilgan hujumi befoyda

chiqdi. Kutilmagan o'q nuqtalari bexosdan ishga tushib, qismni yotishga majbur etdi. Stanitsa xatarining derazalaridan, cherdaklardan, yana allaqayoqlardan o'q yog'ardi. Avvalgi pozitsiyasiga chekingan qism yaxshilab mudofaa qurib oldi.

— Dushman ko'rkalamushdek yer ostida, — dedi polk komandiri mayor Sledov bo'linma komandirlarini yig'ib, — yana bir-ikki marta aviatsiya chaqirishga to'g'ri keladi. Aviatsiya razvedkasi uyushtirilishini ham so'rayman, undan tashqari har batalon o'z terri toriyasida uzluksiz razvedka uyushtirsin, kuzatuvchilar ko'paytirilsin.

Shu kuni orqada qolgan artilleriya yetib keldi. Uzzukun aviatsiyamiz osmondan arimadi. Goh razvedka qildi, goh bomba tashladi. Batalonlar uyushtirgan razvedkalar yangi-yangi xabarlar keltirib turdi. Avtomatchilar rotasi stanitsa orqasiga o'tib, tayinlangan yerda turganini xabar qildi. Stanitsadan qochib o'tgan bir yerli kishi ancha tuzuk ma'lumot berdi. Boshqa stanitsalardan haydab kelingan aholining ko'pligini aytdi, nemislar ulardan foydalanish niyatida ekanini bildirdi.

— Nemislar, dot, dzot va uylar osti-

dagi kovaklarda. Aholini uyoqqa kiritmaydi. Aholi, nemislar bilan og'izburun o'pishgan uch-to'rt ityaloq oqsoqollar qo'lida. Qimir etkizmaydi. Jabr, jabr bo'ldi aholiga. Nemis "biz bilan birga qirilasan" deydi. O'zi dunyodan umid uzgan, — dedi u kishi.

Batalon komissari Rakitin u kishi shtabga jo'natilgach, Nodirovga dedi:

— O'rtoq starshiy leytenant, fritslar kovaklarda bo'lsa, zararni aholi ko'rayotgan bo'ladi. Shuni bir o'ylab ko'rish kerak edi.

— Masalan?

— Biz aholi bilan urishmaymiz. Agar buni jangchilar eshitsa, o'q ham uzishmaydi. Axir pichoq o'z sopini kesadimi?

— Sizcha nima qilish kerak? Otilgan o'qqa "aholiga tegma" deb bo'lmasa. Men ham hayron qoldim.

Uncha uzoq davom etmagan jimlikdan keyin Rakitin dedi:

— Butunlay o'rab, halqalar mustahkamlangandan keyin taslim bo'lishni taklif etish kerak. Ko'nsa ehtimol.

Bu fikrni polk shtabi ham ma'qulladi. Kechasi bilan qurshovni kuchaytirish, butun tayyorgarliklarni ko'rishga qaror qilindi. Ultimatum tekstini tayyorlash Rakitinga topshirildi. U ikki-uch vari-

ant hozirlab, Nodirovga ko'rsatdi. Nodirov ularni o'qib chiqqach:

— Hammasida bir nuqson bor. U yerdagi aholiga bo'lgan shafqatimiz mutlaqo eslanilmasligi kerak. Aks holda nemis "a-ha, nozik joyidan ushlabmiz" deydi-yu, battarroq yopishib oladi, — dedi.

— Bo'lmasa nima deyish kerak?

— To'g'ridan-to'g'ri taslim bo'lishni taklif etavering. Qarshilik ko'rsatish befoyda deng. Vassalom. Urush diplomatiyasi — qurolsiz jang. Bunda ham baliqday silliq, chittakdek chaqqon, burgutdek shijoatkor bo'lish kerak. Shunday yozingki, "xo'p" deganini o'zi ham bilmay qolsin. Yengillik berilishini ko'proq ayting. Hammadan ham "orden, medallarni taqib yurishga ruxsat etiladi" deng. Iloji bo'lsa, o'ljaga tushganlarini ham taqib qo'yishga va'da bering, — kuldi Nodirov, — ha, ular o'lguday savlatparast. Diplomatiyada goho shunaqa qilishga to'g'ri keladi.

— Geringdagini ham olib beraman, deya qolay, axir unda ham qirqtacha bor, — kulgiga kulgi qo'shdi Rakitin.

— Uddasidan chiqsangiz, deng.

Rakitin bilan Nodirov tayyorlagan ultimatumning yangi tekstini polk

shtabi muhokama qildi, diviziya siyosiy bo'limi ma'qulladi.

Endi bitta oq bayroq kerak edi.

— Bunaqa bayroq dushmanda bo'ladi,— deb kuldi polk komissari.

— Shu vaqtda bizga ham kerak bo'lib qoldi-da, bo'lsa ziyon qilmas edi.

— Topib beramiz,— dedi polk komissari va choyshabini shart yirtib, yarmini tutdi,— shu ham yetadi. Oq bayroqni ko'tarish og'ir bo'ladi. Yana qaytib berasiz. Kim boradi?

— Rakitin,— dedi polk komandiri mayor Sledov.

Polk komandiri polk komissari bilan yolg'iz qolgach, dedi:

— Oq bayroq qonga bo'yalib qaytmasa edi. To'ng'iz tabiat dushman parlamentyorlar dahlsizligini hurmat qilarmikin?

* * *

Rakitin erta bilan soqol-mo'ylovini qirib, nonushta qilgach, yoniga ikkita avtomatchini olib yo'lga tushdi. Uzoqdan oq bayroqni salqin va toza havoda ikki-uch marta hilpiratib, dushmanga ma'lum qildilar-da, mudofaani qoq yorib stanitsaga kirib bordilar. Dushmanning o'q uzmay kutib olganidan Nodirov bir

oz o'zini bosdi. Lekin yuragi nima uchundir g'ash, bag'ri huvillayotgandek ko'rinadi. Bayroq g'oyib bo'lguncha, undan ko'zini uzmad. Ular baravar qadam tashlab, ikki jangchi avtomatlari-ni mahkam tutib, hozir o'q uzadigandek bo'lib borardi. Ular ko'zdan g'oyib bo'lganda ham Nodirov o'sha tomonga boqardi. Yolg'iz u emas, hamma jang-chi, shtabdan chiqib polk komandiri, komissariga boqardi. Hammasining qalbida dushman ichiga kirib borgan jangchilarining hayoti haqidagi tash-vish bor edi. Nafaslarini yutib kutishar ekan, allaqayoqdan chiqqan avtomat ovozi entiktirib yubordi. Lekin u boshqa tomonda edi.

Ular uzoq kutishdi. Hamon parlamen-tyorlar qaytmasdi. Stanitsa jimjit. Harakat ham yo'q. Tikka ko'tarilib qol-gan quyosh taptidan yer bug'lanadi, kishi betiga iliq yopishadi. Yomg'irda yerga qapishgan maysalar mag'rur kekkayadi, yelda silkinadi. Anov daraxt-da ikkita qush part-part urishadi. Bir-birini quvlashib stanitsa tomonga uchib ketdi. Nodirov qushlar izidan qarab qoldi. Dengizga tutashgan lojuvard ufq jimirlaydi. Qushlar ham ko'zdan g'oyib bo'ldi.

“Ular-ku, hozir qaytib kelib, yana shu daraxtga qo‘nishar, ehtimol part-part urishar, bir ozdan keyin totuv yashashib, ko‘klam quchog‘ida yayrab ketishar. U yerda ularning dushmani yo‘q. Istasa bemalol yashay beradi. Rakitin-chi? Qaytadimi? Nega muncha kechikib qoldi? Tinchlik bo‘lsin-da! Aholining g‘amini yeb, o‘z boshini dushman sirtmog‘iga tutib bermadimikin? Ajoyib odam, u yerda gunohsiz kishilar borligini eshitdi-yu, tinchligi yo‘qoldi. Ularning taqdiri, hayoti ko‘ziga ko‘rinib ketdi. Go‘yo o‘sha yerda bolachaqasi bor kishidek, hali zamon qirilib ketib, o‘ligi ustidan chiqib borayotgandek tipirchilab qoldi. O‘zi bir umr ko‘rmagan kishilar dardi bilan yondi. Ajoyib odam, sovet kishisi deganda jon fido qilishga tayyor. Ishqilib, omoneson kelsin-da! U ketdi-yu, yuragimga shu vaqtgacha bo‘lmagan qiziq tashvish cho‘kdi. Nega unaqa bo‘ldi ekan. Ishqilib yaxshilikka bo‘lsin-da! Odamlar “kishi o‘z o‘limini oldindan sezadi”, deyishadi yo shu qishloqda so‘nggi marta jang qilarmikanman? Nega g‘alati bo‘lib ketyapman. Nega Rakitinar shu vaqtgacha kelishmadi?”.

Nodirov qo‘l soatiga qaradi. Parla-

mentyorlar ketganiga rosa bir yarim soat bo'libdi. Yana betoqatlandi. Polk shtabiga "endi nima bo'ldi?" degandek qilib telefon qoqdi. Ular ham hayron. Agitator Borisov kirib keldi. Uning ketidan uchinchi rotadan komsorg Yo'ldosh keldi. Ko'zlar bir-biriga tiki-lishib, javob kutishardi.

— Jangchilar qattiq tashvishlanmoqda. Hozir hujum boshlansin, o'rtoq komissarni qutqaramiz. Nemislar tutib qoldi, deyishyapti, — dedi Yo'ldosh.

Nodirov indamadi. Uning yuziga qarab iztirob va tashvish o'qidi. Borisov ham o'zida emas. Nimadir demoqchi bo'lib payt poylardi. Dambadam dastro'molini olib, labini artar, qo'lida ezg'ilar, yana labiga olib borib qolardi. Ko'zlari bir nuqtada to'xtamas, "xo'sh, ayting, komissar qachon keladi?" degandek Nodirovga boqar, goh kelmayotganmikin deb eshikka qarardi. Ba'zan uyoq-buyoqqa yurib qo'yadi. Labida iztirob aralash mayin titroq bor.

— Odatda parlamentyorlar qancha vaqtda qaytadi? — dedi u. Nodirov bu savolni "kechikishmadimi?" deb tushundi:

- Kechikishdi, — deb javob qaytardi.
- Aslida shu ishning keragi yo'q

edi. Aholini biror yo'l bilan qochishga imo-ishora qilish kerak edi. Ular qaytishmasa nima bo'ladi!

Nodirov komissar va ikki jangchining qaytmasligidan xavfsiragan ekan-u, qaytmay qolishsa nima bo'lishini o'ylab ko'rmagan ekan. Borisovning bu savoli "endi kelmaydi" degandek eshitildi. Unga yalt etib qaradi, qaradi-yu, nima javob berishini bilmay, o'ylanib qoldi. Chindan ham ular qaytmasa nima bo'ladi? Nima iloj bor? Yolg'iz jang qilish. Parlamentyorlarsiz ham bari bir to'qnashuv bo'lardi. Qishloqdagi gunohsiz aholi yoniga yana uch kishi qo'shildi. Bordi-yu, jang bo'lsa (bu albatta bo'ladigan ko'rinadi) qishloqqa kirilguncha ular tirik bo'larmikin?

Vaqt tushga yetganda butun qism tashvishlana boshladi. Rakitinlar hamon yo'q edi. Kutish endi ortiqcha edi. Qism komandiri hujum uchun buyruq berdi, boshlab zambaraklar halqumini ko'tardi.

* * *

Butun qism parlamentyorlar hayoti haqida tashvishlanib, polk komandiri, komissari shtab og'zida, Nodirov o'z yerto'lasini bo'sag'asida stanitsadan ko'-

zini uzmay turishganda Rakitin qurolsizlantirilib, fashist ofitseri oldida so'roqda edi.

Gitlerchilar nayrang qildi. Parlamentyorlarni odatiy qoida bo'yicha kutib olib, javob uchun, maslahatlashmoqlari zarurligini aytishdi. Bir ozdan keyin bir ofitser chiqib uzoq kuttirganlari uchun uzr so'radi va:

— Ofitserlarni yig'ish qiyin bo'ldi, hozir javobini aytamiz,— deb o'tib ketdi. Ular hamon ko'chada turardi. Bir ozdan keyin boyagi ofitser chiqib ichkariga taklif qildi. Rakitin rahmat aytdi.

— Aviatsiya hujumi bo'lib qolsa yana tovoningizga qolmaylik, — deb kampirধাননি likillatib kuldi nemis ofitseri.

— Ular bizning bu yerdaligimizni bilishadi. Tashvishlanganingiz uchun rahmat, — dedi Rakitin. Haligi nemis o'zini zo'rlab “mayli, mayli” deb echki ma'rashidek kulib, boya chiqqan tomoniga o'tib ketdi. Shu orada bir necha qishloq kishilari paydo bo'ldi. Ular parlamentyorlarni ko'rib quvongan bo'lishdi-yu, turli savollar bera boshlashdi. Hatto biri ko'z yoshi qilib:

— Bor ekansizlar-ku, kuta-kuta ko'zimiz to'rt bo'ldi. Ko'rgan kunimiz

qursin. Mana bugun bir hafta bo'ldi, ichimizga tuz kirgani yo'q, — dedi. O'zga biri ko'ziga yosh olmasa ham tinmay bidirlardi.

— Ko'zimiz endi ochildi. Sizlarning hozir kelib turishinglar bizni o'ylashinglarni o'zi bir misol. Shu g'amxo'rlik emasmi? Shu yerda nemis haydab kelgan aholi borligini bilgansizlar-da? Bo'lmasa aziz joninglarni garovga qo'yib kelarmidinglar. Mingdan-ming rahmat!

Rakitin bu ikki-uch ayg'oqchining gaplaridan qo'lansa hid kelayotganini payqadi. Endi "nariroq turinglar" deb iltimos qilishga og'iz juftlagan ham ediki, o'ziga tashlangan og'ir gavidani sezdi. Zarb bilan yiqildi. Xuddi shunday, yonidagi jangchilar ham loyga belanib, grajdan formasidagi kishilar bilan olishib yotardi. Rakitin zarb bilan bosib tushgan kishini ustidan ag'darib to'pponchasiga qo'l yuborgan edi, uni qinidan topolmadi. Jangchilarning avtomatlarini haligi ikki "patriot" bir chekkada ishshayib ushlab turardi. Voqeani tushundi. Duch kelganini tepdi, urdi. Qo'tosdek ikki-uch gitlerchi unga tashlanib, uning qo'llarini orqasiga bog'ladi. Avtomatchilarni ham shunday qilib, yonda turgan qo'raga olib

ketishdi. Rakitin keyin ularni ko'rmadi. "Ofitserlarning yig'ilishi qiyin bo'ldi", degan nemis ofitseri allaqayoqdan paydo bo'ldi-yu, "javobimiz shu", deb kampirdahanini serkillatib irjaydi. Uni ushlab turganlarga nimadir imo qildi. Rakitin haligi ikki sotqindan boshqalar grajdan formasidagi nemislar ekanini aniq ko'rdi. Rakitinni bir uyning podvaliga olib tushdilar. Unda ustiga bilakdek sham yoqilgan stol orqasida ko'zlari chuqur-chuqur botgan, yapaloq burun, engagi kichkina, sholg'om bo'yli sapsariq nemis o'tirardi. Rakitinni ko'rishi bilan labiga sigareta qo'ndirib, shamdan tutashtirdi-da, stolni aylanib o'tdi. Sigaretani og'ir so'rib, yuz-ko'zini tutunga ko'mdi va so'l qoshini asabiy uchirib dedi:

— Ultimatumingizni oldik. Qachon taslim bo'laylik, janob komandir, xa-xa-xa. Hammamizni yolg'iz o'zingiz olib ketasizmi, yana kelishadimi? Xa-xa-xa!

Rakitin indamadi. O'zini qo'lga olib dedi:

— Ultimatumni qabul qilasizmi, yo'qmi, u sizning ishingiz. Ammo meni qo'yib yuborishga majbursiz. Parlameniyor diplomatdek dahlsiz! Bu xalqaro qonun.

— Dahlsiz... Xalqaro qonun... Kim qo'l qo'ygan u qonunga! Ulug' Fyurer-ning imzosi bormi? Unda meniki yo'qdir! Xo-xo-xo, xalqaro qonunni biz diktovka etamiz, biz. Ana u muqaddas bo'ladi, uni barcha davlatlar bajaradi.

Nemis ofitseri o'zi gapirib, o'zi qahqah solib kular, unga xushomad yuzasidan boshqalar iljayishardi. Ofitser allanimalar gapirdi. Kekkaydi, mag'rurlandi. Rakitin bu o'zi xandon ofitser bilan gaplashmoqni ortiqcha hisoblab churq etmadi. Savollariga ham javob qaytarmadi. O'zini juda og'ir tutdi, basharasini ham o'zgartirmadi. O'qtin-o'qtin "shu ham gap bo'libdimi" degandek masxaralab iljaydi. Unga sari nemis kufir bo'lar, stolga urar, burab-burab savol berardi.

— Men sizga so'roq berish uchun emas, javob olish uchun kelganman. Urinishingiz bekor. Meni qo'yib yuboring, — dedi Rakitin. Ofitser tutoqdi. Do'q qildi. Rakitinning dahanidan ushlab, basharasiga qaradi. Rakitin ham ko'zlarini uning so'nik, betoqat ko'zlariga qadadi. O'z maqsadiga erisholmagan ofitser qizishib, musht ko'tardi, ammo urmadi. Pildillab kelib, stoli orqasiga o'tdi-da, nimanidir timirskila-

di, yana buyoqqa pildillab o'tdi, yana qismga doir ikki-uch savol berdi.

— Siz o'zingizni ortiqcha urintirmang. Qismimizning kuchi haqida hech narsa aytmayman. U hozir o'zini ko'rsatadi, sinaysiz. Meni ushlab o'tirishingizning o'rni yo'q,— dedi Rakitin salmoqlab, xotirjamlik bilan. Ofitser yana o'zini qo'ygani joy topolmay qoldi. U betoqatlangan sari, Rakitin o'zini og'ir tutar, ba'zan masxaralabgina qo'yardi.

Rakitinni boshqa bir podvalga olib tushdilar. Bu yerdan zax va mog'or hidi kelardi. Uning kiyimlarini badanidan yirtib oldilar, yalang'och tashlab ketdilar. Sal o'tgach, yana qaytib kirib, uning ustidan chelak-chelak suv quyib, o'sha suvlar yig'ilgan chuqurga tushirdilar-da, ikki qo'lini ikki qoziqqa bog'lab qo'ydilar. Tashqariga chiqib uzoq quloq soldilar, hech qanday tovush eshitmagach, kirib xabar oldilar. Komissar churq etmay, tishini-tishiga qo'yib turardi. Shu payt tashqaridan portlash eshitildi. Dushmanlar yugurganicha chiqib ketib, birozdan keyin yana qaytib kirdilar. "Hali ham tirikmisan" degandek unga engashib qarab, bir-biriga tikilishdi-da, "kaput" deb podvaldan

chiqishdi, og'ir, zalvorli eshikka gulf solishdi. Boshqa qaytib kirishmadi. Tashqarida otishma borgan sari kuchayib borardi, goho podval zilzilaga keldi. Rakitin badanini muz kesib borardi. U, o'limga qarshiliksiz taslim bo'lishni jinoyat bildi. Bor kuchi bilan chuqurdan chiqishga urindi. Oyoqlarini harakatga keltirib, kesak bo'la boshlagan badaniga qon yurgizdi. Ba'zan suv chayqalib og'ziga kirib ketar, qalqitardi. Qo'llari qotib qolgan ekan, ancha mahalgacha hech narsa sezmedi, bora-bora ularda ham sezgi paydo bo'ldi.

Tashqarida portlash kuchayib, podval kuchliroq zilzilaga kelgan sari o'zida qandaydir kuch sezar, o'lim dahshati yiroq ketayotgandek bo'lardi. Fashistlarga ajal keltiruvchi bu portlashlarda u najot va hayot ko'rardi. Uning ishq bilan daqiqalarning o'limni yaqinlashtiruvchi sovug'ini sezmas, uning ishq bilan umidvor ko'zlarini eshikka tikib, mag'rur boqar, uning ishq bilan billurday toza vijdoni erkin edi.

Ammo muzday suv o'z ishini qilmoqda edi.

Gitlerchilar Rakitinning ustidan qulflab, “kaput” deb chiqib ketganda, Nodirov bataloni bilan xujum chizig‘iga kelib, komanda kutmoqda edi. U artilleriya tayyorgarligini qanaqa qilib o‘tganini bilmadi. Har bir snaryad Rakitinning boshida yorilayotgandek yuragi “shig‘-shig‘“ etardi. Aviatsiya-miz bombardimon qilganda-ku, bir yerda o‘tirolmay qoldi. Qulog‘i ostida Rakitin “menga ehtiyot bo‘ling, men bunda, sal nariroq tashlang”, deyayotgandek bo‘ladi. Uni halok bo‘lganiga sira ishonmaydi. To‘g‘risi, uning o‘lishi mumkinmasdek ko‘rinadi. Nodirovning buyruqlarini rotalarga yetkizib turgan Bondar ikki-uch marta:

— Komissar kelmadi-ya?— deb o‘ksib qo‘ydi. Har gal rotalardagi jangchilarning komissar to‘g‘risida achinib aytgan so‘zlarini topib keladi. Nodirov undan battar siqilib ketadi. Shundoq ham bir qanoti yo‘qday. Rakitinga o‘rganib qolganini, unga ko‘p orqa qilishini endi payqadi. Unga ancha suyanib qolgan ekan.

— Komissar tirikdir-a, o‘rtoq starshiy leytenant? Uni o‘ldirishga haqlari yo‘q, shundaymasmi? Axir u parlamentyor bo‘lib borgan-ku,— dedi bir gal Bondar.

U yuragida bo'lgan dardni ochiq aytolmas yoki boshiga kelgan o'ylarning haqiqat bo'lishiga o'zini ishontirolmas, faqat Nodirov tasdiqlasa yo rad etsa — shu to'g'ri, xuddi shunday bo'lishi kerakday his etardi. Shu bilan o'zini mud-hish o'ylardan ozod sezardi. Shuning uchun bot-bot savol berardi.

Artilleriya stanitsa oldini bir sidra o'qdan o'tkazib, ichkarilikka ota bosh-ladi. Bu qismlarning atakasi uchun ishora edi. Yo'q, qismlarimiz atakaga ko'chguncha bo'lmay, nemislar qarshi xujumga qimirlab qoldi. Nodirov ba-taloni bilan stanitsaning shundoq og'zi-da yotar, faqat bir hamla kifoya edi. Bir mahal qaysi ko'z bilan ko'rsinki, uzun, keng ko'cha bo'ylab qo'llarini ko'targan qishloq aholisi kelyapti. Narigi tomonga boqib yana shunday-larni ko'rdi. Erkak-ayol aralash, bola-lar ham bor. Ular orqasida nemis avtomatchilari borligiga shubha qilma-di. Nemisning bunday nayranglar ish-latganini ko'p eshitgan edi. Lekin shoshib qoldi. Nima qilish kerak? Xuddi shunday savol bilan rotalardan odam keldi.

— Yo'ldosh, polkka telefon qiling. Nima qilish kerak? Tezda!

— Xo‘p bo‘ladi,— dedi. Yo‘ldosh ham shoshib qolgan edi. Qanday qilib o‘z kishilaringni ko‘ra turib o‘q uzasan. Jangchilarning ko‘zi bir komandirda, bir yiqila-qo‘pa kelayotgan aholida edi. Aholining qiychuvi bemalol eshitilib turardi. Ulardan kimningdir “orqamizda nemislar” degan tovushi eshitildi. Nodirov bu tovushni aniq eshitdi. Ammo na chora? O‘qning aqli yo‘qki, o‘zimiznikilarga tegmay dushmanga qadalsa.

Polkdan hamon javob yo‘q. Aholi hamon bostirib kelardi. Endi ularning aft-basharalarini, kiyim-boshlarini ajratish mumkin. Mana, bir kampir munkilab kelmoqda, yonida choli ham bor. Undan nariroqda bola yetaklagan xotin.

Nodirovning nafasi og‘ziga tiqildi:

— Javob bormi?!

— Telefon simi uzilgan ko‘rinadi, — javob berdi Yo‘ldosh.

Nodirov “E-h” deb telefonga tashlandi: “allo, allo!” Telefonistga o‘shshayib qarab, joyiga ketdi. Nima qilish kerak? Boshida shu savol edi. O‘t ochsa, albat-ta aholi qiriladi. Bu jinoyat. Ochmasa, dushman kelib qoldi, batalon o‘t ostida qoladi. Boshida bir fikr tug‘ildi-yu, Bondarning qo‘lidagi avtomatni sapchib

oldi. Tarillatib aholi ustidan oshirib o'q sochdi. Yana nariroqda kimdir xuddi shunday qildi, boshqa birov qo'shildi. Aholi tappa-tappa o'zini yerga otdi. Ba'zilari oldinga qarab yugurdi. Ular ichidan kimdir "otavering-otavering" deb orqa tomondagi nemislarni ko'rsatardi. Aholi yotishi va tarqalishi bilan nemis avtomatchilari o't ochishdi. Nodirov batalonning butun o't ochish kuchlarini ularga qaratdi va ketma-ket batalonni jangga ko'tardi:

— Vatan uchun!

Unga jangchilardan kimdir qo'shimcha qildi:

— Komissar uchun!

* * *

Nodirov aholi ustidan oshirib o'q uzgan vaqtda komissar Rakitin ne-ne mashaqqatlar bilan suv to'ldirilgan chuqurdan chiqib, hushsiz yotardi. U chuqurdan chiqdi-yu, oyoq ustida turolmadi. Kesak bo'lib qolgan edi. Badani mo'mataloq bo'lib ketgan, tishlar qirsilaydi. Fikrida mujmal, anglab bo'lmaydigan o'ylar ini buzilgan aridek g'uvillashar, quloqlari allaqanday tovushlarni eshitayotgandek bo'ladi. Ko'zlarini ochishga jur'at etadi, ammo qurbi yet-

maydi, qulog'iga chalg'iyotgan tovushlarni aniqroq eshitishga urinadi-yu, yana allaqanday vahima o'ylar chalg'itib yuboradi. Badanining titrayotganini fahmlaydi. O'zini qo'lga olishga, idrok bilan ish tutishga jazm etadi. Lekin a'zoyi badani o'z ixtiyorida emasligi xalaqit berardi. Yana hushini yo'qotdi.

Yana o'ziga keldi. Ko'z oldida bit-tayu bitta qizi paydo bo'ldi. U yana xat yozyapti. Kechagi xatidagidek, urushning qachon tugashini so'rayapti, qachon kelishini so'rayapti. Uning tepasiga kelib, xatiga ko'z tashlagan ayasi: "Tentak qizim, urush tugasa dadangning o'zi ham qanot chiqarib uchib keladi", deb qizini ipak sochlarini silaydi. Birdan bular ikkalasi g'oyib bo'lib, o'rnida bundan bir necha yillar avval vafot etgan onasi paydo bo'ldi. U o'g'liga keng bag'rini ochib turibdi. Bar-moqlarining tirnog'i juda o'sib ketgan-mish. Lekin u kulib emas, xo'mrayib turibdi. Birdan u ham qora tuman ichida erib ketgandek ko'zdan yo'qoldi. Issiq pech ko'rindi. Temiri qizarib ketgan-mish. Shuncha qo'lini tutadi, badaniga issiq o'tmaydi, aksincha pechdan sovuq yel betiga uradi. "Bu qanday

bo'ldi: qaynoq pech bo'lsa-yu, kishini isitmasa, deb o'kinib turganida yana chalg'ib ketdi. Hushini yo'qotdi.

Eshik qulfi sharaqladi. Yana jimlik cho'kdi. Kim u? Najotkormi, jallod? Shu yaqinda nimadir portladi, nimadir shuvillab to'kildi. Eshik orqasida yana kimdir paydo bo'ldi. Qulf va eshik zulfini sharaqladi. Eshik g'irchillab, qulfga zarb bilan urilgan tovush aniq eshitildi. Tez-tez ikki-uch marta takror bo'ldi.

Rakitinning fikri sal tiniqlashdi. Quloq soldi, chindan ham kimdir eshik qulfini buzardi. Qalbi gursillab urdi, ko'zlari beixtiyor keng ochildi, kulgichi chuqur botdi. O'zida qandaydir kuch paydo bo'lganini sezdi, bir zarb bilan turmoqchi, jilla bo'lmasa kiruvchining qarshisiga turib o'tirmoqchi bo'ldi. Sevinch yoshlari duv to'kildi. Lekin urinishi bekor ketdi. Faqat qorniga ag'darila oldi, xolos. Shu choq tashqaridan Rakitinga begona tilda chug'ullash eshitildi. Ustma-ust o'q uzildi. Eshik orqasidagi harakat tingan edi. Rakitin tashqarida hali nemislar hukmron ekanini ularning tovushidan ajratdi. Yana bo'shashdi, ko'z oldi tumanlashdi. Hushidan ketdi. Bir ozdan keyin yana

o'ziga kelib, yana eshikka quloq soldi. Jimjit. Ko'chadagi tovush ham tingan. "Eshik qulfini buzmoqchi bo'lgan kim ekan, bu yerda hali nemislar-ku", degan o'y o'tdi fikridan. Daqiqa sari darmondan ketayotganini fahmladi. "Yoki nemislarmidi? Nega ular qulf buzadi? Balki kalitini yo'qotgan, buzib kirib men bilan hisob-kitob qilmoqchi bo'lgandir. Yoki mening qulog'imga shunday eshitildimi? Birov bo'lsa nega shu vaqtgacha kirmadi? Ancha bo'ldi, shekilli! Albatta nemislar, biznikilar bo'lsa bunaqa taraddudlanib o'tirmas edi", — shu o'ylardan keyin Rakitin yana ma'yuslandi. Endi o'lajagini, o'z kishilarini, yolg'iz qizi va xotinini qayta ko'rolmasligini qandaydir ichki kuch tasdiqlayotgandek bo'ldi. Beixtiyor "kishilar, aziz kishilar, men sizni sevardim" deb yubordi. O'z tovushidan o'zi cho'chib ketdi. Ko'z oldini boyagidan quyuq tuman bosib, o'zining zaiflashib borayotganini fahmladi, so'nggi intilish bilan to'shini arang ko'tardi, g'isht orasidan tushgan ganch parchasini olib, podval devorining pastiga qiy-nala-qiy-nala nimalarnidir yozdi. Yozdiyu, o'zining insonlik burchini sharaf bilan o'tagandek og'ir nafas oldi, yengil

tortdi, qo'llari bo'shshib muk tushdi — yana hushidan ketdi.

Eshikda yana odam paydo bo'ldi. Ikki zarb bilan qulfni buzib, podvalga kirdi. Ular ikki kishi edi. Biri sochlari to'zg'ib ketgan, baland bo'yli, o'rta yoshlardagi oriq xotin, ikkinchisi ko'zlari chaqnagan, harakatlari tez va keskin, sherigidek qaddi baland bo'ladi-gan-u, lekin hali o'zini rosa qo'ymagan, keng manglayli, boshyalang 14—16 yoshlardagi yigitcha edi. Ular ona-bola edi.

Birinchi bo'lib podvalga otilgan bola onasiga der edi:

— Mana shu yerda. Jenya xolamning chordag'idan aniq ko'rib turdim. Avval hu anavi kolxoz omboriga olib tushdilar, undan bu yerga keltirib tashlashdi. Nemislarning o'zi chiqib ketdi. Aniq ko'rdim.

Ular keng podvalning eshikdan yorug' tushgan tomoniga qarashdi. Rakitin esa yorug' tushmas burchakda yotardi.

— Hech kim yo'q-ku. Bo'lsa tovushi chiqardi, — dedi ona.

— Yo'q, aniq ko'rdim, shu yerda, — bola qorong'ida ko'zi bilan sharpa izlab, bezovtalanardi, — mana, mana, o'lik.

Rakitin behush edi. Bola uning ko'kragiga quloq qo'ydi.

— Tirik-tirik! Ustidan suv quyishibdi, buni qarang, hammayoq loy. Mutta-hamlar, kiyimini yechib olishibdi.

— Nima qildik endi, — hayratda qoldi xotin. — Olib ketamizmi? Qanaqa qilib olib ketamiz? Hammayoqda hali nemis.

— To'xtang, avval o'ziga keltiramiz. Siz bundoq ushlab turing.

Bola komissarning "Sovuq qotgan" deb badanlarini ishqaladi, shu vaqtda spirt bo'lmaganidan achindi:

— Yuz gramm yetardi!

Tashqaridan gumburlash, otishma tovushlari ochiq eshikdan bemalol eshilib turardi. Shu yaqinda yorilgan snaryad podvalni larzaga keltirdi, allaqaerdan "shuv" etib sho'r tuproq to'kildi, yog'och qirsilladi.

Rakitin bir mahal o'ziga kelib boshini ona tizzasida ko'rdi, ustiga palto yopilgan edi, bola oyoqlarini zo'r berib ishqalardi, Rakitinning ko'z ochganini ko'rgan ona uning peshanasiga sochilgan xo'l sochlarini orqasiga sidirib, ustidan onalarga xos mehribonlik bilan siladi, tekisladi. "Qo'rqmang, qo'rqmang — bu biz" dedi. Ammo o'zining

kimligini aytmadi. Go‘yo shu so‘zdan hamma narsa butunlay ma‘lumday, uning ustidagi paltoning u yoq-bu yog‘ini tuzatdi.

Rakitin minnatdorchilik izhor etgan-dek ma‘yus qarab, asta-asta bosh qimir-latar, lekin gapirishga madori yetmasdi. Ko‘zidan yosh tirqiradi. Bu tashakkur va qaytgan hayotga bo‘lgan muhabbat yoshlari edi.

— Yig‘layapti, — dedi ona va o‘zi ham ko‘ziga yosh oldi, xo‘rligi keldi bechoraning. — Eshikni yop, bolam, birorta kasofati kirib qolmasin. Izg‘i-shib o‘lishyapti.

— Endi olib ketamiz, bu yer xavfli.

Bola shu so‘zni aytdi-yu, o‘rnidan turdi. Eshikka qarab yurdi. Ona eshik-ni yopadi deb o‘ylagan edi, u tashqariga chiqib ketdi. Bir ozdan keyin eski-tuski kiyim-bosh ko‘tarib kirdi.

— Boya kelganimizda yo‘limizni to‘sgan nemis bor-ku, o‘sha ko‘cha-ning narigi betida o‘lib yotibdi.

Ona-bola Rakitinni naridan-beri ki-yintirdilar-da, olib chiqib ketdilar.

Bir necha daqiqadan keyin shoshi-b kirgan ikkita nemis podvalni bo‘sh ko‘-rib, bir-biriga qarab yelka qisib chiqib ketdi.

— Bondar! Qayoqqa yo‘q bo‘lib ketding? — so‘radi Nodirov.

— Komissarni qidirdim, o‘rtoq starshiy leytenant! Mana bu tomonning hammasini qaradim. Tovuq katagi ham qolmadi. Hech qaerda yo‘q. Nemislar yutib yubordimi, nima balo.

— Qidiruv brigadasi qayoqda?

— Stanitsaning narigi tomoniga ketdi.

Qism stanitsaga kirgani bilan ham, nemis bo‘sh kelmadi. Shu kuni kechasi bilan otishma bo‘ldi. Stanitsaning yarmi hamon nemislar qo‘lida edi. Derazalardan, cherdaklardan o‘q uzdilar, kutilmagan yerdan o‘t ochish nuqtasi paydo bo‘lib qolardi. Kun chiqquncha markaziy ko‘chaning u beti nemislarda, bu beti bizning qo‘lda bo‘ldi. Shu ko‘chaning boshida bo‘lgan o‘n yillik maktab binosi ikki bor qo‘ldan-qo‘lga o‘tdi. So‘nggi olishish qiziq bo‘ldi. Tong qorong‘isidan foydalangan Turdiev bo‘linmasi (u shu qishloqqa kirishda halok bo‘lgan serjant o‘rniga tayinlangan edi) bir talay granata va uch-to‘rttadan zapas o‘qdon bilan maktab binosiga o‘tib oldi. Bino ikki qavatli edi. Ikki-uch granata va ketma-ket

uzilgan avtomat o'qidan birinchi qavat koridorini egalladi. Keyin butun birinchi qavatni qo'lga kiritdi. Ikkinchi qavatda hamon nemislar bor edi. Bular chiqolmas, nemislar tusholmas edi. Ammo nemis sinf derazalaridan ko'chadan o'tganlarga, allaqayoqlarga o'q uzardi. Goh-goh bir-birlariga granata irg'itishar yoki avtomatdan o'q yog'dirishardi. Misha Gorkunov tajang bo'lib ketdi:

— Mamad, — dedi u Turdievga, — qo'lni bog'lab qo'ydi-ku, bu zang'arlar, anavilar ham nima qilishini bilishmaydi, qara.

Ulardan boshqa bir bo'linma koridorning narigi boshida reja tuzib, payt poylardi.

— O't qo'yib, zang'arlarni qovurardim-u, bino uvol, — dedi Turdiev.

— Uvollikka-yu, uvol. Nima qilamiz bo'lmasa?

— Eshigida qulf, qayoqqa ketadi. Qishloq qo'limizga o'tgach, shunday muloyim bo'lib, oldingga tushadiki, hayron qolasan.

Stanitsada otishma ham tugadi. Nemislar hamon tushmas, nido ham bermasdi. Mundoq chiqib qarashsa, birorta tirik jon yo'q: o'n beshga yaqin

nemis o'lib yotibdi. Faqat bittasi chala jon. Bir mahal tilga kelib, shuni hikoya qildi. Ular ichida bitta ofitser bo'lgan, stanitsa qo'ldan ketganiga fahmi yetgach, "endi taslim bo'lamiz", deb hammaning qo'lidan qurolini yig'ib olgan. Keyin hammasini otib tashlagan. Oxirida o'zini ham halok etgan.

Ular maktabdan chiqqan zahotlari Bondar bilan kelayotgan Yo'ldoshga to'qnashdilar. Onda-sonda o'q tarsillardi. O't ketgan xonalar hali alanga og'ushida to'lg'anadi. Yaradorlarning ingrashi quloqqa chalinadi. O'liklar sochilib yotibdi. Yo'ldosh Turdievni to'xtatib dedi:

— Rota komandirlaringizga ayting: ko'cha, okop, yerto'la, uylarda sochilib yotgan asbob va qurollarga hech kim tegmasin. Hammasi minalashtirilgan.

— Xo'p bo'ladi o'rtoq shtab boshlig'i! — dedi Turdiev.

— Bondar, sen ikkinchi rotaga xabar ber.

— Xo'p bo'ladi! — yugurganicha ketdi u.

Nemis so'nggi qarshilik vositasi sifatida turli joylarga soat, zajigalka, burgut sopli xanjar, sigaret kabi narsalarni tushirib qoldirgandek qo'yib,

ularni minalashtirgan edi. Qo'l tegishi bilan portlab, undan halok bo'lganlar bor edi. Yo'ldosh hali nemis turgan bir xonaga kirib, devorga solingan chiroyli bir xotinning og'zidan otilgan suratini ko'rdi. Bu "a'lo irq" san'ati bo'lib, chekinish, to'g'risi, taslim bo'lish oldidagi alamzadalik bilan unga o'q uzilgan edi. Boshqa bir xonaga nemis avtomatchilarining oldiga tushib, borishdan bo'yin tovlagan qishloq xalqini qamab, oyoq-qo'llarini bir-biriga chandib, ustidan o't qo'yib ketilgan ekan, ikkinchi rotaning birinchi vzvodi arang qutqarib qoldi.

Mish-mish tarqalganidek, nemis o'z "mudofaa" san'atini butun vahshiyliги bilan shu stanitsada qo'llagan edi...

Stanitsa tushdan keyin uzil-kesil ozod bo'ldi. Tamanga o'tib ketish niyatida chekingan kichik bir guruh nemis dengiz qirg'oqidan tutib kelindi.

— Tong yorishishi bilan komissarni qidirib borsam, — deb gap boshladi Bondar, — urush buyoqda-yu, u yoqda tirr-tirr o'q uchadi. Hayron bo'ldim. Birorta nemis qochib o'tgan ekan-da, deb o'yladim. Bundoq borib qaragam DZOT. Qamishlar bilan qoplab niqoblangan. Tekin o'q, bekorga otib yotibdi.

“Chiq buyoqqa” desam, “eshik minashtirilgan”, deydi. Zang‘arni bitta granata bilan ichida boplab qo‘ya qolay dedim-u, yana kerak bo‘lib qolar” deb, arang chiqarib oldim. So‘qimday bor o‘ziyam. Nuqul kuladi.

Nodirov uni tinglamasdi — xayoli Rakitinda edi.

— Qidiruv brigadasi qayoqda deding?

Bondar, shunday yonib qilgan hikoyasini komandiri tinglamaganidan ajablanmadi, chunki u, atayin Nodirovning xayolini chalg‘itish uchun aytgan edi. Komandiri kechadan beri o‘zida emas. Butun jang davomida ko‘p tajang bo‘ldi. Uning hech bunaqa odati yo‘q edi. Buning hammasi Rakitin tufayli ekanini biladi.

Bondar javobini takrorladi va qo‘shimcha qildi:

— Xuddi o‘sha tomondan topib keli-shadi. Mana meni aytdi dersiz! Bugun tongda nemis shtabini o‘sha yoqqa ko‘chirgan ekan.

— Tirik bo‘lsa, chaqmoqdek yalt etib qolardi.

— Qamashgan podvalni ko‘rdik.

— Qaerda? — Birdan jonlandi Nodirov.

— Hali sizga aytmadimmi? Hu, anav

yerda. Unda hech kim yo‘q, bo‘sh. Qulfi eshigida buzilib yotibdi. Qochgan ko‘rinadi. Shuning uchun biror joydan chiqib qoladi deymanda. Hushdan ketib yotibdimi, kim biladi.

Nodirovning nazarida Rakitin uni o‘sha noma‘lum podvalda kutayotgandek bo‘lib ketdi. Irg‘ib o‘rnidan turdida, shapkasini bostirdi:

— Qani, yur-chi!

Ular podvalni, biror kichkina narsa yo‘qolib, tuproqqa qorishib yotgandek timirskilashdi. Nodirovni suv to‘ldirilgan chuqur va uning ikki yonidagi bir juft qoziq ajablantirdi. Bu nima bo‘ldi? Sham yoqtirib yerni qaradi, qon izi ko‘rinmasdi. Ko‘ngli bir oz tinchidi. Lekin birdan ko‘zi tushib qolgan devordagi yozuv cho‘chitib yubordi.

Chanqoqlik bilan o‘qidi: “Odamlar men sizni jondan sevardim”.

— Uning xati! — sinchiklab qaradi Nodirov, — xuddi o‘zi. U “D”ni shunaqa yozardi.

Endi Nodirovda ikki o‘y tug‘ildi: “Yo qochgan, yo nemislar so‘nggi daqiqalarida olib chiqib ketgan — o‘ldirmoqchi bo‘lsalar shu yerda otib tashlashlari mumkin edi. Ammo qayoqqa olib ketdilar? Qo‘ralarni yaxshilab qarash kerak”.

Shu o‘y bilan tashqariga chiqib, Bondar qidiruv brigadasiga “uyma-uy yurib qaralsin”, degan topshiriq bilan yubordi. Stanitsaning bu tomoniga yana bitta brigada tuzib jo‘natdi.

Birinchi qidiruv brigadasining boshlig‘i Yo‘ldosh, Bondar topshiriq olib borganda, o‘liklar ichidan komissarni qidirardi. U stanitsaning narigi boshigacha chiqdi. Boshqa bo‘linma jangchilaridan surishtirdi. Qo‘ralarga kirdi. Polk shtabiga uchrashdi. Asirlarning so‘ro-g‘ida qatnashgan tarjimon bilan gaplashdi. U bir nemis ofitserining “podvalda edi, qochibdi”, degan javobini aytdi. Yana qidirishga tushdi. Lekin hech qaerda yo‘q edi. Bir qo‘radan chiqayotib Misha Gorkunov bilan Turdievni uchratdi, ular bir oqsoq nemisni oldilariga solib kelmoqda edilar.

— Xo‘sh, buyoqda nima qilib yurib-sizlar? — dedi Yo‘ldosh, chunki batalon stanitsaning narigi boshiga joylashgan edi.

— Komissarni qidirib chiqib edik, mana bu go‘sxo‘r uchrab qoldi. Topolmadinglarmi? — dedi Turdiev.

— Sizlar qaerlarda bo‘ldinglar? — ko‘mak kutgandek so‘radi Yo‘ldosh.

— Mana bunday, stanitsaning boshi-

gacha chiqdik, qamishlar orasida bo'ldik. Qochgan bo'lsa shu yerlarda yotibdimi deb, yo'q.

Qism qorong'i tushguncha parlamentyorlarni qidirdi. Izi topilmadi. Hech kim hech narsa bilmas edi. No-dirov: "O'ldirib, bo'yniga tosh bog'lab suvga tashlab yuborgan bo'lsalar kerak yoki dengiz tomonga chekinganlarida o'zlari bilan olib ketib, otib dengizga tashlaganlar", deb o'yladi.

Yo'q, ertalab Rakitinni kuzatib kelgan bir avtomatchining o'ligini topdilar. U balchiqda yotardi. Yuvishgach, zo'rg'a tanishdi. Undan keyin yana bir avto-matchini bir yerto'ladan chala o'lik topdilar. U o'ziga kelib, qanday qilib qo'lga tushganlarini va komissar bilan qachon ajralishganini aytdi:

— Qo'llarimizni bog'lashlari bilanoq komissarni bizdan ajratib olib ketdilar. Keyin ko'rmadim. Bizni boshqa so'roq qildilar, — dedi.

Yana komissar taqdiri sirligicha qoldi. Faqat tushga borganda bir chol kelib, uch o'lik ko'rganini, shundan bit-tasi notanish kishi ekanini aytdi. U murdani hech kim taniy olmadi. Yuzlari dabdala bo'lib ketgan. Badani mo'mataloq. Yo'ldoshning yodiga bir qishloq-

da hammomda komissar bilan birga yuvingani tushdi. Shunda komissarning o'ng to'shi ostidagi bodomdek xoli diqqatini tortgan, "bunday kishilarni bizda Xoldor deydilar", deb tegishgan edi.

Yo'ldosh odamlarni yorib oldinga o'tdi. Murdaning to'shidan ko'ylagini yirtib, xolni qidirdi. Qaysi ko'zi bilan ko'rsinki, xol bor edi, baqirib yubordi:

— Rakitin! Xuddi o'zill!

* * *

Ona-bola Rakitinni o'z qo'rasiga olib kelgach, issiq suv bilan yuvintirdilar, kiyintirdilar va karavotga yotqizib qo'ydilar. Ular o'z qilmishlaridan juda shod, ko'ngillari tog'. Issiq ovqat ham tayyorlab berdilar.

Bola onasidan so'rardi:

— Tuzalib ketadi-a?

— Ha, bolam, tuzaladi, — deb o'g'lining ko'nglini ko'tarardi ona, — sovuq qotgan, xolos.

Bola bot-bot cherdakka chiqib yoki qo'ra bo'sag'asida turib atrofni kuzatar-di, har yangilikni kirib xabar berardi:

Tip-tinch. Otishma anov tomonda. Hamma nemis o'shoqqa ketyapti.

Bir vaqt nafasi tiqilib kirdi, onasini bir chekkaga imlab, dedi:

— Uchta nemis uyma-uy kirib kelyapti. Xuddi uni qidiryapti. Endi nima qilamiz?

— Nahotki, shu yoqlarga qidirib kelsa! — dedi ona sovuqqonlik bilan, chunki Rakitin yotgan podval stanitsaning sharq tomonida, ular esa janubiy g'arbda edi. Ammo chiqib nazar tashlagach, bu gumonning rostligiga ishonadi. Endi nima qildi? Yashiradigan joy yo'q edi. Ko'p o'ylamay komissarni cherdak ustini yopish uchun keltirib qo'yilgan hovlidagi qamish orasiga ko'rpasi bilan yashirdi. Tintuv beziyon o'tdi. Nemislarni orqasidan kuzatdilar. Rakitinni keltirib joyiga yotqizdilar. Bir mahal yana qo'ra eshigi taqillab qoldi. Ikki nemis dahlizda ko'rindi. Biri boya kelib ketganlar ichida bor edi. Karavotni ko'rsatib, ruschaladi:

— Bu kim?

— Ukam, kasal, janob ofitser.

— Hali yoq edi-ku.

— Hojatxonaga chiqqan edi, — onaning tiliga birdan shu javob kelib qoldi.

— Hujjatini ko'rsating.

— Hammasi oqsoqolda, so'rashingiz mumkin, janob ofitser.

Haqiqatan bundan bir hafta burun nemislar tayinlagan stanitsa oqsoqoli

aholining hujjatini yig'ib olgan edi. Nemis, nima uchundir, yasamaroq qilib yo'taldi-da, malla mo'ylovini silab, xotinga qaradi, keyin karavotga yaqinlashdi. Ko'rpani sal ko'tarib qarab qo'ydi, "kasal"ning ich kiyimda ekani ko'ribmi, har nechuk, yana asliday qilib yopdi, yuziga qaradi:

— Qanaqa kasalsan?

— Ichburug', oyoq bodi ham bor, — javob berdi ona. Rakitin "shunday" deb qo'shimcha qildi.

Ofitser boshqa hech narsa demadi. Bir necha daqiqa dam Rakitinga, dam onaga qaradi-da, chiqib ketdi. Ona ular orqasidan eshikni yopdi-yu, uch barmog'ini g'uch qilib cho'qindi. Bu sevinch uzoqqa cho'zilmadi. Yigirma minutlar chamasi vaqt o'tgach, haligi ikki nemis bir grajdan kiyimidagi kishi bilan uch kishi bo'lib keldi. Rakitin uni ko'rdi-yu, o'zini uyquga soldi. Rakitin parlamentyor bo'lib kelganda nemisdan noligan, "sizlarni kuta-kuta ko'zlarimiz to'rt bo'ldi, bor ekansizlar-ku" deb tulkilik bilan gapga chalg'itib, nemis qo'lga tushirib bergan xoin edi. Ofitser komissarning boshiga keldi, ko'rpasini ko'krigidan sal pastga tushirdi, Rakitin ko'zini ochdi:

— Shumi?

— Shu... Shu... janob ofitser, he-he-he, xuddi o‘zi. Xotirjam bo‘lsinlar, qulbachchangiz adashmaydi. He-he-he. Ko‘zidan taniyman, — o‘ta xushomadgo‘ylik bilan sarg‘ayib ketgan kemtik tishlarini ko‘rsatib kulib dedi xoin.

Rakitin va ona-bolani haydab olib chiqib ketdilar. Avvaliga toza qiynab, keyincha otib tashladilar. Turdiev va Misha uni ko‘rib, grajdan kiyimida bo‘lgani va yuzlari dabdalaligidan tanimay o‘tib ketgan edi.

* * *

Misha Gorkunov otasining vafotidan keyin komissar Rakitinga suyanib qolgan ekan. Buni Rakitinning halokatidan keyin to‘la sezdi. Buning boisi bor edi: ota Gorkunovning o‘rinsiz qurbon bo‘lishi uni bilganlarning qalbini qattiq larzaga soldi, zirqiratdi. Axir u chin ma‘nosi bilan rus jangchisi edi-da! Nodirov uni “ustoz jangchi” deb bekor-ga atamagan edi. U ozmuncha jangchiga otalik qilib, uni jangu jadal, safarda toblamadi! Shaxsan o‘zi ibrat ko‘rsatib ularni tarbiyaladi, ne-ne hujumlarga boshlab kirdi. Maqtanish, kibri-havo, g‘urur nima bilmasdi. U go‘dakdek be-

ozor, dushmanga berahm edi. O'g'li Mishani uchratganda ozmuncha sevin-dimi, naq terisiga sig'may ketdi. Turdievni uning yoniga qo'yib, "o'g'lim ikkita bo'ldi" deb ularni yer-ko'kka ishonmasdi. Chindan ham Turdiev uning o'g'li edi. Usiz nonushta qilgani-ni hech kim ko'rmadi. Jangning eng xavfli daqiqalarida uning yonida bo'lardi. Axir uning mustaqil, yovqur soldat bo'lishida Gorkunovning xizmati oz emas. Buni Turdiev ham biladi. Shuning uchun uning halokatidan keyin o'zini qo'ygani joy topolmay yurdi. Kechalari yotolmay turib ketar-di. Gorkunovning bu olijanob xizmat-lari, albatta, Rakitinga ma'lum edi. O'g'illarning qayg'usi, alami, iztirobi his-to'yg'usi uning ko'z oldida namo-yon edi. Ularning alamini o'rinsiz qur-bon bo'lgani battar yallig'latayotgani ko'rinib turardi. Shuning uchun ham o'sha kundan boshlab bu ikki o'smir o'g'ilni Rakitin qanoti ostiga oldi. Otalik mehri-muhabbati bilan sevdi. Ulardan doim xabardor bo'lib turdi. Kishi boshiga qora kun tushganda do'st mehribonchiligini darrov payqaydi va unga suyanadi. Xuddi shunday Misha bilan Turdiev Rakitinga jonu dili

bilan suyandilar (Zotan unga batalonda kim orqa qilmasdi). Keksa jangchilar uni “pok qalbli inson” deb atashardi. Mana hafta bo‘ladi, bu ajoyib odam ham yo‘q. Misha ertalabdan beri uni eslab, ko‘ngli xira, tuz totimay o‘tiradi. Uni ko‘p eslaganidanmi, bot-bot tushiga kiradi. Shunda yuragi orziqib uyg‘onadi-yu, yig‘lab ham oladi, “yana bir oz uyg‘onmay tursam nima qilar ekan” deb orzu qiladi. Ko‘zlarini yumib, o‘ylab ketadi. Otasi bilan komissar Rakitin bir kishiga o‘xshab ketadi. Birini xotirlasa, biri ko‘z oldiga keladi.

— Birodar, — deydi yonida xomush o‘tirgan Turdievga u, — ajal ham yaxshi odamlarni ketidan quvadimi deyman?

— Nima deding? — Xayol bilan bo‘lib uni tushunmadi, Turdiev. Misha savolini takrorlaydi. U:

— Ehtimol, — deb javob qaytaradi. Yana jimlik cho‘kadi. Tashqarida dengiz betinim chayqaladi, beshik-beshik to‘lqinlar bir-biriga urishib qarsak chaladi. Hovridan tushgan to‘lqin qirg‘oqqa talpinadi, go‘yo bu shovqin-suronlar joniga tekkan-u, qirg‘oqqa chiqib dam olgisi keladi. Bularning hammasi ikki o‘rtoqqa bemalol eshilib turadi.

Chunki ular o'tirgan yerto'la qirg'oq-dan uncha uzoqda emas. Bosh chiqarib qarasang qoramtir, bezovta dengiz yaqqol ko'rinadi. Bir haftaki, batalon shu yerda. Dengizdan dushman tushirishi mumkin bo'lgan desantga qarshi qalqon. Polk G. stanitsasida dushmanni butunlay majaqlab tashlagach, komissar Rakitinni katta tantana-motam bilan stanitsa qarshisidagi maydonga dafn etib, qirg'oq mudofaasiga ko'chdi.

Nodirov stanitsaga, diviziya shtabiga ish bilan chaqirilgan edi. U stanitsa chetidagi bir tegirmon suv oqadigan ariqqa tashlangan ikki cho'pdan darbozlardek chaqqonlik bilan yurib o'tdi. O'tdi-yu, qarshisidagi chechak, maysazorga maftun bo'lib qoldi. Kechagina o'qlar chaqnagan, qon tomgan qirga bahor o'z sepini yoyib tashlagan, har kuni yangi-yangi chechaklar bilan, gullar bilan ziynatlangan. Naqadar ko'rkam!

Nodirov ufqqa ko'z tashladi. Ikki kishi shu chechaklar oralab kelardi. Quchoqlarida bir dastadan chechak. Yaqin kelgach tanidi: Misha Gorkunov bilan Turdiev.

— Xo'sh, saylmi?— deb kuldi Nodirov. Uning ruhi yengil edi.

— Yo‘q, o‘rtoq starshiy leytnant... — Misha Gorkunov kombatning pogoniga yana bitta yulduz qo‘shilganini ko‘rib qoldi va shoshib tuzatdi: — Kapitan.

— “Starshiy kapitan” emas, “kapitan”ning o‘zi, — hazilga oldi Nodirov. Chunki Gorkunov “Starshiy” so‘zidan keyin “leytenant” demay, “kapitan” deb yuborgan edi. Garchand Nodirov buning sababini aniq bilib turgan bo‘lsa ham xursandligidan, ruhining yengilligidan shunday hazil qildi. Uning shu ondagi kayfiyati faqat hazil va o‘yin-kulgiga moyil edi. Uning yuzidagi bu ifodani ko‘rgan Misha jinday bo‘lsin xijolat tortmadi, u komandirini juda yaxshi bilardi.

— Komissarni ziyorat qilib kelay deb ketyapmiz, o‘rtoq kapitan,— dedi Turdiev. Quchoq‘idagi chaman chechaklarni tuzatib.

— Yaxshil! Juda yaxshil!— dedi zavqlanib ketib Nodirov. Bir zum tek qolib, keyin yashnab yotgan chechakzorga sho‘ng‘ib ketdi. Saralab-saralab bir quchoq uzib chiqdi-da, Mishaga tutdi: — Mana buni mening nomimdan qo‘y. O‘zim hozir borolmayman, shtabga chaqirilganman.

Nodirov quchoqlari to‘la rango-rang chechak bilan sevimli komissar qoshiga

ketayotgan ikki do'stning orqasidan uzoq qarab qoldi. Komissar Rakitinning kulgichli yuzi ko'z oldidan o'tdi. "Zap odam edi" deb qo'ydi. Hali batalon stanitsada ekan, agitator Borisovning ikki-uch siyosiy suhbatini shu qabr tepasida o'tqizganini esladi. Undan keyin jangchilarning bu yerni ziyoratgoh qilib olganlari, ularga yerli aholi ergashganini, kimdir atrofiga nihollar o'tkazib ketganini ko'nglidan kechirdi. Stanitsaga anavi bir chaqirilganda, uni ziyorat qilib ketay deb boshiga borsa, uning atrofidagi skameykada nabirasi bilan bir kampir o'tiribdi. Jingalak sochli, ko'zlari ko'm-ko'k qizcha qabrni ko'rsatib, buvisidan so'radi:

— Bu nima, buvi?

— Qabr.

— Kimniki, senikimi?

— Yo'q, bolam, katta odamniki.

— U odam sendan ham kattami? — qizchanning tasavvurida buvisi juda katta, undan katta kishi yo'qqa o'xshardi, — sochlari senikidan ham oppoqmidi?

— Yoshi-ku kattamas, ishi, aqli katta edi. Seni, meni juda yaxshi ko'rardi.

— Meni ko'rganmi? O'ynatganmi?

— Seni o'ynatmoqchi edi-yu, bo'l-madi.

— Fashistlar o‘ldirib qo‘ydimi?

— Ha.

Qizchanning so‘rog‘i ado bo‘lmasdi, buvisi ham javob berishdan zerikmasdi.

Nodirov shularni esladi-yu, bevaqt qurbon bo‘lgan komissar do‘stiga yana joni achib ketdi.

II

Nodirov batalonida serjant Asiryanni hamma yaxshi shaxmatchi sifatida tanir edi. Hatto u qishda, brigada dam olgani chiqqanda yetti taxtada seans bergan. Bittasini durang qilib, oltitasini yutgan. Shundan beri laqabi “champion”. Birov nomini unutilib qo‘ysa, shaxmatchiligini aytib, suhbatdoshiga tanitadi.

Ana shu Asiryani kechagi jangda dovrug‘ chiqardi. Kutmaganda tankka otadigan qurol bilan dushmanning bitta samolyotini urib tushirdi. Tag‘in qanday paytda deng, ayni jang qizib turganda!

Buni front gazetasiga ham yozishdi. Qismga kelgan general Nodirovga:

— Menga merganni ko‘rsating! — deb qoldi.

Nodirov serjant Asiryani yerto‘lasiga

yo'l boshladi. Asiryan bir soldat bilan shaxmat o'ynab o'tirardi. Unga oldindan ikki piyoda, bir ot berib qo'yganini hazillashib pesh qilardi. Ular kirishi bilan sapchib o'rnidan turdi-da, raport berish uchun tik qotdi. Lekin general "kerak emas" deb qo'l silkib, dedi:

— Barakalla, serjant! Bu chin jangchining ishi. Qanday qilib, shu qurol bilan samolyotga otish yodingizga keldi. Bu juda g'ayritabiiy-ku?

Serjant Asiryan yana ham qomatini tortib, o'ziga oro berib, "smirno!" holatida javob berishga og'iz juftlar ekan, general "bemalol o'tirib gapiravering, mana biz ham o'tiramiz", deb yerto'la chetiga qo'yilgan skameykaga o'tirdi. Boshqalar ham o'rinlashishdi. Lekin soldatlar ham, serjant Asiryan ham general oldida o'tirishni o'zlariga ep ko'rishmas, beodoblik qilib qo'yayotgandek birbirlariga qarashardi. Boshqa iloj bo'lmagach, nihoyat omonatgina o'tirishdi. General "xo'sh?" degandek unga ko'z tashladi.

— Otmasdim, o'rtoq general, bu haqda buyruq ham yo'q edi. Lekin mundoq qaragam, bizni juda mensimay qo'ydi. Yuzingda ko'zing bormi demaydi. Buyoqdan sho'ng'ib, uyoqdan bemalol,

behadik jilpanglab chiqadi. Go'yo osmon o'ziniki! Turdim, turdim, qonim qaynab ketdi.

— Ha, armanlarning qoni qiziqroq bo'ladi,— kulib luqma tashladi general. Asiryan, “judayammas, nafrati qo'zg'a-ganda kimning qoni qizimaydi”, degan-day ko'zidagina jilmayib, o'sha voqea hozir bo'layotgandek qoshlarini chimirib oldi, yuziga nisbatan katta, hali yurmagan go'dakning tovonidek ser-go'sht, to'mtoq burnini kerib, davom etdi:

— Bo'linmamizning yarmi DZOTda edi, pulemyotda. Bir bomba tashlab, hovuzday o'pirib ketdi. Ko'rgandirsiz, shundoq qirg'oqning yonida. Shundan keyin qanaqa qilib, qurolni olib chiqib okop chetiga qo'yib otganimni bilmayman. Ko'zimga qon to'lib ketibdi, dir-dir titrayman, keyin yigitlarning aytishiga qaraganda, bo'ralab so'karmishman ham. Bir-ikki otdim, juda orqada qolib ketdi. Shundan keyin “ha, to'xta!” dedimu sho'ng'iydigan tomoni-ni nishonga olib, ancha oldinga qarab o'q uzdim. “Paq” etganini eshitdim. “Est!” degunimcha gurullab yonib ketdi. Keyin bilsam yondiruvchi o'q bilan otgan ekanman. Qizib ketib,

qanaqa o'q bilan otayotganimga ham qaramapman! G'azabing qo'zigandan keyin shunaqa bo'lar ekan, o'rtoq general.

— O'rtoqlarimni sevganimdan deng,— uni tuzatgandek bo'ldi general, lekin Asiryan tushunmadi, baqrayib qoldi. General buni sezib:

— O'rtoqlaringizni nobud qilgandan keyin g'azabingiz qaynab ketgan-da! Kishi quroldosh do'stlarini astoydil sevsasa shunaqa bo'ladi.

Shundan keyin suhbat Asiryanning urushgacha bo'lgan kasbi-kori, qachon frontga tushgani, shaxmatga ishqibozligi, hatto uning baliqdan ajoyib kotletlar tayyorlashi ustida bordi. Asiryan endi o'zini tutib olib, bo'sh kelmadi, generalni tushki ovqatga taklif etdi, baliq kotleti bilan mehmon qilajagini bildirdi. Qanday giyohlar qo'shib totli qilishigacha hamma-hammasini aytib berdi.

— Armanlarning eng ko'p giyoh iste'mol qiladigan xalq ekanini bilamiz. Armanlardan yaxshi ulfatlarim bor, — faxrlangandek dedi general. — Armanistonda bo'lganman. Mana yana bitta armanistonlik sizdek do'st orttirdim.

— Men qizlarlikman, o'rtoq general.

— Ha, Qizlardanmi? Yaqin ekansiz-ku. U yerda kimingiz bor?

Asiryani “Onam...” deb endi gap boshlagan edi, general uni tinglamay, Nodirovga qarab dedi:

— Yaqin ekan, 15 kunga javob bering, uyidagilarni ko‘rib kelsin va soldatlarga aytingki, jangdagi har bir yaxshi tashabbus uchun ordendan tashqari otpuska ham beriladi. — Bu gapi o‘ziga ham yoqib ketdi, shekilli, oppoq, mayda tishlarini ko‘rsatib kuldi, siyrak ajinlaridan tabassum toshdi.

Ular xayrlashib, yerto‘ladan chiqishar ekan, yana general orqasiga burilib:

— Yo‘l-yo‘lakay ordeningizni olib ketishni unutmang, orden bilan borish ko‘ngilliroq, — dedi va yana yuzida mamnunlik barq urdi. Nariroq borgach, sheriklariga dedi:

— Bu ibrat. Tashabbus bulog‘ini ochishga ibrat.

Bu paytda Asiryani yerto‘lasidan quvonch qiy-chuvi pala-partish yangradi. Kimdir “maza qiladigan bo‘lding”, deb allakimni shapatilardi.

* * *

Asiryani uyiga otpuskaga keldi-yu, uchinchi kuniyoq zerikib qoldi. Teng-

dosh, qadrdon o'rtoqlarining hammasi frontda edi. Faqat bittasining o'ng oyog'i sakkiz santimetr qisqa bo'lib qaytibdi. Lekin frontovikka xos ish topib olmay, pivoxonada ishlayotgani uchun bir ko'rishdi-yu, keyin undan qo'lini yuvib qo'ltig'iga urdi. U nuqul daromadi-yu, bitay deb qolgan hashamatli uyini maqtardi, materiallarni qanday g'irrom yo'llar bilan topayotganini aytib mag'rurlanardi, "har qanday qulfga tushadigan kalit — pul, do'stim" derdi.

Asiryan qancha ko'p zeriksa, shuncha ko'p batalonini, undagi jangovar do'stlarini eslaydigan bo'ldi. Bir mahallar, frontdaligida, nimadir bo'lib, unchalik jini sevmagan soldat va serjantlarni ham ko'z oldiga keltirsa, ular bilan yaxshi aloqada bo'lmaganiga ajablana-di, endi ularning nuqsoni yoki biror qo'pol muomalasi shunchaki narsaga o'xshardi. Ular bilan qalin bo'lmaganiga endi o'zini koyiydi, qaytib borishi bilan inoqlashib ketishni ko'nglidan o'tkazadi.

Uchinchi kuni zerikkanidan o'z xonasiga kirib, urushdan ilgari sevimli mashqi bo'lgan haykaltaroshlikda yo'nagan ermaklarini ko'zdan kechirdi.

Kechirdi-yu, bir yorqin fikr miyasidan chaqmoq tezligida o'tdi. Tezda asboblarini olib, ishga boshi bilan sho'ng'ib ketdi. Uni ko'chaga chiqib ketgan, deb pishgan ovqatining ostidan cho'g'ini tortib, o'g'lini poylab o'tirgan ona bir mahal uni "ustaxonasi"da ko'rib: "Sen shu yerdaming, men ko'chadan qidirib, ovqatni sovitib o'tiribman, chiq ovqatga", deb ajablendi. O'g'lining hadeganda chiqavermaganini ko'rgan ona yana kelib: "Hoy, bolam, otpuskaga kelganmisan, ishgami?" deb uni koyib berdi. Asiryan: "Ishga, oyijon, ishga. Sog'inib qolibman" deb kleyonka fartugini yechib, uning qarshisiga yo'l oldi. Ovqatdan keyin yana "ustaxonasi"ga kirib borarkan, ona yo'lini to'sib: "Qo'y endi, ish bo'lsa qochmaydi, frontdan zerikib kelgansan, o'yna, kul, damingni ol", dedi. Asiryan katta burunlarini kerib kulganicha, uning yonidan o'tib ketarkan: "Shu dam olishda, onajon", dedi. Ona "shu ham dam olish bo'libdimi? Yoshsan, joning huzurini bilmaysan", degandek boshini sarak-sarak qilib, qarab qoldi.

Asiryan ishga qanchalik diqqat bermasin rivoj topmadi. Ertasiga kechga borib suratsiz hech narsa chiq-

masligiga to'la tushundi-yu, ishni yig'ishtirib qo'ydi. Bu onaning ko'nglidagiday edi. U "endi o'g'lim o'ynab ketadi" deb o'yladi. Lekin nimadandir Asiryan xafaroq, har kungidan o'ychanroq edi. U o'z xotirasiga ishonib ish boshlagan, bir mahal xuddi shunday bir ishi juda yaxshi chiqqan edi. Bunisi bo'lmadi, uni "o'z materialini" o'sha mahalda sinchiklab ko'zdan kechirmaganidanmi, qahramonning xarakterli chiziqclarini bo'rttirib, o'zi xayolida chizgandek chiqarolmadi. Yoddan chizgan surati ham u aytgan natijani bermadi. Unga fotosurat kerak bo'lib qoldi. Ustaxonasiga kirib, yo'ngan chala byustini avaylab bir chetga olib qo'ydi-da, kerakli asboblarni lattalarga o'radi. Ertasiga yo'l taraddudiga tushdi, u batalonning dengiz qirg'og'idan ketib qolishidan qo'rqardi.

— O'n besh kun demovdingmi, o'g'lim, — dedi ona o'g'lining shoshqaloqligidan o'ksib, — hali ham chittakdek beqo'nimliging qolmabdi-da. Senga "onangni ko'rib kel, mehrini qondir", deb atay generalning o'zi otpuska bersa-yu, sen yarimini o'tga tashlab ketsang, shu yaxshimi? General eshitsa nima deydi?

— Yaxshi qilibdi, jangovar o'rtoqlari-

ni sogʻinib qolibdi deydi. — Asiryan kulgiga oldi, keyin jiddiy davom etdi, — siz kuymang, men albatta yana qaytib kelaman. Oʻshanda sizdan beruxsat hech qayoqqa ketmayman, haydasangiz ham ketmayman.

Asiryan onasi bilan xayrlashib, darvoza yonida boshga tegay-tegay deb chodir boʻlib turgan koʻm-koʻk daraxt uchidagi bargli nozik shoxchasini tirnogʻi bilan “qirt” etib uzib oldi-da, yoʻlga tushdi. Stansiyaga yetguncha uni qoʻlida oʻynab keldi, keyin poezdga chiqish vaqtida nima qilganini bilmay qoldi. Ana shundagina uy-joyi bilan toʻla-toʻkis xayrlashgandek, uyi uzoqda qolgandek boʻldi, koʻngli ezilinqirab ketdi. Lekin sal oʻtmay yangi tashvish koʻnglini chulgʻab oldi. Batalon oʻsha yerda, dengiz qirgʻogʻidamikin? Hali beri hech qayoqqa jilmasmikin? Qani endi yana bir-ikki hafta tursa, jonini jabborga berib, tunlari uxlamasa ham oʻsha moʻljallagan ishini tugatardi.

“G” stansiyasiga kelganda polk shtabidan batalonning oʻz joyida ekani ni eshitib xursand boʻldi, lekin qachongacha boʻlajaklarini hech kimdan bilolmadi, u soʻragan kishilarning hammasi yelka qisardi, baʼzilar “harbiy sir” deb

tegishardi. Asiryan stanitsa maydonidagi Rakitin qabrini ziyorat qilayotib, ko'ngliga kelgan ishdan yanada quvonib ketdi. "Albatta shuni amalga oshirish kerak", deb yubordi u tovush chiqarib. Yonida turgan begona chol "menga gapirdingmi, bolam?" deb unga murojaat etdi. "Yo'q, otaxon, o'zimcha" dedi-yu, qirg'oqqa qarab ketdi. Endi unda yana tashvish tug'ilgandi. Suratni kimdan so'raydi? Nodirovdan so'ragani botinmadi. "Otpuskadan keldim", deb raport bilan atay kirdi-yu, botinmadi. Batalon partorgi, ertalaboq diviziya siyosiy bo'limiga chaqirilgan edi. Mana shu ikkovidan boshqa odamdan so'rashning foydasi yo'q, befoyda, faqat mish-mish ko'payadi. U o'ylab turdi-da, shu doiraga yaqin yuruvchi Misha Gorkunovni eslab qoldi. Misha u o'ylagandek vazmin, tadbirkor yigitlardan edi.

— Misha, — dedi uning yerto'lasiga kirib borib, — bo'shmisan, bir ish chiqib qoldi.

— Marhamat!

Uni tirsagidan olib, vayron DZOTning qoshiga keldi. Betinim to'lqinli dengiz ustida uchib yurgan bir juft chaykani kuzatib turib, birdan gap boshladi:

— Misha, menga komissar Rakitin-

ning surati kerak. Qaerdan topsa bo'ladi, ehtimoldan o'zingda yo'qmi?

— Nimaga? Kattalashtirishgami?

— Yo'q. Boshqa ishga.

— Ochiq ayt, shunga qarab, men bir narsa deyyay.

— Ochig'ini aytsam, Misha, gap shunday, lekin hali ovoza qilmay tur, mening haykaltaroshlikdan bir oz xabarim bor. Shu hunarimdan yana bir foydalanmoqchiman.

— Byustini yo'nmoqchimisan? — ko'zlari charaqlab ketdi Mishaning.

— Shunday, Misha.

— Mana bu ishingni tabriklayman, yerning ostidan bo'lsa ham suratini topib beraman, — dedi Misha haddan tashqari quvonib, Asiryanni do'stona quchoqlab, — mana bu chinakam ish bo'ladi. Shunday ishlaki, Asiryani, uni qanday yaxshi ko'rganimiz, muhabbatimiz, buning sabablari uning yuzko'zida, qarashida mujassam topsin. Ko'rgan kishi "ha, u chin inson bo'lgan ekan" desin. Uni qabri ustiga qo'yamiz, shundaymi?

— Men ham shuni mo'ljallagandim. Agar bu yerdan ketib qolsak siyosiy bo'limga topshiramiz.

— Sen shunday qilki, ketgunimizcha

bitsin. Sag'anasini men ishlab beraman. Undan polk komissariga uchrashaman. U bizga yordamlashadi. Sen amin bo'l, bu ishni boplaymiz. Boshing joyida, Asiryan, bunaqa bosh bilan hech qaerda xor bo'lmaysan. Shu kungacha hech kimning esiga kelmaganini ayt.

— Mening ham esimga to'satdan tushdi! — dedi Asiryan mamnun va qachon, qaerda xayoliga kelganini aytib berdi.

— Otpuskaning ham yarmi nobud bo'ldi, degin. Asiryan, bu ish otpuskani nobud qilishga arziydi, yasha!

Ikki serjant yuklari yengil tortgandek qirg'oqqa o'tirib papiros chekdilar. Holdan toygan to'lqinlar ilondek shipilab, qirg'oqda qum yalardi.

* * *

Komissar Rakitinning suratini topish uncha qiyin bo'lmadi. Uni olishi bilan Asiryan million yillar mobaynida to'lqin yalab, shamol yelpib yotgan qirg'oq metin toshidan ot boshidan kattarog'ini portlatib oldi-da, ishga kirishib ketdi. U shunchalik zavq-shavq va hafsala bilan entikib ishlardiki, ishining bunchalik unumli chiqishidan o'zi ham hayron edi. Yemak-ichmakni

unutib qo‘yardi. U odam ko‘rmas, bir chetga o‘tib ishlar ekan, bir-ikki kun uning o‘zi qorong‘i tushib yerto‘laga qaytmaguncha, ovqat bergani uni izlab topolmay yurdilar. Uning ishi ko‘pchilik uchun sir edi. Asiryan podadan oldin chang chiqarib, duv-duv gap bo‘lishini istamas, bu haqda uni Mishadan eshitib suhbatga chaqirgan Borisovdan iltimos qilgan edi: “Nechuk?” deb u kulganda, Asiryan “shunisi yaxshi, ish unumli bo‘ladi” deb jilmayib qo‘ya qoldi. Borisov “boshqalarning halaqit berishidan qo‘rqadi”, deb rozi bo‘lgan edi.

Lekin Misha Gorkunovning ishi rivoj topmasdi. U kechagina saylangan partorg Borisov bilan maslahatlashib, uning ko‘rsatmasi bilan sag‘anaga g‘isht va sement topish niyatida stanitsaga ketdi. G‘isht-ku, keragicha topilardi, butun boshli maktab, allaqanday pishiq g‘ishtli binolar yer bilan yakson bo‘lib g‘ishti sochilib yotardi: kimdan so‘ramasin 400—500 ta g‘ishtni yo‘q demasdi. Lekin sementni qancha razvedka qilmasin hech qaerda topolmadi. Stanitsa soveti raisiga uchradi. U “bor bo‘lsa jonim bilan berardim. Yo‘q. Borini nemislar mudofaaga ishlatib

yubordilar”, dedi. “Bizga ko‘p emas...” deb gap boshlarkan Gorkunov, rais “bilaman, bilaman”, deb uning so‘zini bo‘ldi va yana bir bor kolxozlardan surishtirib ko‘rajagini aytdi. Undan Misha Gorkunov yana polk komissarining qoshiga keldi. Uning so‘lg‘in va xafaligini ko‘rgan komissar:

— Bo‘lmadimi? — deb so‘radi.

— Yo‘q.

— Nariroqdan surishtirishga to‘g‘ri keladi. Topib beramiz, siz ishga kirisha bering.

Misha shu kuniyoq o‘z bo‘linmasidagi ikkita g‘isht teruvchini yoniga olib g‘ishtlarni unga yopishgan sementdan tozalab, qabr qoshiga tashiy boshladi. Qolganlar shu yerda yer ishlari bilan band bo‘ldilar. Ertasiga ertalab bir kichik qizcha kelib, uni stanitsa sovetining raisi chaqirayotganini aytdi. “Shoyad sement topilgan bo‘lsa, bo‘lmasa nimaga meni chaqirsin” deb yelib bordi. Chindan ham sement topilgan, lekin qo‘shni, besh-olti kilometr masofadagi xutorda ekanini aytdi. Jonsizga jon bormi — Misha darrov tilga kirdi, “adresini bersangiz kifoya” dedi. Shu zahoti yana polk komissari qoshiga yugurdi.

— Xo'sh?

— Yarim soatga mashinangizni berib tursangiz.

Kechqurun uchta safar to'rvasiga solingan sement qabr yonida turardi. Nam o'tmasin deb ostiga taxta tashlab ustiga plash yopilgan edi.

Ertasiga astoydil ish boshlandi. Yordamga Turdiev otdeleniesidan tashqari yana bir necha kishi o'z xohishi bilan otilib chiqdi. Ikkinchi kuniyoq pishiq g'ishtdan mehru muhabbat bilan terilgan, ustiga bir enlik chamasida sement suvoq berilgan, qoq o'rtasida ikki metr chamasi pastdan yuqoriga sal ingichka tortib ketuvchi chorraha sement ustunli sag'ana tayyor bo'lgan edi. Endi ish Asiryanning byustni bitirishiga qolgandi. U ham tunni tun, kunni kun demay qoya toshni cho'qilab yotgan edi. Oy oxiriga borib u tugatdi. Plashpalatkasiga o'rab, kombat Nodirov bilan partorg Borisov suhbatlashib o'tirganda shtabga olib keldi.

— Bitdimi? — dedi Nodirov uning yuzidagi o'zgarishdanoq payqab.

Asiryani indamay byustni stol ustiga qo'ydi; komissar Rakitin faqat o'ziga xos bo'lgan keskin, irodali, chuqur va shu bilan bir vaqtda mehribonona,

samimiy, sadoqat to'la mayin qarash bilan uzoq-uzoqlarga termilib turardi.

— Boplabsan, Asiryan, — dedi Nodirov.

— Juda yaxshi, — dedi Borisov.

Uch kun o'tgach, katta tantana bilan, sag'ana o'rtasidan ko'kka qad ko'targan ikki metrli sement ustun ustiga o'rnatildi.

Tantana ertasiga Nodirov polk suratchisiga qabrning har tomonidan turlicha qilib suratlarini oldirdi va Rakitinning uyiga yubordi.

1970—71

CHANQOQLIK

Besh yashar bolaga qo'yilgan haykalni ko'rganmisiz? Ishonmayapsizmi? Ana, xolos! Rost, chindan. Ishonmasangiz, adresini beraman, borib ko'ring, yoki o'sha maktabga xat yozsangiz javobini olasiz.

G'arbiy Ukrainaning Velikiy Lyubin qishlog'ida Roman degan bola dunyoga kelganda, uning ota-onasi g'ariblikda yashardi. Ilm nuri nima, ma'rifat nima, ishlari ham yo'q edi. Bir amallab kunlari o'tsa, shunga shukur qilib, vaqtlari tirikchilik tashvishidan ortmas-

di. Roman oilaning to'ng'ich farzandi edi. Ota-onasi uni jonidan yaxshi ko'rar, shirin-shakar so'zlarini undan ayamas edi. Turmushi qanchalik uqubatli bo'lmasin otasi kechqurun uyga qaytgach, Romanni tizzasiga olar, ukpardek yumshoq sochlarini silab, bag'riga bosardi. Otalik mehri bilan mag'rurlanib:

— Azamat yigit bo'ladi!— deb qo'yardi. Onaning ham yuragida oftob chiqib, otaning so'zini mamnuniyat bilan ma'qullardi.

Roman juda ziyrak, serharakat, fahmli bola edi. Juda tez tili chiqdi. Uch yoshida qo'lga tushgan kitob yoki jurnallarning suratini benihoya katta qiziqish bilan tomosha qilar, ularga o'zicha hikoyalar to'qib, biyron tili bilan goh onasiga, goh otasiga aytib berardi.

— Bu rassom bo'ladi, — desa dadasi, onasining yuz-ko'zi nurga to'lib:

— Kim bo'lsa ham ilmi bo'lsin. Qora ish, savodsizlik ilohim bizda qolsin, bizing boshimizda qolsin, — derdi.

Ota-onaning ezgu niyatini qalbdan fahmlagandek Roman o'qishga ishqivoz chiqdi. Besh yoshida harf tanidi, she'r-lar yodladi. Kishilarga biyron tili bilan

o'qib berib, olqishlar oldi. Shunda otasi:

— O'g'limiz shoir bo'ladi, — desa yana onasi yuz-ko'zini nurga to'ldirib:

— Qaniydi! Ishqilib ilmli bo'lsin! — deb ko'nglidagini oshkor etardi.


Bu vaqtda Romanning ota-onalari va ularga o'xshagan kishilarning xohishi bilan G'arbiy Ukraina Sharqiy Ukrainaga qo'shilgan, kishilar erkin nafas oladigan bo'lib qolgan edi. Sal muddat ichida qishloqda maktab ochildi. O'quvchilar saf-saf bo'lib Romanlarning eshigi oldidan maktabga o'tishar, qandaydir yangi ashulalarni, u hech qachon eshitmagan yangi quvnoq ashulalarni baralla qo'yib aytishardi. Bu sho'x va qadam tashlashga mos ashulalar Romanga juda yoqar, ba'zilarini eshishi bilan yodlab olar edi. Yolg'iz qoldi deguncha hirgoyi qilardi, zavqlanib baralla aytardi. Bu ashulalar uning yuragiga hayajon solar, ko'zlarini ravshanlashtirib, g'ayratini oshirib yuborar edi. Qani endi tezroq katta bo'lib qolsa-yu, maktabga borsa! Shu bolalarga o'xshab kitoblar qo'ltiqlab, qo'shiqlar aytib yursa. U yetti yoshda maktabga olishini bilardi. Hali ikki yilcha borligidan ota-onasiga ortiqcha tixirlik qil-

mas, balki o'sha kunlarning ilinjida o'zicha harflarni o'rganar, harflarni bir-biriga qo'shib, so'z chiqarar, bu so'zlardan yasalgan jummalarni esa darrov yodlab olardi. Ishdan endi mamnun qaytadigan bo'lib qolgan dadasining qoshiga peshvoz chiqib, biyron tillari bilan takrorlab berardi.

— O'g'limizning zehni o'tkir, — deb ota quvonsa, ona yana yuz-ko'zlarini nurga to'ldirib:

— Ilohim, zehni o'tkir bo'lsin, sen bilan mening savodsiz o'tganim evaziga ham yaxshi bilimdon bo'lsin! — deb erini yana ham xursand etardi.

Roman ana shunday kichik oilaning erkatoyi bo'lib, maktabga borish vaqtini sabrsizlik bilan kutib yurganda "birdan" urush boshlanib qoldi. Roman-ku, bu urush degan dahshatning nimaligini avval tushunmadi, lekin ota-onasining xafaligidan, ularning kech-qurunlari bir og'iz ham so'z qotmasdan bir-biriga xomush termilib o'tirishlaridan urushning bu xonadonga sovuqlik olib kirganini, ota-onalarining ko'ngliga og'ir tosh bo'lib botayotganligini, oxiri yaxshilik bo'lmasligini o'zining bolalik aqli va fahmi bilan idrok etdi. U ham ma'yus ota-onasining qoshida avval-



gidek sho'xlik qilmay, unar-unmasga gap qotavermasdan jim o'tiradigan bo'lib qoldi. Uning qo'liga goh-goh tushib qoladigan kitob yoki jurnal bilan ota-onasining endi ortiqcha ishi ham yo'q. Go'yo ular erta-indin oila boshiga tushadigan katta baxtsizlikni kutayotgandek besaranjom edilar. Bu sukut sekinlik bilan portlaydigan bomba dahshati kutilayotganga o'xshardi. Bir kuni ertalab Roman onasi oldiga qo'ygan teshikkulchani qo'liga olib kursillaydigan bo'lib pishganidan huzur qilib turgan edi, eshikdan dadasining rangi o'chib kirib keldi.

— Tinchlikmi?— dedi erining har qadam tashlashidan uning ko'nglidagi gapni biladigan xotini. Ota ortiqcha kutdirmasdan qisqagina qilib qo'ya qoldi:

— Nemislar!

Bu bir og'iz so'z oila boshida go'yo chaqmoq bo'lib chaqildi. Ota-ona tildan qoldi. Shuncha kun xavotirda kutilgan dahshat ana shu nemisning kelishi ekanini Roman darrov tushundi. Onasining bag'riga beixtiyor tashlandi. Goh onasiga, goh otasiga qo'rqib javdirayotgan ko'zlarini dahshatni kutayotganga o'xshardi. Ular uzoq vaqt bir-birlariga tikiib qolishdi. Onaning Ro-

manga tayyorlayotgan nonushtasi ham esidan chiqdi. Ichilmagan nonushtani shuursiz bir harakat bilan yig'ishtirib oldi. Romanning ishtahasi bo'g'ilganidan onasiga indamadi, aksincha unga ko'maklashdi.

— Endi nima bo'ladi, dada? — dedi Roman.

— Bilmadim, o'g'lim. — Ota bundoq qarasa o'g'lining yuzida ham qon yo'q. U ham qo'rqib ketibdi. Darrov uni yupatdi. — Hech narsa bo'lmaydi, senga hech narsa qilmaydi, o'g'lim, qo'rqma! Bor, kitobingni o'qiyver.

Roman kitobini qo'lga oldi-yu, lekin harflarini ko'zi ko'rmadi, ko'zigina emas, butun xayoli ota-onasida, ularning tashvishiga qo'shilib ketgan edi.

Kunlar o'tdi. Roman nemis-fashistlarning kimligini o'zi yaxshi ko'rgan — yoshi to'lgach borib o'qishga entikib yurgan maktabini yopib qo'yganidan, quvnoq ashulalar aytib ko'chani to'ldirib o'tadigan bolalarning uy-uyiga kirib ketganidan, endi o'sha ashulalarini eshitmasligidan bildi. Agar nemis-fashistlar tuzuk odam bo'lsa, bolalarning maktabini tortib olib, otxona qilib qo'yarmidi. O'sha maktabda o'qituvchilik qilgan anavi mo'ylovli kishini qa-

moqqa olib ketarmidi? Axir, o'sha muallimni hamma bolalar yaxshi ko'rishini hatto o'qimaydigan Roman ham bilardi-da! Romanning salomiga boshidagi kepkasining kozirogidan ushlab, sal yuqori ko'tarib alik olardi. O'sha zahoti yuziga tabassum yoyilardi. O'shanday odamni qamab qo'ydi-ya, fashistlar.

Roman avvaliga bosqinchilardan juda qo'rqib ko'chaga chiqmay qo'ydi. Qolaversa ota-onasi ham:

— Uyda kitobingni o'qiyver! — deb ko'pda ko'chaga chiqishga rozi ham bo'lishmasdi. Lekin nima uchundir uning ba'zi suratli kitoblarini dadasi olib, qayoqqadir yashirib qo'ydi. Roman tixirlik qilgan edi:

— Keyin o'qiysan. Keyin olib bera-man! — dedi-yu, bari bir qaytarib bermadi. Keyin, dadasi chiqib ketgach, onasi muloyimlik bilan uning ko'nglini ko'tardi:

— U kitobdagi so'zlar anavilarga yoqmaydi, — deb tashqariga ishora qildi. Shunda Roman bildiki, so'z qishloqlariga bostirib kirgan, u umrida ko'rmagan allaqanday sovuq harbiy kiyim-boshda yuradigan serjahl, avtomat osib olgan nemislar haqida borardi.

Kitobdagi so'zlarning yoki suratlarining nimasi nemislarga yoqmasligini

Roman aniq tasavvur qilmasa ham, onasi, uni jonidan sevgan, yerga qo'y-sam chang o'tiradi, ko'kka qo'ysam gard yuqadi, deydigan mehribon onasi aytganidan indamay ma'qul topdi. Dadasiga bundan keyin tixirlik qilmadi. Dadasi ham bu haqda hech qachon so'z ochmadi. Roman poezdni yaxshi ko'rardi. Bunga qishloq etagidan temir yo'l o'tishi, undan qudratli parovozning polvonlarga o'xshab pishillab atrofiga bug' sochib hayqirishi sabab edi. Parovozni, shunday katta va salobatli parovozni pisand qilmaganday bemalol choptirib o'tadigan, ba'zan oynasidan boshini chiqarib qarab boradigan mashinistga ichki bir faxr va havas bilan termilib qolardi. Uning nazarida bu odamlar oddiy kishilarga o'xshamas, ularning nimasidir, qaeridir boshqa kishilarnikidan farq qilar edi. Lekin nimasi va qaeri boshqalarnikiga o'xshamasligini esa bilmas edi. Har holda bu mashinistlar har kuni ko'rib yuradigan kishilarga sira ham o'xshamasdi. Bir kuni, hali nemislar qishloqqa kelmasdan avval dadasi:

— Mashinist bo'lasanmi, o'g'lim? — deganda, Roman o'sha zahoti ikkilanmasdan ichidan quvonib:

— Ha, qaniydi! — deb javob qilgan.
Ketidan o'smoqchilagan:

— O'sha mashinistlikka qaerda o'qitadi, dada?

Roman temir yo'l yoqasida dadasi tug'ilgan kuniga olib bergan velosipedini pildiratib bormoqda. Hali zamon parovoz o'tadi. Poezd o'tadigan vaqtni u aniq biladi. Vagonlarning Romanga "sen kimsan, sen kimsan?" deganga o'xshab izlarning uzuq yeriga qoqilib o'tishi allaqanday zavq-shavq bag'ishlaydi, ko'ngilga til bilan aytib bo'lmaydigan g'ulg'ula soladi. Roman rang-barang va uzun vagonlarning eng oxirgisi o'tib, ko'zdan g'oyib bo'lguncha ulardan ko'zini uzmaydi. Oldin uzoqdan parovozning zalvorli guldurashi yerni larzaga solib, Romanning vujudini hayajonga to'ldiradi, keyin uning o'zi pishqirib ko'rinadi, shiddat bilan yelib kelib hech narsani pisand-nazar qilmay o'shqirib o'tib ketadi. Atrofni gulduros shovqin bilan bug' tutadi. Qoramoy hidi anqib ketadi. Undan keyin bir-biriga puxta ulangan rang-barang vagonlar o'tadi. Go'yo ular parovozdan uzilib qolsa, ahvollari nima kechishdan xavotir olib bir-birlarini quvlashayotgandek yelib o'tishadi. Eng oxirgisida kichkina bayroqcha hilpirab turadi. Roman ana

shu bayroqchaga tikilishni yaxshi ko'radi. Poezd o'tib bo'lgandan keyin ham o'sha bayroqchadan ko'zini olmaydi. Poezd uzoqlashgan sari bayroqcha ham kichrayib boradi, oxiri ko'z ilg'amas bo'lib, atrofdagi manzaraga singib ketadi. Faqat eng so'nggi vagonning o'zigina ko'rinadi. Bora-bora u ham g'oyib bo'ladi. Parovozning qudratli qarsillashi — o'shqirishi ham eshitilmaydi, ba'zan esa Roman bilan xayrlashayotganday parovoz o'zi g'oyib bo'lgan bo'lsa ham gudok berib qo'yadi. Buni yo'l yoqasida mahliyo bo'lib kuzatib qolgan Roman o'zicha menga, menga atab qichqiryapti, deb quvonib ketadi.

Shu kunlarda, nemislar qishloqlarini bosib olgandan keyin Roman temir yo'l yoqasiga kam chiqadigan bo'lib qoldi. Bir tomondan ota-onasi qo'ymasa, bir tomondan o'zi ham qo'rqadi. Axir, endi ilgarigi chiroyli poezdlar yo'qda. Nuqul zambarak, tank, brezent ostiga yashiringan allanimalar ortilgan vagonlar o'tadi. Uzun-uzun poezdlar o'tadi. Ulardan kaskasini bostirib kiygan, avtomatini ko'kragiga osib olgan fashistlar ho'mrayib qarashadi. Ba'zilari unga avtomatini to'g'rilab tahdid qiladi. Roman qo'rqib boshini bo'yniga

olsa, qah-qah solib kulishadi, to'g'risi, masxara qilishadi. Ana shundan keyin Roman ham ularni yomon ko'radigan bo'lib qoldi. Bari bir shunda ham temir yo'l yoqasiga chiqish, poezdning o'tishini tomosha qilish xumori tutadi.

Mana bugun ham u dadasi tug'ilgan kuniga olib bergan velosipedini minib uchib boryapti. Hali zamon poezd o'tadi. Ana, parovoz tovushi keldi. U poezd kelayotgan tomonga qarab turibdi. U qaysi bir kitobdan yodlab olgan she'rini beixtiyor o'qidi.

*Uchag'ondir bizning parovoz,
Qarab aslo unga to'yimas ko'z.
Uch parovoz, yo'llar uzra uch,
Uzoq-uzoq ufqlarni quch!*

Romanning ko'zi hamon parovoz nidosi kelayotgan ufqda. Ana yerni larzaga keltirgan gumburlash ketidan parovoz ko'rindi. Yelib kelyapti. Ana, bahaybat parovoz uchib o'tib ketdi. Hammayoqni tutun aralash bug' tutdi. Ana vagonlar boshlandi. Bir, ikki, besh... yetti... o'n bir... yigirma... Roman ularni o'zicha sanay boshladi. Bir fashist unga ko'zini olaytirib ketdi. Boshqa biri burnini qiyshaytirdi. Romanga bu alam qildi. U ham javob qaytardi: ikki barmog'ini boshi ustida

shoxga o'xshatib ko'rsatdi. U qo'lini boshi ustidan olib ulgurgancha yo'q edi, birdan o'q uchdi... Roman yiqildi.

Bu mahalda onasi xamir qorayotgan edi. O'q tovushini eshitib, birdan yuragi orqasiga tortib ketdi. Qo'lining xamiri bilan, oldiga tutgan fartugini olib tashlash ham esidan chiqib, yalangoyoq o'g'li ketgan tomonga — o'q chiqqan tomonga yugurdi. Qora qonga belanib yotgan o'g'lini bag'riga bosdi, faryod soldi. Romanning yuz-ko'zlaridan o'pdi. O'g'il allaqachon olamdan o'tgan edi.

Ona keyingi farzandiga homilador edi. Bu dahshatdan qo'rqib, vaqtdan avval ko'zi yoridi. Bu o'g'lining nomini ham Roman qo'ydi:

— To'ng'ichimning nomi o'chib ketmasin!

Urush tugadi. Nemis-fashistlar surib chiqarildi. Velikiy Lyubin qishlog'iga o'sha tinch hayot, Roman ota-onasi bilan quvnab yashagan, ne-ne orzular og'ushida yashnagan tinch hayot qaytib keldi. Lekin endi Roman yo'q edi. Uning dadasi ham yo'q edi. U frontda halok bo'ldi. O'sha hovlida onasi-yu, uning ukasi ikkinchi Roman yashardi. Kichik Roman o'z ko'zi bilan ko'rmagan akasining yo'lini tutdi. U uchun ham, o'zi uchun ham o'qidi. Dadasi akasidan

olib, yashirib qo‘ygan — “fashistlarga yoqmaydigan” o‘sha kitoblarni onasi unga olib chiqib berdi.

— O‘qi, o‘g‘lim, marhum akang uchun ham o‘qi! Uning umidlari katta edi! — dedi.

Ikkinchi Roman onasining so‘ziga quloq soldi, ilmi-bilimli bo‘ldi. Akasi orzu qilgan parovozni mana endi u vang‘illatib haydab yuribdi. Aka halok bo‘lgan o‘sha temir yo‘l yoqasidan o‘tganda uning xotirasi uchun parovozini qichqirtirib signal beradi, onasi esa, bu tovushni eshitib, ish qilayotgan bo‘lsa ishidan bosh ko‘taradi, yurib ketayotgan bo‘lsa, bir lahza to‘xtab u ham o‘sha to‘ng‘ich o‘g‘lini yodiga oladi. Uning begunoh o‘ldirganlarni ich-ichidan yonib qarg‘aydi. Kichik o‘g‘liga esa, baxt tilaydi, omad tilaydi, yurt-elga tinchlik tilaydi.

— Hech kimning boshiga mening kunim tushmasin! — deydi.

O‘qishga ishqiboz, o‘qish ishtiyoqida kecha-kunduz xayol surgan, besh yoshida o‘qib-yozishni o‘rganib, she‘rlar yodlagan, zehni o‘tkir Romanning izi o‘chib ketgani yo‘q. Uning qobiliyatini va niyatini butun qishloq bilardi. Uning xotirasini abadiylashtirishga qaror qilishdi. Roman yoshi to‘lgach borib

o'qishga ahd qilgan o'sha maktabga haykal qo'yish uchun qishloq yoshlarining tashabbusi bilan mablag' to'plandi. Lvov shahridagi badiiy san'at bilim yurtining talabasi Valeriy Vakulyuk bu sharaflı ishni o'z zimmasiga oldi. Bu uning diplom ishi bo'ldi. Bilim yurtining tajribali muallimlari va ustalari ko'maklashdi:

— Bu haykal, uzoq yillar ilmga chanqoq, savodsiz o'lkaning ma'rifatga intilishini ifodalashi kerak, — dedi ular.

— Men ham xuddi shunday tushunaman, — dedi Valeriy va o'z qoralamasini muhokamaga tashladi. U o'z vazifasini to'g'ri tushungan edi. Vaqtlar kelib Romanning haykali tayyor bo'ldi. Peshonasiga bir tutam sochi sochilib tushgan, katta ko'zlarini keng ochib turgan puchuqroq bir bola ilm-fanga chanqoqligini namoyish qilib, uzoq-uzoqlarga ishonch bilan tikilib turardi.

Bu orada Valeriy Vakulyuk Roman yashagan qishloqqa kelib uning onasi bilan to'yib-to'yib suhbatlashdi, u halok bo'lgan temir yo'l yoqasida xayolga cho'mib uzoq yurdi. Kimlardandir nimalar haqida surishtirdi. Qishloqdagi keksalarni ziyorat qildi, ularni gapga soldi. Ba'zi birlariga esdalik sovg'a qildi. Yana suhbatlashdi, kishilar fikri-

ni so'radi. Qoralamasidagi nuqsonlarni fahmlab yana ishlagani olib ketdi. Bu vaqt kuz edi. Roman o'qimoqchi bo'lgan maktabning sevikli o'qituvchisi Malinovskiy endigina birinchi sinfda dars bera boshlagan paytlar edi. Urushdan endigina chiqilgani uchun maktabda ko'p narsa yetishmas, kitoblar kam, ochin-to'kin yurgan bolalarning o'zlashtirishi qiyin edi.

— Bolalar, — dedi bir kuni Malinovskiy, — bizga yaqinda bir o'quvchi keladi. Uning zehni juda baland. Besh yoshida o'qish, yozishni o'rgangan. Sizlarning bu xilda bo'sh o'qishinglar bo'lsa, u bola bilan qanaqa qilib tenglashasizlar? U bilan qanday qilib bir sinfda o'tirasizlar?

— Bu yerda o'tirganlarning o'sha boladan hech kamchilik yeri yo'q. Shundaymasmi, bolalar?

— Shunday! — dedi avval bir bola, keyin bo'shashibgina boshqa biri qo'shildi. Keyin yana biri, undan keyin, butun sinf bu fikrni ma'qulladi.

— Mana bu boshqa gap! — dedi o'z rejasi bolalar ongiga borib yetganidan mamnun Malinovskiy. — Qani bo'lmasa, darsni boshlaylik.

Bolalarning xayolida o'sha zehni

o'tkir bola bo'lib qoldi. Kunda uni kutishadi.

“Zehnli bolani” kutaverib toqatlari toq bo'lgan va anig'ini bilishga qasd qilgan ba'zi bolalar “qani, sen so'ra, qani, sen so'ra!” deganday bir-birlarini turta boshlashdi, ba'zisi ko'zini qisib ishora qildi. Tajribali Malinovskiy ularning mushkulini oson qildi.

— Bir narsa so'ramoqchimisizlar? Marhamat!

Bolalar yuragini ochdi.

— Keladi, dushanba kuni ertalab keladi! — dedi Malinovskiy va bolalarni tinchitdi.

Dushanba kuni barvaqt maktabga kelib, sinfni yog' tushsa yalagudek qilib, chinniday yaltillatib tozalashdi, bir partaga guldasta ham qo'ydilar. Shu yerda o'za zehni o'tkir bola o'tiradi!

Bir mahal Malinovskiy bilan yoshgina bir yigit sinfga kirib keldi. Bu yigit hech ham birinchi sinfda o'qiydiganga o'xshamasdi. Bolalar yana hayron. Nahotki, zehni baland bola shu soqoli chiqqan, shlyapa kiygan yigit bo'lsa!

Sinf suv quygandek jim. Hamma muallimning og'zini poylaydi. Qani u nima derkin?

— Bolalar, — dedi Malinovskiy, — siz orziqib kutgan zehni o'tkir bola mak-

tabimizga keldi. U hozir shu yerda. Marhamat qilib tanishuvinglar mumkin.

Shu payt Malinovskiy yonida turgan yigit ham “marhamat!” — dedi va oppoq surpga o‘ralgan, haligina qo‘ltig‘ida olib kirgan haykalchani stol ustiga qo‘ydi. Bolalar nafasini ichiga yutib, unga tikilishdi. Stol ustida o‘zlaridan ham yosh bir bola — ko‘zlaridan ilmga bo‘lgan chanqoqlik yog‘ilib turgan bir bola ularga qarab turardi.

— Mana sizlarga aytganim, zehni o‘tkir bola shu! — dedi Malinovskiy va Romanning tarixini bir boshdan batafsil hikoya qilib berdi.

Bahor chiqqach, maktab hovlisiga do‘ng qilib betonlashtirishdi, uning ustiga Romanning haykalini o‘rnatishdi. U maktabga kirgan har bir o‘quvchiga: “Menga o‘qish nasib qilmadi. O‘qishni joni-dilimdan yaxshi ko‘rardim. Mening uchun ham yaxshi o‘qing, odobli bo‘ling, ona-Vatanimizning ilm-bilimli sodiq farzandlari bo‘ling!” deb turganga o‘xshardi.

Dunyoda haykallar ko‘p. Bundan ko‘ra katta chiroylilari ham bor. Lekin besh yashar bolaga qo‘yilgani hech qaerda yo‘q. Bu o‘zi bitta, yolg‘iz bitta — bu o‘qishga chanqoq bolaning ramzi.

1972.

M U N D A R I J A

Hikoyalar

Tezoqar suv	3
Qodir ota	9
“Otagga rahmat!”	15
Bola bog‘	24
Yanoshning kaptari (voqeyi hikoya)	28
Front yo‘llarida	35
Erkinjonning buvasi	44
Nodirning nafrati	47
Sharifaning qorni nega og‘ridi?	55
Minnatdorlik	58
“Hech kim yo‘q, pan ofitser!”	67
Qumrining noto‘g‘ri ishi	71
Jangchi va qush	77
Bir xalta tosh	84
Uch oyoqli it	89
Urush so‘qmog‘ida	96
Quduq	100
Komandirning hikoyasi	105
“Chinnigul”ning yutug‘i	109
Oqqushning kenja bolasi	111
Aziz rasm	121
Sayyoh kaktus	131
Yetim boshin silaganlar	136

Qissalar

Yaxshi niyatli kishi	142
Chanqoqlik	205

SHUHRAT

YETIM BOSHIN SILAGANLAR

Hikoya va qissalar

“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent — 2005

Muharrir *Erkin Malik*
Rassomlar *X. Ziyoxonov, N. Shoabdurahimov*
Badiiy muharrir *G. Shoabdurahimova*
Texnik muharrir *R. Boboxonova*
Musahhah *Sh. Xurramova*

Diapozitivdan 28.03.2005 da bosishga ruxsat etildi. Bichimi 84x108^{1/32}. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 11,8. Nashriyot-hisob tabog'i 7,6. Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 1306. Bahosi shartnoma asosida.

“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
700083. Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.